

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**Doniyor Abdullayev
Lola Usmanova**

QO‘G‘IRCHOQ BOSHQARISH ASOSLARI

*(Qo‘girchoq teatri san‘atida simli
qo‘girchoq)*

O‘quv qo‘llanma



Toshkent – 2014

MUNDARIJA:

Kirish

Asosiy qism

I bob. Qo'g'irchoq teatrida simli qo'g'irchoq bilan ishlash an'analari

.....

II bob. Qo'g'irchoqni boshqarish tizimlarida simli qo'g'irchoqning o'rni

III bob. Simli qo'g'irchoqni boshqarish mahorati va uning muammolari

VI bob. Qo'g'irchoq spektakllarning tug'ilishida boshqaruv mezonlarining

o'rni

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

Kirish

Yosh avlodni estetik tarbiyasi masalalari O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrlari ijodiy faoliyatining asosini tashkil qiladi. Jajji fuqarolarga mustaqillik mafkurasini singdirish, ongi va qalbini ezgulik hislariga to‘ldirish, ularni barkamol, vatanparvar yoshlar qilib tarbiyalash mamlakatimizda yangi davrning vazifasi bo‘lib qoldi. Milliy o‘zligini chuqur xis etuvchi, yangicha dunyoqarashga ega fuqarolarni shakllantirishda umuman teatr san’atining o‘rni beqiyos, ahamiyati ulkan. Ayniqsa, insonga nafis tuyg‘ularni go‘daklik chog‘laridan boshlab singdirib borish, jajji bolajonlarimizni ezgulikka, go‘zallikka oshno qilishda qo‘g‘irchoq teatrining xizmatlari ulkan.

Qo‘g‘irchoq teatrlari davrimizning ma’naviy vazifalarini bajarishlari uchun, albatta, munosib repertuarga, san’atkorlik mahoratiga ega bo‘lishi kerak. Teatr san’ati ijodkorlari faoliyatida sho‘rolar davrida ildiz otgan befarqlik, o‘zibo‘larchilik, mas’uliyatsizlik kabi illatlarni bartaraf etib, yangi ma’naviy extiyojlarni qondira oluvchi sahna asarlari yaratish fidoyilik, qizg‘in munosabat, aniq g‘oyaviy – badiiy yondashuv, ijodiy izlanishlarni, o‘zaro muvofiqlashtiruvchi professional mahoratni talab qila boshladi. Ayniqsa, ijroda maxsus asbob – anjomlar bilan faoliyat olib borish qonuniyatlariga asoslangan qo‘g‘irchoq teatri ijodkorlari uchun professionalizm masalasi kattalar teatrlaridan farqlanadi. Shunday ekan, qo‘g‘irchoq teatri aktyori o‘z faoliyatida katta teatrlar aktyori uchun shart bo‘lgan ijro “aktyor mahorati” tamoyillariga to‘la amal qilish bilan birga qo‘g‘irchoq teatrining muhim ijro uslubiyatini professional tarzda bilishi kerak.

Qo‘g‘irchoq teatri bo‘limida kasb mahoratini egallash jarayonlari kattalar teatrlariga aktyorlar va rejissyorlar tayyorlash jarayonidan qonun – qoidalari va manbalari nuqtai nazaridan keskin farq qiladi. Shu “ayrim farqlar” ifodasi zamirida qo‘g‘irchoq teatri aktyori ta’limida katta o‘rin egallagan texnik va texnologik tomonlarida ko‘rinadi. Qo‘l harakati – qo‘g‘irchoq teatri aktyori ijrochiligining mag‘zidir. Qo‘llarning ifodali xatti – harakati qo‘g‘irchoq

personajning plastik xatti – harakatlarida ko‘rinadi, obrazning ichki va tashqi mazmun mohiyatini ochishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qo‘g‘irchoqlarning barcha turlarida ham aktyorning fikri – rejalari asosan uning qo‘llari orqali badiiy – sahnaviy yechimni yuzaga chiqaradi. Bu – qo‘g‘irchoq teatri san’atining asosiy professional talabi sifatida e’tirof etilgan. Demak, qo‘g‘irchoq teatri aktyori o‘qish va o‘rganish jarayonida ijro va uslubiyat masalalari katta ahamiyatga molik bo‘lib, uni tahlil qilish, me’zonlarini belgilash hozirgi davr ta’lim tizimida dolzarb ahamiyatga ega. Hozirgi zamon qo‘g‘irchoq teatri amaliyotida qo‘lqopli, simli, planshet va boshqa turlari badiiy asarning g‘oyaviy mazmuni, badiiy yechimidan kelib chiqib, o‘zaro uyg‘un tarzda qo‘llaniladi.

Respublikamizda o‘ndan ortiq davlat qo‘g‘irchoq teatrlari, shuningdek joylarda havaskor va yarim professional hamda turli mulkchilik shakllaridagi teatrlar faoliyat yuritmoqda. Qo‘g‘irchoq teatr aktyorini tarbiyalash, bu san’at uchun mahoratli mutaxassislarni yetishtirish masalasi hozirgi davrda alohida e’tiborga egadir.

O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri soni va salmog‘i jihatidan jamiyat ma’naviyatida o‘z o‘rniga egaligi, yosh avlodning madaniyati va estetik sa’viyasini shakllantirishda katta ahamiyatga molikligi shubhasiz. Bunday ulkan vazifani faqat professional ta’lim olgan san’atkorlarga uddalay olishlarini nazarda tutgan holda qo‘g‘irchoq teatri san’atida beqiyos o‘ringa ega simli qo‘g‘irchoqlarni badiiy imkoniyatlari va bu soha aktyorlari mahoratini o‘rganish va unda mashqlar, treninglarning hal qiluvchi ahamiyatini yoritishdir.

Ushbu qo‘llanma san’at oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari talabalarida, professional va havaskorlik qo‘g‘irchoq teatri aktyorlarida ijro ko‘nikmalarini shakllantirishda qo‘llanma vazifasini o‘tashi mumkin.

Qo‘g‘irchoq teatrida simli qo‘g‘irchoq bilan ishlash an‘analari va ayrim o‘ziga xosliklari



“Olmos Botir”, rejissyor Sh. Yusupov

Dunyo xalqlarining barchasida qadim zamonlardan beri turli bayramlar, to‘y, marosimlar mavjud bo‘lib ular ko‘pchilik ishtirokida o‘tkazilgan va drama teatr tug‘ilishiga sababchi bo‘lgan. Ularning asosida yakka kuylovchi va unga qo‘shiluvchi omma orasida muloqot (dialog)dan dramatik xususiyatli xatti – harakat yuzaga kelgan. Demak, teatr dunyoga kelishidanoq xalqchil, ommaviy, odamlar ma’naviy hayotining zarur bir qismi sifatida tashkil topgan. Shuning uchun ham teatr dunyoning turli joylarida bir-biridan mustaqil ravishda tug‘ilavergan. Dunyo teatrining tarixi bir necha asrlarni qamraydi. Dunyo teatri o‘z tarixida ko‘p bosqichlarni o‘tib, turli tendensiyalarni o‘zlashtirgan. Teatrning rivojlanish yo‘lida dramaturgiya va ijro san‘atiga xos bo‘lgan antik teatr ko‘rinishlaridan to hozirgi davrlarga xos yangi ijodiy uslubiyatlargacha barcha millat teatrlariga xos, ammo, ularning shakllanish jarayonlari dunyoning turli manzillarida tarixiy, ijtimoiy – siyosiy sabablarga ko‘ra turlicha ko‘rinishda va o‘ziga xos vaziyatlarda amalga oshgan.

Qo'g'irchoq teatrining tug'ilish va shakllanish jarayonlari esa bir necha o'zgacha yo'sinda bo'lib o'tgan. Qo'g'irchoq teatrining tarixi ham ming yilliklardan iborat bo'lib, eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qo'g'irchoq teatri dunyoning istalgan yerida uchraydigan san'at turidir. Bu san'at chamasi, ibodat marosimlari bilan bog'liq holda tug'ilgan bo'lishi kerak, binobarin, qariyb barcha makonu – manzillarda qo'g'irchoq teatrining ilk shakllari diniy mavzu bilan bog'liq. Ammo xalq qo'g'irchoq teatrining tarixi ham undan kam emas. Xalq qo'g'irchoq teatri paydo bo'lgan chog'idanoq odamlarni kuldirish va ularga zavq berishni o'zining asosiy maqsadi deb bilgan. Ehtimol, shuning uchun dunyodagi barcha xalqlarning qo'g'irchoq teatri asosiy qahramonlari ma'no – mohiyati bilan bir – biriga o'xshashib ketadi. Ularning ismlari milliy, ya'ni Angliyada – Panch, Fransiyada – Polishinel, Germaniyada – Kaspir, Rossiyada – Petrushka, Turkiyada – Qorako'z, O'zbekistonda – Kachal Polvon va hokazolar. Ammo ularning hammasi topqirlikda, qiziqlikda, donolikda, yengilmaslikda, haqiqatgo'ylikda go'yo bir ota – onaning farzandlaridek. Ularning bariga hushchaqchaqlik, har qanday murakkab vaziyatlardan yo'l topib chiqib ketish xos xususiyat. Ularning tili ravon, obrazli, hamma tushunib yetadigan tildir.

Qo'g'irchoq teatrining uzoq tarixiy rivojlanishi jarayonida juda ko'p shakllari yaratilgan. Ularning eng oddiysi qo'lqopli qo'g'irchoq deyiladi, chunki ular qo'lga qo'lqopdek kiyiladi. Cho'p qo'g'irchoq yoki simli qo'g'irchoqlar ancha murakkab, negaki qo'g'irchoqlarning tanasidagi harakat qilishi lozim yerlarga uzun, ingichka yog'och, yoki sim mahkamlanadi. Qo'g'irchoqboz aktyor cho'p va sim vositasida qo'g'irchoqni harakatlantiribgina qolmaydi, balki uning yuzi, boshlarini u yoq bu yoqqa burishi, quloqlarini qimirlatishi ham mumkin bo'ladi.



“O‘z uyingni o‘zing asra”, rejissyor M.Ashurova

Qo‘lqopli va simli qo‘g‘irchoqlar (verxovoy) tepa qo‘g‘irchoqlardir, chunki ularni aktyor pastda, maxsus shirma ortida turib bajaradi.



“Buratino”, qo‘g‘irchoq ustasi F.Xo‘jayev

Tepadan boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar ham borki, ular marionetka qo‘g‘irchoqlar deb ataladi. Qo‘g‘irchoq tanasining turli joylariga ingichka iplar bog‘lanadi, tomoshabin ularni qariyb ko‘rmaydi. Iplar qo‘g‘irchoqboz qo‘lidagi maxsus asbob – vagaga ulangan bo‘ladi. Iplarni ustalik bilan tortib – tortib, aktyor qo‘g‘irchoqni yurg‘izadi, o‘ynatadi, ta‘zim qildiradi, istagan maqomiga yo‘rg‘alata oladi. Ayrim murakkab marionetka – qo‘g‘irchoqlarda yigirma, hatto o‘ttizga yaqin boshqaruv iplari bo‘lishi mumkin. Bunday qo‘g‘irchoqni, albatta, bir necha aktyor boshqaradi. Zaldagi o‘tirgan tomoshabin esa zalda qo‘g‘irchoqning odamga shunchalik o‘xshashidan, mustaqil ajoyib harakat qilishidan hayratlanib o‘tiradi.

Ayrim Osiyo mamlakatlari, shuningdek Hindistonda necha ming yillardan beri soya teatri mavjud bo‘lib, bunday qo‘g‘irchoq teatrida shirma

ham, dekoratsiya ham bo‘lmaydi. Tomoshabinlar orqasidan nur bilan yoritiladigan katta oq ekran qarshisida o‘tiradilar. Qo‘g‘irchoqboz – aktyorlar ham ekran qarshisida (ammo uning orqa tomonida) o‘tiradilar. Ular nozik suyak tayoqchalar bilan tekis qo‘g‘irchoqni ekranga taqab chiqadilar, natijada aniq soya yaqqol ko‘rinadi.



“Oyni kim o‘g‘irladi”, rejissyor F.Xo‘jayev

Soya teatrlarida qadim zamonlardan boshlab mifologik va jangovarlik syujetlar aks etgan pyesalar o‘ynaladi. Bunday spektakllar uchun tomoshabin maxsus tushunchaga ega bo‘lishi shart emas, chunki she’rlar va rivoyatlar uning qulog‘iga quyilaverib, yod bo‘lib qoladi. Bunday teatrdan aktyor qahramonni “ko‘rsatsa” yetadi, qolganiga tomoshabinning fantaziyasi o‘zi qo‘shib – chatib, rivoyatlantirib ketaveradi. Mabodo, qo‘g‘irchoqboz biror yerida xatoga yo‘l qo‘ysa, tomoshabinlar bor ovoz bilan unga nima qilish kerakligini aytib bera oladilar. Ko‘pincha, bunday spektakllarda ertakchi ishtirok etadi va voqea mazmunini aytib turadi.

XX asrga kelib dunyoning ko‘p mamlakatlarida professional teatrlar vujudga keldi. Jumladan Rossiyada 1922 yili, O‘zbekistonda 1929 yili davlat professional teatrlari tashkil topgan.

Qo‘g‘irchoq teatrining an‘analari va ularning davomchilari

Uddaburon, hozirjavob, yengilmas, xalqparvar Kachal, dono Bichaxon, quvnoq, o‘tyurak Aldar ko‘sa, borliqni ko‘z ochib ko‘rib, hayratga to‘lgan Sembo, baxt qushini axtarib yo‘lga chiqqan dovyurak Bunyod, afsonaviy go‘zal Galateya haqidagi sehrli tomoshalar; qo‘g‘irchoqlarning aql bovar qilmaydigan sehrli xatti – harakatlaridan ko‘zini uza olmay, kamalakdek serjilo ovozlarga mahliyo bo‘lib o‘tirgan men singari bolalar kechagidek esimda...

Bolalik yillarim ortda qoldi... Yuqorida eslab o‘tgan tomoshalarni yillar mobaynida drama teatri sahnalarida, televideniyaedagi talqinlarini ko‘rdim, biroq, men sehrlagan, dutor va doira sadolari ostida barg yozayotgan Lolaqizg‘oldoq, tuya va eshaklarga minib poyga qo‘yayotgan oshiqlar, oyinging billur yo‘lkasidan kapalakdek yelib yugurayotgan Zolushka, afsonaviy Semurg‘ qush faqat men sevgan Respublika qo‘g‘irchoq spektakllarigagina xos edi.

Ushbu teatr sobiq ittifoqdosh respublikalarda mavjud bo‘lgan 143 ta qo‘g‘irchoq teatrlari orasida o‘z an‘anasi, repertuari yo‘nalishiga ega bo‘lgan teatrlardan biri bo‘lib, nafaqat respublika tomoshabinlarini, balki qardosh respublikalar, ko‘pgina chet ellarda ham o‘z muxlislari qalbini rom qilgan san‘at dargohidir. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalari qo‘g‘irchoq teatrlarining mintaqaviy festivali, Osiyo va Afrika mamlakatlari qo‘g‘irchoq teatrlarining xalqaro festivallarini Toshkentda o‘tkazilganligida mazkur teatr jonkuyarlarining munosib hissasi bor.

O‘zining 80 yillik faoliyati davomida teatr o‘ziga xos yo‘nalishda aktyorlar tayyorlash tajribasiga ham egadir. O‘zbekiston davlat qo‘g‘irchoq teatri tarbiya topgan ko‘plab aktyorlar nafaqat respublika teatrlarida, sobiq ittifoq teatrlarining ko‘pchiligida ijod qilganlar. Jumladan, Sankt –

Peterburgdagi “Skazka” Davlat qo‘g‘irchoq teatrida S.Solihov, Moskvadagi Markaziy Davlat qo‘g‘irchoq teatrida Ye.Boboyeva, Moskva viloyat qo‘g‘irchoq teatrida G.Gudaykina, Voronej davlat qo‘g‘irchoq teatrida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist M.G‘ulomovalar shular jumlasidandir.

Qadimdan sharq mamlakatlarida qo‘g‘irchoqbozlik san‘ati kasb hisoblanib, avloddan – avlodga meros qoldirilgan. Shogird ustozdan bu san‘at sirlarini mukammal o‘rgangach, jonliq so‘yib, oqsoqollardan fotiha olib, keyin o‘zi mustaqil qo‘g‘irchoqbozlik bilan shug‘ullangan.

70-80 - yillarigacha ham Respublika qo‘g‘irchoq teatrida ham ustozoda qo‘g‘irchoqbozlar o‘z san‘at sirlarini teatrga kelgan yoshlarga o‘rgatishgan. T.Doniyorov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar A.Saydaliyev, N.Zaynitdinov, M.Rahmatullayeva, Zoya Is‘hoqova kabilar ko‘plab qo‘g‘irchoqboz aktyorlarga ustozlik qilishgan va Respublikadagi qo‘g‘irchoq teatrlarining tashkil topishiga salmoqli hissa qo‘shganlar. O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrida hozirgi aktyorlar uchun ham qimmatli ijodiy maktab vazifasini o‘tashga qodir san‘atkorlardan biri bo‘lgan, ijro qilgan rollari, qo‘ygan spektakllari O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri tarixida o‘chmas iz qoldirgan Tohir Mahramov ijodiy yo‘li haqida batafsilroq to‘xtalish zarur.

Binobarin, ustozoda qo‘g‘irchoqbozlardan bu eng mashaqqatli va shu bilan birga eng mas‘uliyatli san‘at sirlarini o‘rganib, o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rivojida o‘ziga xos aktyorlik mahorati va tashkilotchilik faoliyati bilan yorqin iz qoldirgan san‘atkorlardan biri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Tohir Mahramov edi.

Y.Ohunboboyev nomidagi madaniyat uyi qoshidagi havaskorlik teatrida A.Korneychukning “Platon Krechit” spektakli ko‘rikdan o‘tkazilayotgan paytda Respublika qo‘g‘irchoq teatrining bosh rejissyori Sheykin Arkadiy Pavlovich rolini ijro etgan T.Mahramovning iste‘dodini fahmlab, professional teatrida ishlashga da‘vat etadi. U taklifga tez ko‘na qolmay, bir necha kun davomida teatrga kelib qo‘g‘irchoqboz aktyorlarning mahoratlarini o‘rgandi. Ommaviy

sahnalarda qatnashib yurdi. Kunlardan bir kuni yangi yil archa bayrami tomoshalarida Qorboboni o'ynaydigan aktyor kasal bo'lib qoladi. 16 yoshli T.Mahramov ana shu kundan e'tiboran teatrda Qorbobo rolini ijro eta boshlaydi. 30 yil davomida har yili archa bayrami tomoshalarida bolalarning sevimli Qorbobosiga aylanib qoldi. Teatr, maydonlar, madaniyat saroylaridagi archa bayramlari tantanalarida, maktablar, bog'chalarda o'tadigan bayram shodiyonalarida T.Mahramov – Qorbobo yer yuzidagi barcha xalqlarning yangi yil bilan bog'liq urf – odatlari, qiziqarli o'yinlari, she'r – qo'shiqlarini o'z muxlislariga yetkazar, bu mavzuda tinmay izlanardi...

Ana shu 30 yil davomida aktyor o'zining sevimli teatri sahnasida qanchadan – qancha qo'g'irchoqlarni jonlantirib, tilga kiritmadi deysiz. Qorbobo roli bilan bir vaqtning o'zida S. Preobrajenskiyning o'zbek xalq ertaklari asosida yaratilgan “Ur to'qmoq” spektaklida Boy obrazini, “Sehrli chiroq” spektaklida ham Boy, Y. Aleksandrovning “Aldar ko'sa” spektaklida Shig'ayboy, S. Abduqahhorning “Alijon va Valijon” spektaklida Boy, S.Somova va Zulfiyaning “Semurg'” spektaklidagi Shoh obrazlari aktyorning yetuk mahorati, qo'g'irchoqbozlik san'ati sir – asrorlarini mukammal egallaganligi, satirik tuyg'ularining o'tkirligi, plastik ifodalarning boyligi bilan ajralib turardi va tomoshabinlarni o'ziga rom qilardi.

T.Mahramov ustozlaridan qo'g'irchoqbozlikning nozik sirlari, an'analarini o'rganib dastlabki qadamlaridanoq bolalarni ahloqiy va estetik ruhda tarbiyalashda teatrning imkoniyatlari juda katta ekanligini his etgan edi. Shuning uchun ham, aktyor har bir yangi obrazida xalq an'anaviy san'atining nafis tomoshalari–yu, yangi uslublarini topib, qo'g'irchoqda o'ziga xos sayqallangan xatti –harakatning ichki kechinmalar bilan hamohangligi, plastika, improvizatsiyaga boyligi bilan betakror yangilik yaratar va qo'g'irchoqlarning yorqin karakterini ochib berar edi. U qaysi qo'g'irchoq bilan sahnaga chiqmasin, tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo'lardi. H.Rahmatning “Ovdagi hodisa” spektaklida Bo'ri, N.Habibullayevning “Fotimaning

sarguzashtlari” spektaklidagi Ro‘dapo, Ye.Shvarsning “Yalang‘och qirol”ida Qirol, B.Pador va S.Darashning "Go‘zal Galateya"sida ichkilik xudosi Baxus, Pigmalion, A.S.Pushkin ertaklari asosida yaratilgan spektakllarda Petrushka, Shoh Dadon, H.Olimjon va Zulfiya asari “Oygul va Baxtiyor” spektaklidagi Darxon shular jumlasidandir. Bu qo‘g‘irchoqlarning qiyofasidagi harakatlanadigan bo‘laklardagi kulgili har bir xatti-harakatlari, shu harakatlariga mos gapirishi, hatto aktyorning partnyorlarini ham holatdan chiqarardi, kuldirib, qo‘shimcha improvizatsion dialoglar ijrosiga sabab bo‘lar edi.

Har bir detalni tafsilotlarigacha atroflicha idrok eta bilish, hozirjavoblik, satirik tuyg‘uning o‘tkirligi, plastik ifodaning boyligi bilan aktyor o‘zining partnyorlari ijodiy imkoniyatlarini ochib berar edi. “Birinchi Respublika festivali o‘tayotganda N.Habibullayevning “Fotimaning sarguzashtlari” spektakli namoyish qilindi. Bir qarashda oddiy tuyulgan, 60 - yillarning uslubiga xos tayyorlangan ushbu spektakl favqulodda muvaffaqiyatga da‘vogar emasdi.

Katta yoshdagi tomoshabinlar bolalarning ta’sirchanligiga umid bog‘lashar, jiddiy qiyofadagi tanqidchilar bir–birlari bilan shivirlashib o‘tirardilar xolos. Nihoyat sahnada yovuz kuchlarning timsoli Ro‘dapo paydo bo‘ladi. Boy plastika va birgina luqma – “Poti, Potixon” degan so‘zlari tufayli qahqaha va chapakdan zal junbushga keladi. Juda qisqa bu epizod va bilinar – bilinmas aytilgan luqma Rossiya shaharlaridan kelgan mehmonlar va tanqidchilarga tushunarsiz edi. Ularning har biri yonlarida o‘tirgan kishilardan “Nima gap?”, “Nega zal bu qadar junbushga kelayotir?” deb so‘rardilar. Ming bor afsuski, obrazning nozik nutq xarakteristikasini, aktyor topilmasining jozibasini tarjima qilish, yohud tushuntirib berish mushkul edi. Bir so‘z bilan aytganda, bu – aktyorning kichkina kashfiyotlaridan biri ediki, qo‘g‘irchoqboz san’atini bularsiz tasavvur etish mumkin emasdi. Ana shu rol ijrosi uchun

X.Mahramovga festival mukofoti topshirildi...”-deb yozgan edi san’atshunoslik nomzodi N.Zohidova.

Albatta, bu aktyor ijrosidan birgina epizod, vaholanki uning har bir yaratgan roli haqida shogirdlari E.Yo‘ldosheva, Sh.Komilova, Sh.Soliyeva, D.Soliyevlar to‘lqinlanib gapirib beradilarki, undan katta bir kitob yaratsa bo‘ladi. Ular eng ko‘hna san’at turlaridan biri qo‘g‘irchoqbozlik sir-asrorlarini o‘rganishlarida, barcha turdagi qo‘g‘irchoqlarni boshqarishlarida, umuman o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri ravnaqiga o‘z ulushlarini qo‘shishlarida ustozlari T. Mahramovning xizmatlari beqiyosligini faxr bilan eslashadi.

T.Mahramov 1983 yili M.Uyg‘ur nomidagi Toshkent Davlat san’at institutining rejissura bo‘limini tugatib, rejissyor sifatida ham bir necha asarlarni sahnalashtirdi. Jumladan, M. Halilning “Sirli nay”, Y.Borisovning “Qorboboga sovg‘alar”, P.Yershovning “Bukri toychoq”, H.Imomberdiyevning “Sirli xarflar oroli” asarlari asosida yaratgan spektakllarida uning o‘ziga xos yo‘nalishi, qo‘g‘irchoq teatri qonuniyatlarini chuqur his qilishi sezilib turardi. 1988 yili o‘tkazilgan teatrlarning Respublika festivalida X.Imomberdiyevning “Sirli harflar oroli” spektakli uchun T.Mahramovga eng yaxshi rejissyor mukofoti topshirildi...

Qo‘g‘irchoq san’ati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi, undagi noyob iste’dod haqidagi taassurotlar Respublika qo‘g‘irchoq teatri tarixida abadiyligiga ishonganim holda, qo‘g‘irchoq sistemalarining barchasida barakali ijod qilgan, ayniqsa trostli qo‘g‘irchoqlarni ishlatishda katta mahorat egasi bo‘lgan, Tohir Mahramov uslubiyati zamondosh qo‘g‘irchoqboz san’atkorlar kasb mahoratlarini shakllantirishdagi ahamiyati bu aktyor va rejissyor haqida kengroq to‘xtalishga undadi. O‘lmas va bardavom an’analar doimo o‘rganilib borishi lozim.

Qo‘g‘irchoqni boshqarish tizimlarida simli qo‘g‘irchoqning o‘rni

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorining asosiy va hal qiluvchi qudrati uning qo‘llaridadir. Qo‘llarning tinimsiz, yaratuvchanlik va boshqaruvchanlik faoliyati qo‘g‘irchoq teatri aktyorining mahoratini ko‘rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi. Aktyor qo‘g‘irchoq boshqarish texnikasi sirlarini mukammal egallagandagina qo‘llar bunday mahorat omiliga, san‘at darajasiga aylanib qoladi.



“O‘z uyingni o‘zing asra”, rejissyor M.Ashurova

Qo‘llar banday vazifalarni bajarishga qodir ekanligini katta teatrlar sahnasida faqat professional aktyorlar harakat qilganlarida diqqat bilan kuzatusak, rolni bajarishda g‘oyat aktiv va g‘oyat passiv qo‘llarni ko‘ramiz. Mahoratli aktyorning qo‘llari, barmoqlari obrazning muhim jihatlarini ochishda badiiy vosita sifatida namoyon bo‘lsa, mahoratsiz aktyorning qo‘llari osilganча turaveradi. Uquvsiz aktyor qo‘llarini qayerga qo‘yishini bilmasligini ham hozirgi dramatik teatrlar sahnalarida ko‘p uchratish mumkin.

Umuman, inson faoliyatida fiziologik xatti–harakatni ong, shuur, psixologik jixatlari bilan bevosita aloqadorligi aktyor faoliyatida, badiiy obraz jarayonida yetakchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Jismoniy xatti-harakatni ong bilan boshqarilib amalga oshishiga doir oddiy bir misolni dramatik va qo‘g‘irchoq teatri sahnasida ko‘rinishiga e‘tibor beraylik. Aytaylik, sahnadagi faoliyati davomida personajning stulga, supachaga yoki yerga o‘tirishi lozim bo‘lib qoladi. Aktyorda o‘tirish istagi tug‘iladi. Shu ondayoq miyaga shunga muvofiq (nervga) asabga ta’sir qiluvchi buyruq kelib tushadi. Ta’sir markaziga intiluvchi kuch vositasida markaziy nerv sistemasiga undan harakat nervning markazdan qochuvchi tomirlariga o‘tib odam orqasi, tos suyagi, oyoqlari va harakatda ishtirok etuvchi boshqa a’zolarining muskuliga beriladi. U yoki bu muskulning torayishi, yoki uzayishi odatga aylangan (stereotip) xatti–harakatni bajarilishini ta’minlaydi. Reflektor dugasi yopiladi, ya’ni odam o‘tiradi. Bu – dramatik teatr sahnasida ko‘rinadigan holat.

Qo‘g‘irchoq teatr aktyori badanida bu fiziologik jarayon qanday kechadi? Qo‘g‘irchoq – personaj bilan aktyor o‘rtasida chambarchas funksional aloqa yuzaga keladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan o‘tirish jarayoni reflektor dugasitning birinchi qismi dramatik teatr va qo‘g‘irchoq teatri aktyorida bir xil kechadi (buyruq, istak, nerv tomirlarining harakatlanishi), ammo ikkinchi qism keskin farqlanadi. Yerga (stulga, supaga va h.k.) aktyor emas, qo‘g‘irchoq o‘tiradi. Biroq qo‘g‘irchoqning o‘tirishi uchun, inson tanasi muskullarning mutlaqo bo‘lak tizimlari harakatga keladi. O‘tirish vazifasini bajarishda aktyorning yelkasi, bilaklari, tirsaklari, qo‘llari va barmoqlari faol harakat qiladi. Ana shu badan a’zolari muskullari vazifani ong yordamida bajaradi. Aynan, doimiy funksional aloqa qo‘g‘irchoq qaddi-qomati, boshi, oyoq – qo‘llari, xullas, butun tanasini berilgan vazifaga monand holatga keltiradi. Aktyor va qo‘g‘irchoq orasidagi funksional aloqadorlikning doimiyligi quyidagi misollarda aniq ko‘rinadi.

Masalan, ma'lum qo'shiqni tinglab o'tirgan ashulachining ovoz pardalari charchagan bo'ladi, shunda u beixtiyor ravishda ohangni tovush bilan qaytara boshlaydi. Sportchi, ma'lum bir kombinatsiyani amalga oshirar ekan, uning tomirlari beixtiyor zarur xatti-harakatga chog'lanadi. Televizor qarshisida futbol yoki boksni tomosha qilib o'tirgan muxlisning tanasi maydondagi yoki ringdagi sportchi xatti-harakatlarini beixtiyor amalga oshira boshlaydi. Sportchilar va fiziologlarda bu jarayon ideamor hodisa deb ataladi: "Harakat haqidagi fikr, mazkur harakatda qatnashuvchi tana qismlari muskullari oz-moz torayishi bilan birgalikda kechadi". Qo'g'irchoq teatri aktyori tanasida ana shunday holat doimo uchrab turadi. Hayolan o'ylashga va qo'g'irchoq – personaj plastikasida amalga oshirilgan xatti-harakat aktyor tanasida begonalar ko'pincha ilg'amaydigan muskulning torayish–uzayish jarayonlari tabiiy, chunki aktyor har qanday katta–kichik harakatni avval o'z tanasida xis qilib, so'ng qo'g'irchoqqa uzatadi.

Dramatik teatr aktyorlari o'z tanalari, a'zoyi-badanlari bilan sahnaviy personajning xatti-harakatini jonlantirishga o'rganib ketadilar. Badiiy personajga jonli aylanib ketishning fiziologik mexanizmlari dramatik teatr aktyorning faoliyatida odatiy tus oladi, osongina eplanadigan bo'lib qoladi, o'zga qiyofani ichiga kirib mujassamlashtirish dramatik aktyorga ijodiy zavq bag'ishlaydi. Endi, shu aktyor qo'liga qo'g'irchoq berib qo'ysangiz, unda odatga aylangan o'quvlar to'g'ri kelmay qoladi, qo'g'irchoqning badiiy imkoniyatlariga ishonmaydi, qo'g'irchoqni yoqtirmay qo'yadi. Bu yaxshi maktabni o'tagan ajoyib xonandaning qo'liga surnay berib, qo'shig'ingni ohangini chalib ber diyish bilan barobar. Qo'g'irchoq teatri aktyori ham dramatik teatr aktyorlariga o'xshab aktyorlikning realistik uslubiyati maktabida shakllansalarda "jonli" planda mashqlarni me'yorda bo'lgani ma'qul.¹


¹ Siminov P.V. "Myetod Stanislavskogo i fizicheskiye emotsii". M.: 1962, 85s.

Qo'g'irchoq – personaj aktyor va tomoshabin

Qo'g'irchoq teatr sahnasi deganda eng avvalo shirma, shirma usti nazarda tutiladi. Ammo voqealar, personajlar shirma oldida va yonlarida ham bo'lishi mumkin. Hatto, shirmasiz ochiq sahnada niqobli odam – qo'g'irchoqlar ijrosini ham uchratish mumkin. Ayniqsa, zamonaviy qo'g'irchoq teatrida qo'llanadigan ifoda vositalari sermaxsul va rang-barang.

Qo'g'irchoq teatri aktyori dramatik teatr aktyoriga qaraganda o'zi yaratayotgan badiiy obrazni, o'zi jonlantirayotgan personajni ko'rib, kuzatib borish imkoniyatiga ega. Uning harakati, tanasi, qo'g'irchoq aktyorning doimiy nigohida. Biroq, uning nigohi hayotdagidek tabiiy, ro'paradan turib emas, balki pastdan o'zining boshidan yuqoriga qarab qadalgan bo'ladi. Zotan shirma balandligi chegarasi qo'g'irchoqning oyoqlari turadigan tayanch maydon, aktyor esa pastdan yuqoriga qarab turib, o'zining qo'lqopli, trostli qo'g'irchoqlarni, tepaga qarab o'ynatadi. Ana shu personaj uning egasi – qo'g'irchoqbozga qanchalik noqulay, notabiiy vaziyatda ko'rinmasin, tomoshabiniga g'oyat tabiiy, badiiy jozibador va ishonarli holda namoyon bo'lishi kerak. Ushbu suratda qo'g'irchoqning tomoshabiniga va qo'g'irchoqboz aktyorga ko'rinish vaziyati aks ettirilgan. Ma'lum bo'lishicha qo'g'irchoq uning oyoqlari tagida, yoki boshdan pastda turib boshqarayotgan aktyorga – pastdan, yondan, orqadan yoki pastdan, yondan – oldidagina ko'rinib tabiiylikka zid bo'lar ekan. Bu shirma ostida boshqariladigan sharoitdagi holatdir. Agar qo'g'irchoq planshet ustida ochiq usul bilan boshqarilsa tepadan–orqadan, yoki orqadan–yondan ko'rinadi. Qo'g'irchoqni aktyor tomonidan ko'rinishining boshqa yo'nalishlari, nuqtalari ham bo'lishi mumkin. Hammasi qo'g'irchoqning turiga va boshqaruv uslubiga bog'liqdir.

Simli qo'g'irchoq sirlari



Sim(trost)li qo'g'irchoqning boshqarilishiga oid hodisani kuzatamiz. Aktyorning nigohida sahna o'zining barcha tarkibiy qismlari bilan yuqorida namoyon bo'ladi. Spektakl bezaklari, asbob-anjomlar va hatto qo'g'irchoqning o'zi ham aktyorning bosh tomonida personajlarning oyoq qo'yadigan joylari ham aktyordan yuqorida, nari borsa aktyor ko'zlaridan baland joylashgan. Qo'g'irchoqning oyoqlari aktyorning boshida bo'lib, uning gavdasi uchun juda noqulay holatda bo'ladi. Qo'g'irchoqning qo'llari, boshini u yoq bu yoqqa burishlari ham pastdan qaraganda o'xshovsiz tuyuladi. Aktyorning qo'g'irchoq teatri shart-sharoitlariga moslasha bilish qobiliyati unga pastdan, yuqoridan, yon tomonlaridan ko'rinadigan manzarani tomoshabinga tushunarli va badiiy mantiqli tarzda tasvir tilini topishi kerak. Aktyor o'ziga noqulay, beo'xshov ko'rinayotgan qo'g'irchoq personajni tomoshabin uchun erish tuyulmaydigan, tushunarli holatlarda ko'rsata bilash haddini olishi zarur.



Qo‘g‘irchoqning sahnaviy qiyofasi uch yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Birinchi – aktyor tomonidan o‘ylab pishirilgan va hayolan tasavvur qilingan ko‘rinishi; ikkinchisi – aktyor joylashgan nuqtadan uning nigohiga tushadigan ko‘rinishi; uchinchisi – tomoshabin ko‘rib kuzatadigan qiyofa. Aktyorning mahorati qanchalik yuqori bo‘lsa rejalashtirilgan obraz bilan namoyon bo‘layotgan qiyofa orasidagi farq shunchalik kam bo‘ladi.

Qo‘g‘irchoq tomoshabin nigohida qanday gavdalanishini aktyor aniq bilishi kerak. Qo‘g‘irchoqning xatti – harakatlarida rejalashtirilgan va bajarilgan ishlar orasidagi farqning katta-kichikligi aktyorning obrazni tasviriy ifodalay olishidan tashqari, ko‘p jihatdan uning texnik tayyorgarligiga, qo‘g‘irchoqning makon ichra holatini to‘g‘ri baholashga bog‘liqdir.

Tinimsiz amaliy mashqlar natijasida aktyorda qo‘g‘irchoqni tasviriy ko‘rsatuv uquvi asta – sekin orta boradi, noqulay holatlarda qo‘g‘irchoqning tabiiy holatini, qaddi-qomati qanday turishi, tana a‘zolari qanday harakat qilishini to‘g‘ri tasavvur qilishni ko‘z qiri tushishi bilanoq aniq ko‘z oldiga keltirish imkoniyatlari orta boradi. Bunday uquv pisha borgan sari qo‘g‘irchoqning rakursini his etish, qo‘g‘irchoq teatri olamiga moslashish

natijasi sifatida shakllanadi. Bunday hissiyot ba'zi aktyorlarda tezroq, ba'zilarida esa sustroq shakllanadi.

Aktyor qo'g'irchoq personajning o'z xayolida, ongida fikran rejalashtirgan plastik ta'sirini tomoshabinga tushunarli tarzda sahnaga ko'chirishi uchun bir vositachi zarur bo'ladi. Rejissyor bunday vositachilikni zimmasiga olmaydi. Rejissyor obrazni spektaklning badiiy yechimiga monand plastikasi qanday bo'lishi lozimligini aytib, zarur ko'rsatmalar, maslahatlar beradi. Rolning plastik shakli va mazmunini aktyorning o'zi ijod qilishi zarur. Uning plastik yechimi tomoshabinga tushunarli bo'lmog'i shart.

Chindan ham qo'g'irchoqning plastikasi aktyor o'ylaganiga qanchalik monand ekanligini uning o'zidan boshqa kim belgilab berishi mumkin. Hech kim. Faqat ko'zgugina vositachi rolini bajarishi mumkin. Ko'zgu rol ijodkoriga qo'g'irchoqning plastikasi uning fikriy rejasiga mosmi yoki yo'q degan savolga aniq javob bera oladi. Lekin, aytish kerakki, ko'zgudan faqat xatti-harakatlarni, qomatni tutishni, qo'g'irchoq ko'z qarashlarini kamchiliklarini tuzatish uchungina foydalanish mumkin. Sahnaviy faoliyat va repetitsiyalar vaqtida ko'zguga qarash tavsiya qilinmaydi. Aks holda qo'g'irchoq ko'rinishining uch yo'sini orasidagi aloqadorlik buziladi (aktyor o'ylagan harakat, aktyor kuzatayotgan harakat va tomoshabin ko'rayotgan harakat).

Aktyorning tajribasi orta borgani sari ko'zgudan foydalanish ehtiyoji kamayib boradi, chunki aktyorda to'planib, bisotga aylangan plastikaga taalluqli informatsiya qo'g'irchoqning aktyorga va tomoshabinga ko'rinayotgan holatlarini zum o'tmay, avtomat tarzda muvofiqlashtirish imkonini beradi. Qo'g'irchoqning plastikasi badiiy va hayotiy ifodaviyligi tajribali aktyorlarda oddiy holga aylansa-da, qo'g'irchoqning yangi konstruksiyasiga duch kelishganda o'zlashtirish, ko'zguda sinash va pishitish jarayoni yana yangidan boshlanaveradi. Talabalar bu jarayon bilan butun o'qish davomida band bo'ladilar.

Simli (trostli) qo'g'irchoq bilan munosabat san'ati

Qo'g'irchoq bilan aktyor munosabati g'oyat spetsifik xarakterga ega bo'lib, mashqlarning son-sanoqsiz turlari bilan muntazam shug'ullanib borishni talab qiladi. Qo'g'irchoq teatri aktyori faoliyatining dastlabki davrida yosh bolalar kabi qo'g'irchoq vositasida o'zi uchun yangi xatti-harakatlar tizimini o'rganadi, qo'g'irchoq hulq-atvori, yurish-turishi, butun tanasi, barcha tana a'zolariga tegishli harakat usullarini o'zlashtirish natijasida professional harakat stereotipini shakllantiradi. Aktyor ma'lum holatda turish, yurish, eshitish, ko'rish (qarash) ko'nikmalarini egallab, qo'g'irchoq harakatlarida yarim avtomat usulga erishmog'i kerak. Shundagina aktyor o'z ongida rolning ruhiy-jismoniy holatlarini unutmaslikka imkon qoldiradi. Harakat stereotiplarini shakllantirdi degani barcha qo'g'irchoqlar plastikasini egalladi degani emas. Har bir qo'g'irchoq obrazning badiiy mohiyatidan kelib chiqib, berilgan shart-sharoit va qo'g'irchoq konstruksiyasiga asoslanibgina harakat qilish mumkin. Harakat ko'nikmalari variantlarining cheki yo'q, zotan dunyodagi milliard-milliard odamlarning har biri o'z individual qiyofasi va o'z harakatlanish xususiyatiga ega. Demak, har bir qo'g'irchoqning konstruktiv tuzilishi, obrazining g'oyaziy-badiiy mazmun-mohiyati har safar xatti-harakat ko'nikmalarini aks ettirishda individual yondashuvni talab qiladi. Shuning uchun plastik harakat stereotipi ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan bo'lib, "organizm duch keladigan yangi shart-sharoitlar xatti-harakatlarni ularga moslashuvi uchun zarur o'zgartishlarni talab qiladi".² Qo'g'irchoq aktyorlari tayyorlaydigan o'quv jarayonlari tajribasi ko'rsatishicha, dastlabki mashqlar eng qiyin bosqichni tashkil qilar ekan. Hatto, qo'g'irchoqni asosiy tayanch maydoni (stoyka)ga ko'tarishdek oddiy ko'ringan mashq aktyordan katta mehnat talab qiladi. U bir vaqtning o'zida burilish shaybasida barmoqlari joylashuvi, gapitning holati, tirsak, bilak va qo'llarini monand vaziyatda bo'lishini kuzatishni unutmasligi kerak. Ayni vaqtda qo'g'irchoqning boshi,

² Balausov P.I.Asratlos E.L.Povisheniye dvigatelnix funktsiy posle amputatsiy konechnostey. 1968, 45 – bet/qr Adrianova. 11 – bet/.

qo‘lchalari, qomati, yelkalari va ularni harakatlantiruvchi trostlar holatini ham e‘tiborda tutmog‘i kerak.

Albatta, trost bilan qo‘g‘irchoq boshqarishning dastlabki bosqichida zo‘rma-zo‘rakilik, shiddat va betartib holatlar kuzatiladi. Tarkibiy qismlardan birortasidagi chatoqlikni tuzatish, boshqasida nomutanosiblikni, bular o‘z navbatida talaba badan a‘zolarining shu xatti-harakatlar uchun mas‘ul bo‘lgan qismlarida taranglik, siqqlik, noqulaylik holatlarini keltirib chiqaradi. Mashqlarni bajarish jarayonida talaba hayajonlanadi, o‘z ishidan qoniqmaslik hislarini tuyadi. Qo‘g‘irchoq boshqarishdagi qiyinchiliklarni yenga olmay, tushkunlikka ham tushadi. Ammo bular o‘tkinchi holatlardir. Har bir talaba shuni yaxshi uqib olishi kerakki, yangi xatti-harakat ko‘nikmalarini shakllantirish oson emas. Asta-sekinlik bilan har bir detalni qayta-qayta mashq qilish evaziga yangi harakatlar stereotipini qo‘lga kiritish mumkin. Shunday ekan, dastlabki qo‘qilishlar, istak bilan natija orasidagi tafovutlar bo‘lishi tabiiy. Chaqaloqning dastlabki tetapoya qadamlarini, eskalatorga ilk bor qadam qo‘yilishi, ignaning teshigiga ilk bor ip o‘tkazish jarayonlarini tez-tez eslab turish umidsizlikka chek qo‘yadi.

Aktyorlarda, talabalik yillaridayoq tana a‘zolaridagi taranglikni, siqqlikni ongli ravishda bartaraf eta bilish uquvini shakllantirish lozim. Shunda trostlar aktyor buyruqlarini so‘zsiz va sifatli bajaruvchi jonli elementlarga aylanadi.

Qo‘g‘irchoq teatri sahnasida personajning har bir xatti-harakati, obraz kechinmalari, holatining barcha murakkab tashqi ifodasi aktyorning barmoqlari burilishi, qo‘l, bilaklarni egilishi, ko‘tarilishi, trost dastasini, burilish shaybalarini boshqaruvida yelka, kiftlarni turli vaziyatlari orqali namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich paytdagi noxushliklar yo‘qoladi. Mashq puxta o‘tkazilaverib, ma‘lum ko‘nikmalar hosil bo‘lganda a‘zoyi badandagi taranglik va ruhiy siqqliklar bartaraf etiladi. Shunda aktyor birinchi galda texnikani

emas, balki obrazning xatti-harakatidagi mantiqqa va ma'no-mohiyatiga e'tiborini jalb qiladi. Psixologlar tadqiqotlariga ko'ra baquvvat sensomotor uquvining shakllanishi uchun mashq 20 dan 70 martagacha qaytarilishi zarur ekan.³

Kasbni mukammal egallashning asosiy sharti mashqlarni muntazam ravishda bajarib borishdadir. Mashqlarda uzoq muddatli tanaffus (tajriba shuni ko'rsatadiki 2-3 kun uzoq muddat sirasiga kiradi) hali mustahkamlanmagan uquvni yo'qqa chiqaradi va uni tiklash uchun qo'shimcha mashqlar lozim bo'ladi.

Faqat mashqlar natijasida shakllangan uquv, malaka harakat stereotipiga aylanadi va insonning sensomotor xotirasida saqlanib qoladi. Shundagina ko'nikma istagan vaqtda qayta-qayta ishlatilishi mumkin bo'ladi. Harakat stereotipini baquvvat bo'lishi uchun mashqlarni qo'g'irchoqqa qaramay turib takrorlash kerak.

Qo'g'irchoq plastikasi mashqlarini bajarish tartibi

Qo'g'irchoq plastik harakatlarining har bir qismi o'zining "boshlanish" va "hotima"dan tarkib topadi. Qo'g'irchoq personajni badiiy obraz sifatida talqin qilinishida harakatlarning tavsiflari bilan cheklanib bo'lmaydi. Chunki ular mashqlarda muntazam qo'llanib boriladigan alohida sifatlar hisoblanadi.

Qo'g'irchoqning harakati tomoshabinga tushunarli bo'ladigan plastik jumla, gap deyish mumkin. Plastik ifodalanadigan jumlagi aktyorda mavjud bo'lgan jonli so'z hamohang bo'ladi. Bu gap qo'g'irchoq plastik harakatini mantiqiy mazmuni va hissiy ifodasini asoslab beradi. Shuning uchun mashqlar vaqtida sharxlarni yo ovoz chiqarib, yo ichida o'qib berish tavsiya qilinadi. Bu holatda aktyor berilgan shart-sharoitlarni shaxsan to'qib, fantaziyasini ishga solib turishi kerak. Bir tomondan qo'g'irchoqning gavdasi, oyoq-qo'llari, boshining plastik to'g'ri harakatlari, ikkinchi tomondan aktyorning fantaziyasi,

³ Qr. Ocherki psixologik truda operatora. M.1974.

hayotiy ko‘rgan-kechirganlari, bilimi, sa‘viyasi tug‘diradigan assotsiativ tasavvurlar obrazning ichki mazmun mohiyatini to‘laqonli to‘ldirib boradi. Yuqorida aytib o‘tilgan plastik harakatning boshlanishi va tugallanishi haqidagi fikr ana shu qonuniyatlarga asoslanadi. Plastik harakatning boshlanishi unga tayyorlanish va bajarishga kirishishni anglatadi.

Bizga yaxshi ma‘lumki, har bir xatti-harakatni amalga oshirishdan oldin inson organizmda shu harakatga mos tayyorlanish jarayoni mexanik tarzda, inson maxsus e‘tibor bermagani holda bo‘lib o‘tadi. Masalan, oddiygina o‘tirgan holidan oyoqqa turishni olaylik. O‘rnidan turish uchun gavda oldinga qarab, ma‘lum darajada ochiladi yoki birovga shapaloq tortib yuborish uchun qo‘li bilan hamla qiladi. Asosiy harakat oldidan yuz beradigan bunday tayyorgarlik ko‘rish harakati ashula aytish, yoki notiqlikda gapirish oldidan chuqur nafas olishni eslatadi. Harakat oldidan trostning nozik ishlatilishi bilan qo‘g‘irchoqning qomatini sal-pal ko‘tarib, qarama-qarshi tomondan ozroq burish mumkin.

Trostlar bilan qo‘g‘irchoq plastik harakat parchasiga nuqta qo‘yishning sinovdan o‘tgan uslubi mavjud. Harakat nihoyasida qo‘g‘irchoq gavdasi ifodali bo‘lishi, qaddi-qomati, bichimi haykal kabi mazmundor bo‘lishi lozim. Qo‘g‘irchoq qiyofasida sahna personajining ichki dunyosi sezilishi, personaj qilingan ishdan mamnun yoki norozi ekanligi ko‘rinishi kerak. Bunday vaziyatda aktyor personaj qaddi-qomati holatini tomoshabin xotirasida saqlanib qolishi darajasida urg‘ulay olishi lozim. Bu nuqtani personaj ko‘rilgan holatni fiksatsiya qilish deb aytiladi.

Qo‘g‘irchoq boshqarish ko‘nikmasi shakllanishida mashqlarning ahamiyati

Qo‘g‘irchoq xatti-harakat asoslarini o‘rganishda qo‘g‘irchoq aktyorligiga o‘qitadigan Oliy o‘quv yurtlarida shakllangan, vaqt sinovidan o‘tgan uslublar mavjud. Jumladan, quyidagi uslub ko‘p OUYularida, shuningdek O‘zbekiston

davlat san'at va madaniyat instituti qo'g'irchoq teatri san'ati kafedrasida ham keng qo'llaniladi. Gapit bilan bajariladigan mashqlarni o'zlashtirgach, talabalar mashqni trostli qo'g'irchoq bilan takrorlab o'zlashtiradilar, so'ng qo'lqopli "Kachal polvon" yoki "Petrushka" tipidagi qo'g'irchoqqa ko'chiradilar. Xuddi shu mashqni mexanik qo'g'irchoqda ham, planshet qo'g'irchoq'i bilan ham o'rganadilar. Buning natijasida talabalar bir o'rganilgan mashqlarni barcha sistemalarda bemalol qo'llanish tajribasini qo'lga kiritadilar. Bir mashq bilan turli qo'g'irchoq sistemalariga o'tilganda qo'l, yelka, kift, bilak, tirsak va boshqa a'zolarida yuz beradigan muskul xarakatlari o'zgarishlarini ham eslab qoladilar. Talabalar turli sistemalardagi qo'g'irchoqni boshqarishda umumiylik va farqlarni, rassom yaratgan qo'g'irchoqning faqat konstruksiyasi emas, balki xarakteri, badiiy vazifalari ham harakat yo'siniga ta'sir qilishini ham o'rganib boradilar. Bu uslub talabalarda qiziquvchanlik hissini kuchaytiradi. Sistemalar bilan mashqlarni alohida tarzda 2-3 oy muddat farqlar bilan o'tkazilishi u yoki bu sistemaga nisbatan talabani sovutib qo'yishi mumkin.

Aksar holda trostli qo'g'irchoq bilan bajarilgan mashq samarali bo'ladi, chunki bu sistema barcha qo'g'irchoq teatrlarimizda keng qo'llaniladigan qo'g'irchoq turidir. Mashqdan kuzatilgan maqsad esa qo'g'irchoqlarning barcha sistemalari uchun umumiy hususiyatga ega bo'ladi.

Trostli qo'g'irchoqni boshqarish texnikasini o'zlashtirish mashqlari dastlab ochiq gapit bilan bajarilishi mumkin. Bunda barmoqlar, bilaklar, tirsaklar muskul harakatlarini kuzatish, ko'zga ko'rinib turgan xatolarni tuzatish, muskul siqqliklarini bartaraf qilish bo'ladi.

Qo'g'irchoq harakat yo'l-yo'riqlarini ochiq gapit bilan bajarish davomida shtamlarni yo'qotish, plastik harakatlar ifodaviyligini oshirish uchun erkin fantaziyaga katta imkon tug'iladi. Trostli qo'g'irchoqni ochiq gapit bilan boshqaruv mashqi yaxshi o'zlashtirilgach, darhol boshqa sistemadagi qo'g'irchoqlarda sinab ko'rish mumkin.

Trostli qo'g'irchoqlar ko'pincha odam qiyofasini, odamlarga o'xshab faoliyat ko'rsatishga yo'naltirilgan hayvonlarni tasvirlaydi. Odam tik yuruvchi mavjudot bo'lib, gorizental chiziqda vertikal holatda bo'lish xos xususiyat. Qo'g'irchoqning tanasi tik turganida tasavvurdagi vertikal holatga muvofiq turadi. Bu vertikallik uning boshidan boshlanib bo'yni, yelka o'rtasi, gapit, aktyorning bilagi orqali o'tadi va sahna (shirma) maydonining chegarasida tugaydi. Qo'g'irchoqning oyoqlari shirma ortida ko'rinmas bo'lsa-da, qo'g'irchoq tanasining shirma yuqorisida joylashuvi holatiga muvofiq tomoshabin real tasavvur qilaveradi.

Trostli qo'g'irchoqni boshqarishda asosiy stoykasini to'g'ri bajarish katta ahampyatga ega. Chunki, har qanday xatti-harakatni boshlanishidan avval uning qaddi-qomati, gavdasining asosiy stoykada biomexanik jihatidan va tomoshabinning nigohida o'xshashlik, haqiqiylik talab darajasida bo'lgan taqdirda boshqa barcha harakatlarini mantiqli bajarishga erishish mumkin. Asosiy stoykada trostli qo'g'irchoqning qo'llari ikki yonga sal ayrilib, qo'g'irchoq gavdasi yon tomonlarida erkin osilib turadi.

Trostli qo'g'irchoq asosiy boshlang'ich holatida tez-tez uchrab turadigan xatoliklar aktyorning o'z qo'g'irchog'iga qarash qoidasini buzilishi bilan bog'liq. Avval aytib o'tganimiz, aktyor nigohi tomoshabin nigohiga nisbatan boshqa rakursda bo'lishini eslaylik. Xatolar qanday ko'rinishda bo'ladi?

I. Qo'g'irchoqning qaddi aktyor tomoniga sal qiyshaygan, qo'g'irchoq yuzi aktyor tomon sal burilgan. Sal engashgan holatda. Bunday xato aktyorning o'z qo'g'irchog'i qiyofasini ko'rish, nazorat uchun qulay rakursni izlash istagidan kelib chiqadi, aktyor o'zi bilmagan holda qo'g'irchoqni o'zi tomon birmuncha yaqinlashtirib qo'yadi. Ko'pincha akter qo'g'irchog'im to'g'ri turibdi, deb o'ylaydi. Aktyor xato qilayotganini uqtirishdan ko'ra ko'zguna ro'baro' qilish ma'qul. Ko'zgu xatoni tuzatish vositasidir.

Qo'g'irchoq boshqarish texnologiyasi qo'g'irchoqning turli sistemalari uchun umumiy qonuniyatlar (biomexanik)ga ega bo'lsa-da, har bir sistemaning o'ziga xos nozik jihatlarini mashqlar davomida puxta egallash mumkin.

Demak, qo'g'irchoq boshqaruvning asosi bo'lgan qo'l barmoqlari mo'jizaviy salohiyatini egasi bo'lgan, odam anatomiyasi qonuniyatlariga tayanib, tanani turli vaziyatlarda tuta bilish, qo'l bilaklari, tirsaklari, yelka, bel va oyoqlarni harakatlanish yo'sinlarini bilib olgach, tinimsiz mashqlar barcha anatomik jihatlarini jonsiz qo'g'irchoqqa, hayvonot dunyosiga va hatto, predmetlarga ham o'tkazishda mantiqiy bo'lish imkonini beradi. Ayniqsa odam a'zoyi-badan elastiklik xususiyati, egilib, bukilib, turish, o'tirish va boshqa harakatlarda prujina va reszor mexanikasini tatbiq qila bilish katta fiziologik va psixologik mahoratni talab qiladi.

Demak, trostli qo'g'irchoqlarda bajarish zarur bo'lgan mashq turlari: boshlang'ich holat, unda aktyor o'zini va qo'g'irchoqni talab qilinadigan uch rakursga mos bo'lish; trostli qo'g'irchoqni boshqarishda aktyor bilaklarining holatlari va funksiyalari; aktyorning tirsak holati va funksiyalari; trostlarning dastaklari va tutqichlarini boshqarishda qo'l va barmoqlarni risolaga monand ishlata bilish; ko'rinmas oyoqlar bilan oyoq qo'yiladigan tayanch, sahna polini sezish hissiyotini shakllantirish, qo'g'irchoq boshini boshqarish, turlicha qadam tashlashlarni ko'rsata bilish; trost yordamida qo'g'irchoq qo'lchalarini ishlatish san'ati ko'nikmalari, uquvlari, faqat trostli qo'g'irchoq uchun emas, balki barcha sistemadagi qo'g'irchoqlar uchun sahnada badiiy obraz yaratishning asosiy manbaidir. Uzluksiz mashqlar, qo'g'irchoqqa mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lish oxir-oqibat spektakl yaratilishiga olib keladi.

Qo'g'irchoq boshqarishning asosiy xususiyatlari

Qo'g'irchoq teatri bizning mamlakatimizda katta shuhrat qozongan. Teatr san'atining bu janr ildizlari qadimda folklorga, an'anaviy xalq teatri san'ati

oqimlariga borib taqalgan. Hozirgi kunda o'zining rivojlanishi bo'yicha qo'g'irchoq teatrlari katta imkoniyatlarga ega. Qo'g'irchoq teatrlari dolzarb, chuqur ma'noga ega bo'lgan, qiziqarli jihozlangan spektakllari bilan, boshqa janrdagi teatr spektakllari qatoridan joy olishi kerak. Bu esa ularning oldida turgan eng qiyin, ammo ma'suliyatli vazifalardan biridir.

Chelyabinsk qo'g'irchoq teatri bosh rejissyori Volxovskiy ta'biri bilan aytganda «qo'g'irchoq teatrining ijod pozitsiyasi shundan iboratki, u tomoshabin bilan zamonning dolzarb vazifalari haqida, qo'g'irchoq va aktyor mujassamlashtiruvchi yorqin teatr tilida, yuz va harakat, pantomima va aniq plastika orqali aloqada bo'ladi. Qo'g'irchoq teatri birinchi bo'lib, bola qalbida go'zallikka, insonga, vatanga, tabiatga bo'lgan muhabbat uchqunini yoqadi».

Qo'g'irchoq teatr san'ati, boshqa teatr san'ati turlaridan o'ziga xos obraz yaratish hususiyati bilan farq qiladi. Qo'g'irchoq teatr aktyori, rassom va qo'g'irchoq ustasi hamkorligida yaratgan san'at asariga, ya'ni qo'g'irchoqqa jon bag'ishlaydi. Aktyor qo'g'irchoq orqali to'siqsiz sahnada turib tomoshabinga ayta olmagan yurak dardini tabiatga, ona Vatanga bo'lgan muhabbatini, orzu-umidlarini, shirma orqasidan o'zi ko'rmagan holda izhor etadi. Ana shunda qo'g'irchoq sahnasida mo'jiza yuz beradi. Oddiy predmet material –material jonlanadi va u ham inson kabi yashayotganligiga, nafas olayotganiga, umuman borligiga tomoshabin ham ishonib qo'g'irchoq bilan yig'laydi, kuladi, qayg'uradi. Qo'g'irchoq teatri aktyorining o'qib-o'rganish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biri qo'l plastikasi va aniq harakatini rivojlantirishdir. Qo'g'irchoq teatri aktyorini o'qitish ko'p jihatdan haykaltarosh-rassomlarni o'qitish jarayoniga o'xshab ketadi. Chunki haykaltarosh –rassomlarni o'qitishning boshlang'ich bosqichida odam anatomiyasini, odam tana muvozanatini o'rganadilar. Naturaga qarab, insonning oyoq-boshini, tana egilishini, boshni yonga, orqaga burishni ko'radilar va shunga amal qilib, asar yaratishga harakat qiladilar.

Naturaga qarab chizish, naturaga qarab yasash-rassom haykaltaroshlarni o'qitishning zarur bosqichlaridan biridir. Inson tana plastikasini o'rganish uchun qo'g'irchoq teatri aktyori ham muzey va ko'rgazmalarni tomosha qilishi, hayvonot bog'idagi hayvonlarni, tabiatni ko'p kuzatishi va ko'rganlarini esda olib qolishi zarur. Rassomlar kabi aktyorlar ham qo'g'irchoqda uning anatomiyasi va harakat texnikasini o'rganishlari kerak. Shu bilan birga muvozonat qonunlarini, tayanch nuqtasini, plastik imkoniyatlarini bilishlari maqsadga muvofiqdir. Qo'g'irchoqboz aktyor uchun faqat bugina emas, balki bir holatga o'tishdagi harakatni kuzatish va qo'g'irchoqda shuni aks ettirish lozim. Masalan, tik turish xolatidan o'tirish xolatiga, yurishdan yugurish xolatiga, o'tirish holatida yotish holatiga o'tish va hakoza...

Albatta buni muzey yoki ko'rgazmalarda ko'ra olmaymiz. Hayotdachi? Hayotda bu harakatlar biz uchun oddiy va ular shunchalik tez bajariladiki, bunga ko'pincha ahamiyat bermaymiz. Masalan, qariyalar bu harakatlarni asta-sekinlik bilan bajaradilar. Chunki ular ancha ehtiyotkor bo'ladilar. Mana shuning uchun ham naturaga murojat qilishga, uni kuzatishga to'g'ri keladi. Ba'zida ishning uslubi norozilik keltirib chiqaradi. Nima uchun inson harakatidan nusxa ko'chirish shart? Axir ba'zi qo'g'irchoqlar umuman insonga o'xshamaydilar. Ularning harakati ham inson harakatidek emas. Masalan ba'zi qo'g'irchoqlar belidan egilmaydi, ularning qo'llari shunchalik kaltaki ular biror predmetni ushlay olmaydilar, ularning ko'zlari bitta, oyoqlari bitta yoki umuman bo'lmasligi mumkin. Ular o'tira olmaydilar, yura olmaydilar. Nima uchun insonga taqlid qilish kerak. Shuning uchun-ki, hayvonlar, hashoratlar, fantastik jonzodlar xulq-atvorida, insoniy xatti-xarakatlar yo'q.

Masalan, masalni olaylik. Masaldagi har bir xayvon aniq bir inson karakterini ifodalaydi. Qo'g'irchoq teatrida hayvon plastikasidan tez-tez foydalaniladi. Shu bilan birga hayvon -qo'g'irchoq uchun inson biomexanik harakat qonuni ishlatiladi. U ham o'tiradi, ikki oyoqlab yuradi, ovqatni qoshiq bilan olib yeydi. Qo'llari bilan har qanday harakatlarni bajara oladi. Xullas,

qo'g'irchoq teatriga kelib u yerda spektakl yoki estrada nomerlarini ko'rgan har bir tomshabin, o'ziga tanish, yoki notanish obrazda inson характери mujassamligini ko'radi. Bu esa o'sha obraz plastikasini, hissiy holatini to'g'ri bera olgan aktyor uchun katta yutuqdir. Qo'g'irchoqboz o'zining ichki hayot boyligini qo'llari orqali qo'g'irchoq harakatida ko'rsatadi. Aktyor qo'llari orqali tashqi hayot bilan aloqaga kirishadi. Hayotda insonlar qo'li bilan qilinmaydigan narsalar, aktyor qo'g'irchoqboz qo'li bilan amalga oshiriladi. Qo'g'irchoq teatrining yana o'ziga xos, betakror tomoni shundaki, unda aktyor qo'g'irchoqsiz, yalang'och qo'llari bilan ham sahnaviy obraz yarata oladi. Qo'g'irchoqsiz qo'llar orqali obraz yaratish qadimgi Xitoy, Eronda va bizning davrimizda S.V.Obrazsov, fransuz aktyori I.V.Jolie tomonidan konsert nomerlarida foydalanilgan. Bu nomerlarda turli rangdagi qo'lqoplar va barmoqqa kiyiladigan sharchalaradan foydalanilgan. Hozirda Toshkent san'at instituti, «qo'g'irchoq teatri san'ati» kafedrasida murabbiy ustozlari talabalarga qo'l harakati va plastikasini o'rgatish bilan qiziqarli tomosha nomerlari yaratish ustida ishlamoqdalar.

Bunday obrazlarni yaratish, qo'g'irchoq ushlab obraz yaratishdan oldingi jarayon bo'lib, juda murakkab yo'nalish hisoblanadi. Bu yo'nalish talabalardan o'ta talabchanlikni, ma'suliyatni, boy tasavvurni va kuchli mahoratni talab qiladi. Qo'g'irchoq bilan harakat qilish, biror obraz yaratishdan oldin talabalar bu jarayonni o'zlashtirmog'lari zarur. Aktyor mohir qo'l bilan ishlash ustasi bo'lishi uchun avval uning qo'llari boy plastikaga ega bo'lishi kerak. Aktyor qo'li sahnada ikki xil vazifani bajaradi:

1. Aks ettirish
2. Harakat qilish

Masalan, sahnada harakatsiz qo'l orqali aks ettirilgan kuchuk boshi. Hozir u aks ettirish vazifani bajaryapti. Bunday tasvirlarni istaganicha ko'rsatish mumkin. Mana, barmoqlar harakatga kelib, kuchukning vovillayotganini ko'rsatdi. Uning og'zi qanchalik qimirlasa jahldor kuchukligi ma'lum bo'ladi.

Agar bu harakatga tovush ham qo'shilsa, obraz yanada jonliroq chiqadi. Tasvirning bu turi, tasviriy san'atning boshqa turlaridan nimasi bilan farq qiladi? – degan savol tug'iladi.

San'at asari yaratuvchilarning hammasi jonsiz materiallardan foydalanadilar. Bu yerda esa, tirik inson qo'llari. Bu qo'llar aks ettirib, shu bilan birga harakat qilsa, endi ular kichik aktyorlarga aylanadilar. Demak, ular ham yaratuvchi, ham aktyordirlar.

Quyida qo'l harakati bilan ya'ni yalang'och qo'llar orqali bajarilishi mumkin bo'lgan ba'zi etyudlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

1. «Ozodlik».

Talaba ikki qo'lining bosh barmoqlari tutashadi. Qolgan barmoqlar esa o'rgimchak oyoqlarini aks ettiradi. Sahnada o'rgimchak to'r to'qimoqda. Mana u to'r to'qib bo'ldi. Endi o'zini chetga olib o'lja ilinishi kutyapti. Sahnaga ikki barmog'i tutashib, qolgan barmoqlari qanotlarini aks ettirgan kapalak uchib chiqadi. U sahnada qo'lda aks ettirilgan ochilgan gullarga qo'nib, uchmoqda. Mana u ehtiyotsizlik qilib o'rgimchak to'riga ilinib qoladi. U qanotlarini qoqib ozodlikka intiladi. Lekin buning iloji bo'lmaydi. To'rga o'lja ilinganini sezgan o'rgimchak sekin asta yaqinlasha boshlaydi. Shu payt qattiq shamol ko'tariladi. Gullar har tomonga chayqaladilar. Shamolning qattiqligidan o'rgimchak qochib o'zini panaga oladi. To'r yirtilib ketadi va tutqinlikdagi kapalak ozodlikka chiqadi. Shamol tinadi. Kapalak yana gullardan gullarga yayraydi.

Bu etyudda bir necha talaba ishtirok etadi. Etyudni bajarayotganda qarshingdagi partyorni his qilish, unga munosabat bildirish va bir-biriga halaqit bermaslikka harakat qilish zarur. Etyud yanada jonli va qiziqarli chiqishi uchun har xil tovush va musiqalardan foydalaniladi. Chunki musiqa etyuddagi voqealarni bo'rttirib ko'rsatishga yordam beradi.

2. «Yaylovda».

Yaylovda qo'ylar podasi o'tlab yuribdi. Bunda yalang'och qo'ylar mushtim qilib tugiladi. Bosh barmoq qo'y boshini aks ettiradi. Yaylovda ularni

kuchuk qo'riqlaydi. Albatta kuchukni ham qo'llar tasvirlaydi. Uzoqdan burgut ko'rinadi. Qo'ylar besaranjom bo'la boshlaydilar. Burgut orqada qolib ketgan qo'zichokni ko'tarib uchmoqchi bo'ladi. Buni sezgan kuchuk yordamga kelib burgutga tashlanadi. Jarohatlangan burgut bir uchib, bir qulab yiroqlashadi. Qo'zichok o'z onasi oldiga yugurib ketadi. Bu etyudni ham bir necha odam bajaradi. Etyud bajarilayotganda mashqlar albatta bir zum tasvirlash holatiga o'tish va keyingi mashq bajarilishi lozim. Bu jarayon butun etyud davomida takrorlanib turadi. Bu holatga rioya qilinmas ekan, harakatlar aniq, tushunarli bo'lmaydi va qo'g'irchoq teatrida eng asosiy unsur hisoblangan «to'xtash nuqtasi» ya'ni bir harakat tugallanib, ikkinchisining boshlanishi sodir bo'lmay qoladi. Masalan, yuqoridagi etyudda bir harakatdan, ikkinchi harakatga o'tish paytida oldin qo'llar qo'ylarni tasvirlaydi, shundan so'ng harakatlanish holatiga o'tib jonlantiriladi. Burgut ham uchib kelib qo'zichoqni ko'rgan paytda u tasvirlash holatida bo'ladi. Shundan so'ng hujum boshlaydi ya'ni harakat qilish holatiga o'tadi. Bu jarayonni talaba oldin o'zining ichki ko'zgisida aniq ko'rib, keyin tasavvur etib, qo'l plastikasini orqali ifodalaydi.

3. Mana, Yana bir etyud «Oroldagi voqea».

Qayiqda bola baliq ovlamoqda. Qayiqni, bolani, qo'llar tasvirlaydilar. To'lqinlar ham qo'l plastikasi orqali bajariladi. Shamol turib, to'lqinlar qayiqchani cho'ktirib yuboradi va to'lqin bolani orolchaga chiqarib tashlaydi. Bola o'ziga kelib orolni kuzatadi va nima qilishini bilmay turgan paytda uzoqda kema ko'rinadi. Bola qanchalik chaqirmasin uni kemadagilar eshitmaydilar, bola o'zini suvga otib, kema ortidan suzib ketadi. Lekin uning qarshisidan och akula chiqib qoladi va bolani quvlaydi. Bola orolga qarab suza boshlaydi va sohilga chiqib oladi. Akula ham tez suzganidan quruqlikka chiqib qoladi va suvsizlikdan tipirchilaydi. Bolani akulaga rahmi kelib, uni itarib suvga tushiradi va o'z navbatida akula ham xursand bo'ladi. Bolani beliga o'tirishga taklif etadi. Bola o'tirgandan so'ng ular birgalikda kema ortidan suzib ketadilar. Bu

ko‘rinishlarda, ya’ni qo‘lning tasvirlovchi hususiyatda barmoqlar orqali ma’lum bir predmetni ifodalovchi aktyor - haykaltaroshdir.

Qo‘lga qo‘g‘irchoq olib, rol ustida ish boshlashdan oldin, u hox professional aktyor bo‘lsin, hox havaskor bo‘lsin, aktyor san’ati tabiati nimadan iborat ekanligini yaxshilab anglab olish kerak. Buning uchun esa, albatta yuqoridagiga o‘xshagan etyudlardan foydalanishi zarur. Mana shulargina uni qo‘g‘irchoq bilan rol ustida ishlashga o‘rgatadi. V.Shteyn shunday yozgan edi: «Qo‘g‘irchoqlar bilan bajariladigan mashq va etyudlar aktyor qo‘g‘irchoqboz uchun alifbodir. Bularni yaxshi o‘rganmasdan turib, hech qachon katta va qiyin spektakl ustida ishlab bo‘lmaydi». Etyud dramaturgiya talablariga to‘liq javob berishi kerak. Unda tugun, kulminatsiya va yechim bo‘lishi kerak. Dastlabki, bajariladigan etyudlar iloji boricha so‘zsiz bo‘lib, unda e’tiborni qo‘yilgan maqsadga erishish uchun qilinadigan jismoniy xatti-harakatlar ketma-ketligiga qaratish zarur. Yuqorida aytganimdek, qo‘g‘irchoqlarni qo‘g‘irchoqboz aktyorlar boshqaradilar. Odatda qo‘g‘irchoq boshqarayotgan aktyorlarni tomoshabin ko‘rmaydi. Chunki ular shirma orqasida turadilar. Lekin shunday teatrlar ham borki, masalan Yaponiyada, qo‘g‘irchoqbozlar qora halatlar kiyib sahnada o‘z qo‘g‘irchoqlari bilan paydo buladilar. O‘z navbatida tomoshabinlar aktyorlarni ko‘rib tursalarda, ularni ilg‘amaslikka rozilar. Tomoshabinlarning diqqatini rang-barang kiyingan va harakat qilayotgan qo‘g‘irchoqlar o‘ziga shunchalik tortadiki, haqiqatdan ham oz fursatdan so‘ng ular har bir qo‘g‘irchoqni uch kishi boshqarsa ham, aktyorlarni esdan chiqaradilar. Qo‘g‘irchoq boshqarishdagi, uni olib yurishdagi katta mahorat tomoshabinlarni spektaklda qo‘g‘irchoqboz aktyor ishtirok etayotganini esdan chiqarishga majbur qiladi. Bu esa barcha qo‘g‘irchoq teatrlarida ishlayotgan qo‘g‘irchoqboz aktyorning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Bunga qanday erishish mumkin?

Zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrlarida aktyorlar har xil turdagi, tuzilishdagi qo‘g‘irchoqlardan foydalanadilar. Bular qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlar, simli qo‘g‘irchoqlar, planshet qo‘g‘irchoqlari, maskalar, soya teatri qo‘g‘irchoqlari

va hakazo. Tuzilishi jihatdan oddiy bo'lgan qo'g'irchoqlar «qo'lqopli» qo'g'irchoqlardir. Bu qo'g'irchoqlar bosh, tana (ya'ni kiyim kiydirilgan qopcha) qo'l va ba'zida oyoqdan iborat. Bosh har turli materialdan, yog'ochdan, papye-mashedan yoki lattadan qilinishi mumkin. Boshdan bo'yin uchun teshik ochiladi va u yerga materialdan barmoq uchun qo'lqopcha yopishtiriladi. Bosh tanaga ulanadi. Tana uchun tikilgan qop kengroq, aktyor qo'li bemalol harakatlanishi uchun qulay bo'lishi kerak. Qop chetida teshik qoldiriladi. Bu yerdan o'rta va bosh barmoq ikki qo'l uchun chiqariladi. Ustiga kiydirilgan ko'ylakda qo'g'irchoqning yengi va qo'lchalari bo'ladi. Qo'l uchidagi patron-trubkalar ham aktyor qo'llariga mos tushishi kerak. Qo'g'irchoqlarni grim qilish uchun yog'li bo'yoq, yelimli bo'yoq va akvarel bo'yoqlari ishlatiladi. Soch, soqol va mo'ylovlar turli mehlardan, mochalka va iplardan qilinadi. Haqiqiy inson sochlarini ishlatish mumkin emas. Chunki bu sochlar tabiiy bo'lib, boshqa materiallardan qilingan, boshga mos tushmaydi. Boshning razmeri 10 smdan 20 sm atrofida bo'ladi. (Bu o'z navbatida o'ynalayotgan obrazning bola yoki katta kishiligiga, ozg'in yoki semizligiga bog'liq). Qo'g'irchoq olib yurishni yaxshi egallash uchun qo'g'irchoqbozning qo'li niqob ichida erkin harakat qilishi, qo'g'irchoqning egilishi, bosh va qo'llari bilan mashqlarni bemalol bajarishga erishishlari kerak. Qo'lqopli qo'g'irchoqni aktyor yaxshi boshqara olishi uchun u, birinchi navbatda, qo'g'irchoqni dastlabki holatda to'g'ri ushlab turish kerak. Berilgan taxminiy yerdan tushib ketmaslik, yuqori chiqib ketmaslik, qiyshaymaslik, bosh kiydirilgan ko'rsatkich barmoqni juda tik tutmaslik va bir maromda tutish, qo'llarni doim yoyib turmaslikka harakat qilish va o'rganish zarur. Bu zaruriyatlar juda oddiy tuyulsada, ba'zida malakali qo'g'irchoqbozlarda ham shu kamchiliklarni ko'rish mumkin. Shuning uchun ham shoshmasdan, diqqat bilan qo'g'irchoqni dastlabki holatda erkin tuta olishga erishmoq lozim.

Qo'g'irchoqni dastlabki holatda erkin tutishni o'rgangandan so'ng, qo'g'irchoqboz keyingi bir qator mashqlarni bajarishga kirishadi. Bular

qo'g'irchoqning tana harakati, bosh harakati va qo'l harakati bilan bog'liq mashqlar. Albatta bu mashqlarni bajarish uchun aktyor barmoq, bilak, tirsak, yelka bilan bog'liq harakatlarni bajarishi lozim. Bu harakatlar oddiy harakatlar deyiladi. Bunda qo'g'irchoqni egilishi bilan bog'liq mashqni bajarib ko'rish mumkin: Qo'g'irchoq qo'lini ko'ksiga qo'yib salomlashyapti. Bu mashqni bajarayotganda aktyorning bosh kiydirilgan ko'rsatkich barmog'i bir oz oldinga egiladi. Bu mashqni bir necha bor, ikkala qo'lda takrorlash kerak. Endi bosh harakati bilan bog'liq mashq: masalan qo'g'irchoq uchib yurgan kapalakni kuzatayapti. Kapalak yuqoriga, pastga, aylanma harakatlar qilib uchadi. Ana shunda boshni harakatga keltirib, kapalakni kuzatish mumkin. Bu mashqni bajarishda sizga yordamchi kerak bo'ladi. Kapalak yasab olish juda oson. Buning uchun qarmoqcha yasaysiz va leska uchiga qog'oz boylab qo'yasiz. Mashqni kapalaksiz, hayoldan, tasavvur qilib ham bajarib ko'rish mumkin.

Qo'llar harakati bilan bog'liq mashq: Masalan, qo'g'irchoq jismoniy tarbiya mashqlarini bajarayapti. U «bir» deganda qo'llarini yozadi, «ikki» deganda ularni birlashtiradi. Bu mashq ham bir necha marta takrorlanadi. Mashqni bajarayotganda bilakning egilib ketmasligiga e'tibor berish kerak.

Qo'g'irchoqning o'tirish va turishi bilan bog'liq mashq. Mashqni bajarish uchun qo'l bilakdan oldinga egiladi. Bunda qo'g'irchoq engashadi. Ozgina orqaga surilib, stul yoki yerga shu holda yetgandan so'ng, qaddi rostlanadi.

Qo'g'irchoq turayotgan xuddi shu mashq aksincha bajariladi. YA'ni qo'g'irchoq engashadi (aktyor qo'li bilakdan egiladi) o'tirgan joyidan turadi va qaddi rostlanib tik turgan holga keltiriladi. Qo'llar va boshning dastlabki holatda qolishiga e'tibor berish zarur. Bu mashqlarni ikkala qo'lda bajarishni unutmaslik kerak. To'g'ri, ikkala qo'lda barobar ishlay olish uchun ko'p mehnat talab qilinadi. Haqiqiy, mahoratli qo'g'irchoqboz bo'laman deb orzu qilgan talaba bu qiyinchiliklardan qo'rqmay, chin dildan mehnat qilishi va maqsad sari intilishi zarur.

Boshqa turdagi qo'g'irchoqlarga qaraganda qo'lqopli qo'g'irchoqlar juda harakatchan, ixcham va yengildir. U predmetlarni ushlashga, olishga va berishga usta. Zamonaviy qo'lqopli qo'g'irchoqlarni yanada takomillashtirish maqsadida og'zi ochiladigan, ko'zlari yumiladigan qilishga erishganlar. Bu qo'g'irchoqlarni zamonaviylashtirishga, o'zgartirishga harakat qilganlari bilan qo'g'irchoq ichida o'ynayotgan aktyor qo'li boshqa imkoniyatlarga ega emas. Shu bilan birga qo'lqopli qo'g'irchoqlar juda kichkina va juda katta ham bo'la olmaydi. Bu aktyor qo'lqopli panjalari o'lchamiga mos kelishi kerak. Quyida qo'lqopli qo'g'irchoq va predmet bilan ishlash mumkin bo'lgan bir necha etyudni havola etmoqchimiz. «Qiz va koptok». SHO'x musiqa yangraydi. Sahnaga yorqin rangdagi koptok dumalab chiqadi. Koptok orkasidan sho'x qizaloq yugurib chiqadi. (koptok simga ulangan bo'lib, uni ko'makchi harakatga keltiradi.) Har gal sekinlik bilan tempni kuchaytiradi. Devor yoniga kelib devorga koptokni otadi va ilib oladi. Endi devor yonidan ketib, havoga koptokni otib ilib oladi. Har gal otganda yuqoriroq otishga intiladi va ilib oladi. Bir otganda chapak chalib, so'ng ilib oladi. Ikkinchi bor otganda, turgan yerida aylanib, so'ng ilib oladi. Endi koptokni bor kuchi bilan yuqoriga otadi. Musiqa to'xtab qoladi va koptok ham havoda muallaq osilib turadi. Qizcha qo'llarini silkitib, koptokni tushishga chaqiradi. Endi u nima qilishini bilmay atrofga qaraydi. Musiqa yangraydi va koptok yerga tushadi. Qizcha koptokni ilib oladi va quchoqlab chiqib ketadi.

Etyudni bajarishda albatta ijrochi qo'g'irchog'ining harakati ketma-ketligini bilishi zarur. Aktyor berilgan shart-sharoitda bajarilishi lozim bo'lgan vazifani aniq bilishi kerak. Qizchaga koptok sovg'a qilishdi. Bu koptok unga juda yoqdi. Chunki u xuddi shunday koptokni orzu qilgan edi. Qizchanning vazifasi hoziroq koptogining qanday sakrashini sinab ko'rish. O'zining chaqqonligi va epchilligini sinash. Uning shoshilganini-qizchanning sahnaga chiqishi bilan shirma etagidagi harakatidan- o'ynashidan bilish mumkin. Bu yerda ijrochi o'z qo'g'irchog'i-obrazining har bir harakatini mukammal o'ylab

chiqishi zarur. Bu qo'g'irchoq qo'lqopli bo'lganligi uchun uning harakatlari chaqqon va tez. U qaytarilishga usta, qo'lchalari bilan tez harakatlar qiladi, koptokni otish va ilishda tez munosabat bildiradi. Xulosa shuki, predmet va qo'g'irchoq bilan mana shunday etyudlar bajarganda avvalam bor personaj - qo'g'irchoqning asosiy vazifasini aniqlash, berilgan shart-sharoitni aniqlash, qo'g'irchoq nima qilyapti, ya'ni shu harakatni u qanday bajaryapti, ana shularni tekshirib ko'rish zarur. Yana bir etyud «Quloqsiz gilamcha» deb ataladi. Sahnada mushukcha paydo bo'ladi va o'zining orqasida dumaloq qilib o'ralgan gilamchani sudrab chiqadi. Gilamchani shirma etagiga qo'yadi. Yaxshilab kerishadi va esnaydi. Endi u gilamchani yozishga kirishadi. Gilamchani qiynalib yozishi bilan ikkinchi tomoni aylanib, yig'ilib qoladi. U gilamchaga hayron bo'lib qaraydi va yana uni yozishga kirishadi. Shu mahal gilamning ikkinchi uchi yana yopilib mushukchani itarib yuboradi. U narigi tomonga oshib tushadi va lat yegan joyini silab qo'yadi. Endi u ehtiyotkorlik bilan kelib, gilamchani yerga qattiq bosib, santimetrlab oxirigacha ochadi. Gilam jim turibdi. Mushukcha xursand va mazza qilib kerishadi. Bir vaqt gshilamcha tezlik bilan ikki chetidan o'rtaga qarab yig'ilib qoladi. Mushukcha jahll bilan miyovlab gilamchaga tashlanadi. O'rtaga turib bir bu yog'ini bir u yog'ini ochishga intiladi. Lekin gilamcha quloq solmaydi. U qiyinchilik bilan gilamchani yozadi va gilam chetiga o'tirishi bilan gilamcha mushukcha bilan birga o'ralib qoladi va sahnadan birga yumalab chiqib ketadilar.

Bu etyud ancha murakkabroq bo'lib, harakatlarni aniq ishlab chiqishni talab etadi. Mushukcha sahnaga chiqishi bilan oldiga qo'yilgan vazifani bajarishi kerak. Hamma ijrochi oldiga bu etyudni bajarish uchun har xil maqsad qo'yadi. Masalan, bir ijrochi – mushukcha hozir shu gilamchani sotib oldi, tezroq uni ochib gullarini tomosha qilmoqchi, o'z uychasida qanday turishini ko'rmoqchi desa, ikkinchi ishtirokchi – mushukcha xozir o'rnidan turdi va uning maqsadi jismoniy mashqlarni bajarib ko'zlaridagi uyquni oxirigacha

quvish. U gilamchani ochib, mashq bajarmoqchi. Nega deganda uni kerishayotgani ham etyuda berilgan.

Oldingi va keyingi sharoitda ham qo'g'irchok sahnada o'z ritmida bo'ladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, har kim har kandy tasavvur qilishi mumkin. Lekin berilgan shart-sharoitdan va muallifning ko'rsatmasidan chiqib ketmagan xolda, albatta. Masalan, etyudda mushukchanning «hayron bo'lishi»ni qanday qilib plastik tasvirlashni o'ylab ko'rish zarur. Mushukcha egilib gilamchaga qaradi, uni qo'lchasi bilan ushlab ko'rdi, quloq orqasini qashladi va yana ochishga xarakat qildi. Gilamcha mushukni turtib yubordi. U yiqilib tushdi va lat yedi. Qanday qilib og'riyotganini ko'rsatish mumkin? Buni quyidagicha qilish mumkin. U urilgan yerini silab qo'yadi va hech narsa qilmadimikan deb, qarab qo'yadi. Lekin bu epizodda ko'p ushlanib qolish yaramaydi. Chunki oldinda gilamcha bilan uni qiyinchiliklar kutmoqda.

Mana shunday etyudlar – ya'ni predmet va qo'g'irchoq orqali bajarilgan etyudlar qo'g'irchoqning barcha xarakat qirralarini ochib beradi. Shunday etyudlarni o'ylab qancha ko'p o'ynasangiz, qo'g'irchoq'ingizni shuncha yaxshi o'rganasiz. Shirma orqasida obraz yaratuvchi qo'g'irchoq turlaridan yana biri – trostli ya'ni simli qo'g'irchoqlardir. Bu qo'g'irchoqlarni Yava qo'g'irchoqlari ham deb ataydilar. Taxminlarga ko'ra, bu qo'g'irchoqlarning birinchi vakillari Yava orollarida paydo bo'lgan. Bu qo'g'irchoqlar ham aktyor qo'li bilan boshqariladi. Ular bir tomondan marionetka ya'ni ip bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlarga yaqin bo'lsa, ikkinchi tomondan qo'lqopli qo'g'irchoqlarga o'xshaydilar. Trostli qo'g'irchoqlar qo'llariga biriktirilgan simlar orqali juda ajoyib xatti-xarakat qilishi mumkin. Simli qo'g'irchoqlar qo'lqopli qo'g'irchoklarga qaraganda ancha kata va og'ir buladi. Ularning xarakat tempi qo'lqopli qo'g'irchoqlardan ancha sust, lekin marionetkalaridan ko'ra jonliroqdir. Simli qo'g'irchoklar plastikasi keng qirralidir. Chunki ularning boshlarini harakatga keltiruvchi mexanizm xisobiga qo'g'irchoklar jonliroq xarakat kiladilar. Bu qo'g'irchoklar juda kichkina yoki ulkan xajmli bo'lishi

mumkin. Masalan, 1947 yil Leningrad kata qo'g'irchok teatrida qo'yilgan «Duymchaxon» spektaklida Duymchaxon obrazidagi qo'g'irchoq inson qo'l kaftining uchdan biriga teng edi. Shu bilan birga katta simli qo'g'irchoqlar xam borki, ular inson bo'yiga bir yarim barobar teng va bunday qo'g'irchoqni bir emas, bir necha aktyor boshqaradi.

Aktyor qo'lidagi qo'g'irchoqni nimalarga o'rgatish kerak? Aktyor qo'lidagi qo'g'irchoq yurish, sakrash, chopish, o'tirish, turish, yotish, cho'kkalab o'tirish, bir oyoqlab sakrash, qarash, kuzatish, eshitish, quloq solish, mo'ralash, uzoqlarga nazar solish, rozi va norozilikni xarakat orqali bildirishni o'rganishi kerak. Shu bilan birga u xar xil og'irlikdagi yukni tashiy olishni, kiyimdagi changni qoqishni, kiyim-kechagini to'g'irlashni, dazmollashni, narsalarni ilib olishni va berishni bilishi kerak. Qo'g'irchoklar barcha davrlarga xos xarakatlarni, salomlashish, hayrlashishni, xar xil davr xarakat belgilarini bajara olishi kerak, chunki ular turli zamonlardagi turli millat ertaklarida ishtirok etadilar. Trostli qo'g'irchoqlar ko'pincha odam yoki odam obrazini ifodalovchi jonivorni aks ettiradi. Inson tik yuradi, shuning uchun qo'g'irchoq ham vertikal xolda ushlanadi. Oyoqning pastki qismi shirma bilan berkitilgan bo'ladi. Tana va oyoqning ko'rinib turgan qismidan tomoshabin uning oyoqlari qayerda turganini o'zi tasavvur qiladi. Aktyorning bir qo'li qo'g'irchoqning tanasi ya'ni ko'yilagi ichida boshga ulangan gapitni ushlab turadi. Ba'zida bu gapit mexanizmlashgan bulib, u qo'g'irchoq boshini oldinga, orqasiga, chapga va o'ngga qayirilishini ta'minlaydi. Qo'llar yon tomonda erkin osilib turadi. Qo'g'irchoq qo'li bilaklariga ulangan simlarni aktyor ikkinchi qo'llari bilan tutib turadi. Aktyor shirmaga yuzi bilan turadi. Qo'g'irchoq ushlangan qo'l tirsagi bir oz bukilgan. Chunki, bu qo'g'irchoqning sahnadagi harakatini, yurishi, sakrashini ko'rsatishda amortizatsiya vazifasini bajaradi. Aktyor boshi yuqoriga ko'tarilgan. Uning ko'zlari qo'g'irchog'ini yondan, pastdan, orqadan kuzatadi. Shu xolatda turganida aktyor qo'g'irchog'ini to'liq kuzatish imkoniyatiga ega. Agar aktyor shirmaga teskari, qo'g'irchoqqa yuzi bilan tursa,

qo'g'irchoq shirmaga juda yaqin kela olmaydi va bu holat maqsadga muvofiq emas. Gapit kaftda erkin tisarilib turadi. Kichkina va undan oldingi barmoq gapitni ushlab turadi. Bosh barmoq va ko'rsatgich barmoqlar esa, polzunokni, ya'ni boshni xarakatga keltiruvchi moslamani ushlab turadi. O'rta barmoq esa yordamchi vazifani bajaradi. Aktyor bilaklari qo'g'irchoqning bel, bo'ksa, gavda aylanasi aks ettirib, bilak egilganda qo'g'irchoq xam engashadi. Simlarni ushlagan qo'llar bilan aktyor qo'g'irchoq qo'llari xarakatini amalga oshiradi. Simlar uchiga slindr shaklidagi yog'ochlar tutashtirilgan. Aktyor kafti o'ziga qaratib ochilgan va u kaftlarda ikki simni ushlab turadi. Aktyor qo'g'irchoqni boshqaridagi birinchi qadamidayoq, uning tana, bosh xarakatiga qarab, qo'llarini xarakatlantirishni o'rganish zarur. Ko'pchilik aktyorlar qo'g'irchoqni dastlabki xolatda ushlaganda ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Bular: qo'g'irchoq korpusi yonga, aktyor tomonga biroz egilib turadi. Qo'g'irchoqning yuzi aktyorga qaraydi. Bu xatoga aktyor qo'g'irchoqni to'liq kontrol qilish uchun, o'zi bilmagan xolda yo'l qo'yadi va unga qo'g'irchoq to'g'ri turgandek tuyuladi. Bu xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun, qo'g'irchoq ushlab, oyna oldida mashq qilish kerak. Faqat ko'zguna unga qo'g'irchoq tomoshabinga qanday ko'rinayotganini ko'rsatadi.

Sahnada harakat qilayotgan har qanday personaj real tirik jonzodni aks ettiradi. Barcha oyoqlari bilan yerga tiralib yuradigan jonzodlarda elastik prujina xolati bo'lib, u kerak vaqtda sakrab ketishga, cho'chib ketishga, tisarilishga, ilib olishga, ushlab qolishga tayyor bo'ladi. Buning uchun quyidagi mashqni bajarib ko'rish maqsadga muvofiqdir. Tasavvur qilingki, sizning qo'g'irchoq'ingiz batut setkasida sakrayapti. Bu mashqni bajarayotganda aktyorning yelkasi, tirsak va bilagi xarakatlanadi. Qo'g'irchoq yuqoriga sakraganda bilak biroz orqaga qayriladi, qaytib setkaga tushayotganda esa, bilak oldinga egiladi. Shunda qo'g'irchoq ham biroz engashadi. Qo'g'irchoqning bosh xarakati bilan bog'liq qo'yidagi mashqni bajarib ko'rish mumkin.

«Arg'imchoq» - bu mashqda qo'g'irchoq qarshingizda to'g'ri ko'tarilgan, uning boshi uzluksiz xarakatda, chunki u arg'imchoqni chayqalishini kuzatyapti. Avval arg'imchoq sekin chayqaladi. Asta-sekinlik bilan tezlashadi va yuqoriroqqa ko'tariladi. Ana endi, u, sekinlasha boshlaydi va oxir-oqibatda to'xtaydi. Musiqa jo'rliqi mashqning temporitmini belgilab beradi. Yana bir mashq «ko'zgu» deb ataladi. Bu mashq ikki talaba bilan bajariladi. Bir talabaning qo'g'irchog'i ikkinchi talaba qo'g'irchog'ining ko'zgidagi aksi. O'rtaga ko'zguni aks ettiruvchi ramka qo'yish mumkin. Bunda bir qo'g'irchoqni xarakatini oynadagi tasvirdek sinxron bajarishga xarakat qilib ko'rish mumkin. Mashqni bajarishdan oldin partnyor bilan berilgan shart-sharoit va uning maqsadini kelishib olish kerak. Ba'zi harakat texnikasini kanday bajarishni o'ylab, kelishib, bir qarorga kelib olib, so'ng mashqni bajarish maksadga muvofiqdir. Agar o'ylab ko'rsangiz, bu mashqdan oxiri qiziqarli va fantastik yechimli ajoyib etyud hosil kilish mumkin. Keyingi mashq «Tarsaki» deb ataladi. Mashqni bajarish uchun ikki qo'g'irchoq kerak bo'ladi. Bir qo'g'irchoq ikkinchi qo'g'irchoqqa o'ng qo'li bilan tarsaki tushirdi. Bunda uning ko'z qarashi qarshisidagi qo'g'irchoqqa yunalgan bo'ladi. O'ng qo'l yonga yoziladi, shu bilan birga gavda ham bir oz yonga qayriladi. Tez harakat bilan o'ng qo'l oldingga boradi va tarsakini amalga oshiradi. Bunda tarsaki yegan qo'g'irchoq qimirlab ketishi va ikki qo'llab chakkasini berkitib olishi kerak.

Tarsaki tushirgan qo'g'irchoq qo'llarini yozib, orqaga gavdasi bilan bir oz burilganda aktyorning bilagi o'z o'qi atrofida aylangandek buriladi. Ikkala qo'lning simlari aktyorning ikkinchi qo'lida bo'ladi. Tarsaki tushiruvchi qo'l trostini aktyor bosh barmoq va ko'rsatgich barmog'i bilan ushlab turadi. Mashqdagi xarakat texnikasini o'rgangandan keyin bu xarakatni qo'g'irchoq nima uchun sodir etganligi xaqida kichik voqea o'ylab topish mumkin. Bu esa tasavvurni rivojlanishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlamokchimanki, mashqlarni bajarish uchun avvalom bor har bir elementni alohida bajarib, ularni

sekinlik bilan murakkablashtirib, so‘ng to‘liq mashqni bajarishga kirish lozim. Oldin mashqda berilgan xarakterlar texnikasini o‘rganib chiqish, so‘ng uni ongli ravishda qo‘g‘irchoqning xatti-xarakterlarida aks ettirish lozim. Sekin astalik bilan qo‘g‘irchoq xarakterini o‘zingiz uylab topgan shart-sharoitlar bilan boyitib, etyudga aylantirish mumkin. Fikrimizni to‘ldirish uchun quyidagi etyudni aytmoqchimiz. Etyud «O‘g‘rini qaroqchi urdi» deb ataladi. Bir kishi tilla to‘la xumchani o‘g‘irlab qochib kelyapti, uni shu yerga ko‘mish uchun joy qidiradi. Bu yerga ko‘msa bo‘lmaydi. Topib olishlari mumkin. Ha mana bu yerga ko‘madi. U yon atrofida hech kim yo‘qligiga ishonch xosil qilib, qo‘llari bilan yerni qaziydi va xumchani ko‘madi. Lekin uning bu ishini daraxt orqasidan ikkinchi kishi kuzatib turgan bo‘ladi. Birinchi kishi o‘z ishini tugatib ketadi. U ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilan ikkinchi kishi berkingan joyidan chiqib xumchani qazib olishga kirishadi. Boyligidan xabar olgani qaytib kelgan birinchi kishi voqeani ko‘rib ikkinchi kishi bilan urishib ketadi. Tasodiffan kelib qolgan kishi urishayotganlarni va oltin to‘la xumchani ko‘rib, gap nimada ekanligini tushunadi. Xumchani olib juftakni rostlaydi. Etyudni bajarishga kirishishdan oldin har bir ijrochi berilgan shart-sharoitni o‘rganish, har bir qo‘g‘irchokning oldiga qo‘yilgan aniq maqsadini idrok etishi zarur. Yuqorida aytib o‘tganidek, etyuddagi har bir xarakterni alohida ishlab chiqish va shundan keyingina umumiy etyudni ishlash zarur.

Imonimiz komilki yuqorida berilgan mashq va etyudlar qo‘g‘irchoq bilan ishlash maxoratingizni oshirishda, yangi-yangi etyud va mashqlar o‘ylab topishingizda ozgina bo‘lsa xam turtki bo‘ladi. O‘z navbatida shuni aytmoqchimanki, etyudlar ham spektakllar yaratish va ishlanish qonuniyatiga amal qilgan xolda yaratiladi, ishlanadi. Talabalar etyudlarini, mashqlarini o‘zlari o‘ylab topsalar fantaziyalari o‘sadi. Qo‘g‘irchoq bilan ishlasalar qarshilaridagi boshqa qo‘g‘irchoqni boshqarayotgan partnyorga e‘tibor kuchayib, maxoratlarini oshirishga yordam beradi.

Planshet qo‘g‘irchoq‘ini boshqarish.

Planshet qo'g'irchog'i aktyorning ochiq ravishda olib yuradigan qo'g'irchoq turidir. Planshet qo'g'irchog'i o'tgan asrning 60 yillarida juda keng tarqalib, ommaviy tus olgan. Planshet qo'g'irchoqning turlari juda ko'p, shuningdek ularning turlariga ko'ra, aktyor tomonidan boshqarilish usullari ham turlichadir. Planshet qo'g'irchog'ining hozirgi paytda asosan estrada programmalarida ko'plab uchratish mumkin. Estrada programmalarida ishlatiladigan qo'g'irchoqlar hajmining kattaligi va xarakatchanligi bilan tomoshabinlarni o'ziga jalb etadi. Estrada programmalaridagi planshet qo'g'irchoqlar taniqli ashulachilarga taqlid qilib chiqishlari tomoshabinlarga katta zavq bag'ishlaydi.

Planshet qo'g'irchog'i bilan sahnada ishlaydigan aktyor qo'g'irchoq bilan qanday muomalada bo'lishi kerak. Planshet qo'g'irchog'ining katakichikligiga qarab aktyor va qo'g'irchoq bir tan va bir jon bo'lib, ya'ni qo'g'irchoqdan aktyor ajralib qolmasligi kerak. Agar planshet qo'g'irchog'i kichik ya'ni aktyordan past bo'lsa, aktyor qo'g'irchoq harakatini o'ziga mohirona moslashi zarur. YA'ni planshet qo'g'irchog'i va aktyor o'rtasida dialog bo'lishi ham mumkin. Estrada programmasida aktyor va qo'g'irchoq orasida uzviy bog'lanish bo'lsada, aktyor hech qachon qo'g'irchoq orqasiga berkinmasligi kerak. Negaki, aktyor zal bilan qo'g'irchoq orqali bog'lanib turadi.

Xulosa shuki, estradada planshet qo'g'irchog'ini boshqaruvchisi – aktyor birinchi o'rinda turadi. Planshet qo'g'irchog'ini boshqarishning boshqa usullari bor. Shulardan biri-planshet qo'g'irchog'i o'ynatilayotganda aktyor ko'rinmaydi, buning uchun esa sahnada ortiga tushirilgan parda rangi aktyor kiygan kiyim rangidan bo'lishi kerak. Shunda ijrochi ko'rinmaydi. Aktyor xam iloji boricha kam harakatda bo'lishi kerak. Yana nur vositasi bilan ham aktyorni butunlay ko'rsatmaslik mumkin.

Endi, teatrlarda planshet qo'g'irchog'ining tutgan o'rni haqida aytadigan bo'lsak, ko'pchilik teatrlarimiz bu tipdagi qo'g'irchoqlar bilan ishlamoqdalar.

Teatrdagi planshet qo'g'irchoqlar estradada ishlatiladigan planshet qo'g'irchoqlardan boshqarish yo'llari bilan farq qiladi. Spektakllarda aktyor qo'g'irchoq bilan birga yashaydi, ya'ni obraz yaratadi. Shu bilan birga aktyordan katta mahorat talab qilinadi. Teatrda ham planshet qo'g'irchoq'ini katta-kichikligiga qarab aktyor boshqarishi o'zgarib boradi. Buni qanday tushunmoq kerak. Deylik, asarda ijobiy qaxramon bilan birga salbiy obrazlar ham bor. Salbiy obraz yaratayotgan aktyor qo'g'irchoqni ochiq olib yuradi. Demak. Shu obrazga aktyorning o'z munosabati bo'lishi shart. Aktyor qo'g'irchoq bilan uzviy bog'lab olib borsa, tomoshabinning diqqatini o'ziga qaratishi mumkin. Asar qaxramoni obrazida aktyor qaxramon bilan birga kulsa kulib, yig'lasa yig'lab, uyg'un yashashi mumkin. Tomoshabin diqqatini o'zimga tortaman deb, qo'rqmasa ham bo'ladi, negaki tomoshabin ham shu qaxramon bilan yashashi mumkin. Ba'zan planshet qo'g'irchoq'i boshqa turli qo'g'irchoqlar kabi aktyor mahoratini chegaralab turadi. Aktyor qo'g'irchoqning imkoniyatini hisobga olgan xolda mahoratin ko'rsatishi kerak. Planshet qo'g'irchoqlarini ko'pgina simli va qo'lqopli, marionetkali qo'g'irchoqlardan afzalliklari ham bor. Bu afzalliklar planshet qo'g'irchoq'ini boshqaruvchi aktyor mahoratiga bog'liq. Bu borada «Odamlar va qo'g'irchoqlar» truppassi haqida to'xtalish mumkin. Bu turppaning 80% spektakllari planshet qo'g'irchoqlari bilan ko'rsatiladi. Ularning qo'g'irchoqlari bilan ko'rsatilgan spektakllar juda ommaviydirki, kattalar ham kichikntoylar xam birday qiziqish bilan tomosha qilishadi. Har bir qo'g'irchoqni 2 yoki 3 aktyor boshqaradi va bu qo'g'irchoqni mukammal darajada professional boshqarib yurishlariga imkon beradi. Ular xech qachon qo'g'irchoq orqasiga yashirinmaydilar.

Planshet qo'g'irchoq'i bilan qo'yilgan spektakllar aynan qo'g'irchoqbozlarning mahoratlari tufayligina jozibali va qiziqarlidir. Planshet qo'g'irchoq'ini boshqaruvda qo'g'irchoqboz ustida juda ko'p ishlashi shart. Planshet qo'g'irchoq'i bilan qo'yilgan spektakllar ko'pincha maska ya'ni niqob

teatrlarini eslatadi. Bu yerda qo'g'irchoq bilan niqobning o'xshas'haligi yo'qmikan, degan savol tug'iladi. Masalan, Yapon teatri «Kabuki»ni ko'rsak, o'xshashlik yaqin, lekin ularda qo'l va barmoq harakatlari bir ma'noni anglatadi. Ammo aktyor harakatiga nazar solsak, planshet qo'g'irchog'iga yaqinlikni sezamiz. Bunga bir misol. Kimo Sitoning «Turna pati» asari 1986 yili Samarqand qo'g'irchoq teatrida qo'yildi. Uch oy mashaqqatli ishdan so'ng, asar sahna yuzini ko'rdi. qo'g'irchoqning bo'yi odam bo'yi barobardir. Aktyor o'zini yashirishi kerak. Shu bilan birga har bir qo'g'irchoqni bir aktyor olib yurishi kerak edi. Bu esa aktyordan katta mehnat talab qiladi. qo'g'irchoqlar juda og'ir edi. Buning ustiga har bir qo'g'irchoqda ikkitadan mexanizm bor bo'lib, shu tufayli og'zi ochilib yopiladi, ko'zlari ishlaydi. Bu esa aktyordan qo'shimcha e'tiborni talab qiladi. O'xshashlik haqida gapiradigan bo'lsak, qo'g'irchoqning har bir harakati, qarashi, quloq solishi, qo'l harakati va gapirishi aniqlikni talab qilar edi. qo'g'irchoqboz planshet qo'g'irchog'ini iloji boricha o'zi yasashga harakat qilishi yoki shu jarayonda ishtirok etishi zarur. qo'g'irchoq nechog'lik yengil bo'lsa, ijrochining qo'llari tolmaydi. Aktyor o'z bo'y-bastiga qarab qo'g'irchoq boshqarish mexanizmini moslashi zarur. Masalan, planshet qo'g'irchog'ining boshi boshqariladigan dasta aktyorga noqulay, baland yoki past bo'lsa, albatta bu qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun qo'g'irchoqboz o'z qo'llarining qaysi balandlikda qiynalmasdan ishlay olishligini qo'l mashqlari orqali anglab olishi zarur. Lekin sahnalashtiruvchi rejissyor planshet qo'g'irchoqlarini odam bo'yi barobar kilib rejalagan bo'lsa, aktyor qo'g'irchoqni boshqarish dastasi qay balandlikda bo'lishidan qat'iy nazar uni professional darajada bajarishi zarur.

Bir ko'z oldingizga kelitirib ko'ring. Planshet qo'g'irchoqning bo'yi siz bilan teng deylik. Bosh qismini boshqaruvchi dasta aktyor uchun qanchalik noqulay balandlikda bo'ladi. Yana qo'g'irchoqning bo'yiga qarab vazni ham og'ir bo'ladi. qo'g'irchoqboz og'irligi o'rta hislobda 3 kilogramm bo'lishi mumkin bo'lgan qo'g'irchoqni butun bir spektakl davomida ko'tarib yurish

kerak. Buning ustiga, aynan shu dastada mexanizm ya'ni lab yoki ko'zini harakatga keltiruvchi uskuna bo'lishi mumkin. qo'g'irchoqboz bosh dastasini bir qo'li bilan boshqarib turishi lozim, negaki ikkinchi qo'li yo tana yoki bo'lmasa qo'lini harakatga keltirib turishi kerak. Deylik qo'g'irchoqning bo'yi 50 sm yoki 60 sm qilib yasalgan. Bunday sharoitda qo'g'irchoqboz butun spektakl davomida yarim egilgan holda qo'g'irchoqni boshqarish mumkin. Bu ham aktyor uchun qiyinchiliklar tug'diradi. qo'g'irchoqboz sahnada planshet qo'g'irchoqini olib yurganda dramatik aktyorlarga xos bo'lgan ko'rish va eshitish organlari juda mukammal ishlangan bo'lishi lozim. Yana shuni aytish kerakki, planshet qo'g'irchoqini boshqaruvchi aktyorlar ijroda, obraz yaratishda dramatik aktyorlardan ustun bulishadi. Aktyorlar planshet qo'g'irchoqini boshqarishini qo'lqopli va simli qo'g'irchoqni boshqarish bilan bir paytda boshlashi kerak, zotan keyinchalik borib teatrlarda qiynalib yurishmasin. qo'g'irchoq teatri yashar ekan, undagi aktyor hech qachon o'zining ish quroli-qo'g'irchoqidan ajralmaydi. qo'g'irchoq teatr hech qachon o'zining tasviriy san'at bilan, musiqaviy ritmik ohang bilan uzviy aloqasini uzmaydi. Mana shu qurol va xamkorlik asosida shunday spektakllar yaratishi mumkinki, boshqa yo'nalishdagi teatrlar unga havas bilan boqadilar.

Qo'g'irchoq spektakllarning tug'ilishida

boshqarish mezonlarining o'rni

Qo'g'irchoq teatrida spektakl tug'ilishi mezonlari umuman barcha turdagi teatrlar amal qiladigan qonuniyatlarga suyanadi.

Qo'g'irchoq teatrida ham xuddi dramatik teatrdagi bo'lgani kabi repertuar teatrning g'oyaviy va ijodiy qiyofasini belgilaydi.

Qo'g'irchoq teatrida ham barcha ish spektakl uchun pyesa tanlashdan boshlanadi.

Qo'g'irchoq teatrida ham barcha ijodiy jarayon spektaklni sahnalashtiruvchi rejissyor zimmasida bo'ladi.

Biroq hamma gap shundaki yuqoridagi barcha jarayon qo‘g‘irchoq teatrida qo‘g‘irchoq teatr san‘ati tushunchasiga to‘g‘ri keladigan shartlarga tayanishi, mos kelishi lozim.

Dastlabki spetsifik muammo hech shubhasiz pyesa topish va tanlashdan boshlanadi. Gap shundaki bizda qo‘g‘irchoq teatrlari ko‘p bo‘lishiga qaramay qo‘g‘irchoq teatri uchun maxsus pyesalar yozuvchi dramaturglar yo‘q. Bor bo‘lsa ham barmoq bilan sanarli darajada. Qo‘g‘irchoq teatriga butun ijodiy faoliyatini baxsh etgan dramaturg yo‘q desak ham bo‘ladi. Yozish qo‘lidan keladigan tug‘ma istedodlar, ishni haddini olgan mutaxassislar istagancha topiladi.

Hamma gap avvalo rejissyorlarni milliy repertuar yaratishdagi no‘noq faoliyatida. Bu birinchidan. Ikkinchidan, qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasiga nisbatan katta teatrlarga yoziladigan pyesalarga qaraganda ikkinchi darajali degan munosabatda bo‘lishning oqibatidir. Natijada, ko‘p sonli qo‘g‘irchoq teatrlari ham adabiyot jihatidan, ham teatr san‘ati jixatidan “voqea” bo‘larlik ishlarga ega emaslar. O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatrlari repertuarida original milliy, professional dramaturgiya darajasidagi asarlar hozirgacha orzu bo‘lib turibdi.

Jahon qo‘g‘irchoq teatri amaliyotida (balki boshqa turlarda ham) repertuar yaratishda sinovdan o‘tgan ikki uslub bor. Bittasi – teatr yozilgan pyesani qo‘liga oladi va pyesa ustida ishlash jarayonida qo‘g‘irchoq personaj obrazini yaratishda ma’lum bir tipdagi muammolarni hal etadi. Aytaylik, yozib keltirilgan va rejissyor qo‘liga tekkan pyesa qo‘g‘irchoq sahnasi tabiatiga to‘g‘ri keladimi yoki yo‘qmi? Muallifning ijodiy tasavvurini badiiy gavdalantirishda teatr ijodiy uslubiyati va qo‘g‘irchoqlarning badiiy va texnik imkoniyatlari o‘zaro til topadimi yoki yo‘qmi? Ikkinchisi – mualliflarning teatr ichida rejissyorlar bilan bevosita hamkorlikda yaratadigan pyesalar. Dramaturgiyaning umumiy qonuniyatlariga har ikki yo‘nalishda ham amal qilinadi. Ammo birinchi holda qo‘g‘irchoqlar pyesalarga to‘g‘ri keladimi,

kelmaydimi, degan masala ko'ndalang bo'lsa, ikkinchi holda dramaturg yaratadigan badiiy obraz alohida tarzda emas, balki rejaning o'zidayoq qo'g'irchoq bilan birga tug'iladi, shakllanadi. Moskvadagi S.Obrazsov nomidagi teatrining, yoki Sankt-Peterburgdagi katta qo'g'irchoq teatrining mumtoz san'at asariga aylangan, o'lmas spektakllari ana shunday jarayonda yaratilgan.

Ko'pincha pyesa o'qib bo'linishi bilan rejissyor bo'lg'usi spektakl yechimini oldindan ko'z oldiga keltiradi va shu bilan cheklanib qoladi. Bu xuddi aktyorning boshidanoq natijani o'ylagandek katta xatodir. Rejissyor oldindan ko'ra olish huquqini olishdan avval u bir qator vazifalarni oldiga qo'yishi kerakki, faqat tasavvur qilish emas, balki asarga obrazli yondashish bo'lsin. Shu bilan birga bu yondashish professional bo'lmagan odamning qo'lidan kelmaydigan bo'lsin. U yaratgan san'at asari – spektakl shunday darajada bo'lsinki, uni ko'rgan tomoshabin mo'jiza deb atalmish teatrga kelganiga hech afsuslanmasin. Xuddi shu dastlabki jarayon eng muhim bo'lib, u sahnalashtirilayotgan spektakl haqiqiy san'at asari bo'la oladimi yoki yo'qmi degan savolga javob beradi.

Zamonaviy teatrlarni boshqarish vazifasi rejissyor zimmasiga yuklatilgan. Unda yaxshi aktyor ansamblini yaratish, janr yo'nalishini belgilash, spektaklning badiiy qiymatini, g'oyasini aniqlash talab etiladi.

Rejissyor talqini nima va u qanday paydo bo'ladi? Hamma ish pyesa qidirishdan boshlanadi. Albatta, bu pyesa g'oyasi, rejissyor va u bilan birga ishlayotgan ijodiy jamoa uchun yaqin va qiziqarli bo'lishi kerak. Pyesa rejissyor fantaziyasiga ummondek oqimlar olib kelsa, tassavvurini uyg'otsa, hayotda ko'rgan – kechirganlarini eslatsa va bu murakkab psixologik jarayon qadamba – qadam, ba'zida esa yashindek bo'lib, dramaturg fikr-g'oyalarini obrazli talqinga olib kelsa, demak bu pyesa baxtli sahna hayotiga ega bo'ladi. Shunday qilib rejissyor talqini – bu rejissyor fantaziyasi, rejissyorning ko'rishi (rejissyorskoye videniye), avtor g'oyalarini obrazli talqin qilinishi va bu

ma'lum bir usulda sahnaga olib chiqishdir. Har bir rejissyorda g'oyalarni obrazli talqin qilish turlicha kechadi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, dotsent Maryam Ashurova Respublika qo'g'irchoq teatrida bosh rejissyor bo'lib ishlagan kezarida teatr repertuari haqida gapirib, teatrga repertuar tanilayotganda ayniqsa qo'g'irchoq teatrlari uchun albatta bolalar yoshi inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir, der edi. Chunki, asarda yoritilayotgan mavzu ma'lum yoshdagi bolaning qabul qilish imkoniyat doirasiga bog'liq. Albatta har bir yosh tomoshabinning ma'lum voqelikka baho berib, uni qabul qilishi har xil kechadi. Bog'cha bolalariga ko'pincha voqelikni oddiy, lo'nda, so'zlar kam ishlatiladigan qo'g'irchoq personajlarining plastik xatti-harakatlari yorqin, jozibali ko'rinishlar orqali namoyish qilinish taqazo etishadi.

Jumladan, teatr repertuaridagi "No'xot bola" yoki "Miyovlagan kim bo'ldi" spektakllari bog'cha yoshidagi bolalarga mo'ljallangan asarlardir. Chunki bu spektakllar o'yin tariqasida sahnalashtirilgan bo'lib, bolalarbopligi bilan ajralib turadi. "No'xot bola" spektaklida bolaning oiladagi o'rni, kattalarni hurmat qilish, do'stlariga e'tiborli, ota-onasiga yordamchi bo'lish ko'rsatilgan bo'lsa, "Miyovlagan kim bo'ldi" spektaklida kichkina kuchukchaning dunyoni asta – sekinlik bilan o'rganishi va o'ziga do'st topishi kichik voqealar orqali aks ettirilgan. Bunday asarlarni bog'cha yoshidagi bolalar esa yaxshi qabul qiladi.

Mavzu jihatdan shunday asar tanlanishi kerakki, u albatta maktabning boshlang'ich sinflari uchun ham mo'ljallanishi kerak. Bu asarlarda ko'pincha yaxshilik va yomonlik orasidagi farq, o'ziga do'st tanlash, zinhor – bazinhor yolg'on gapirmaslik, o'zidan kattalarni hurmat qilish, o'zidan kichiklarga ozor bermaslik kabi xislatlar, hayotning yorqin ranglari, nutqning ravonligi–yu musiqaning sehliligi, obrazlarning yorqin namoyish etilishi beg'ubor bolalarda katta ishonch uyg'otadi.

Teatr jamoasi o'zining kelgusi repertuarini tomoshabinlarning yoshiga munosib bo'lgan, zamon ruhidagi asarlar bilan boyitib borishini rejalashtirgan.

Jumladan, G'. G'ulom tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab "Shum bolaning sarguzashtlari", X. Rasulning "Gul va bulbul", o'zbek xalqining milliy urf-odatlarini targ'ib qiluvchi "Karvon ko'rdim", rus xalq ertagi asosida yaratilgan "Ayoz bobo" va "Mitti qizaloq" asarlarini yangi 2013 yilda poytaxtimizning yosh tomoshabinlari e'tiboriga havola qilingan.

Rejissyor ma'lumotida repertuarda asosan bolalarga mo'ljallangan asarlar haqida gap boradi. Respublika qo'g'irchoq teatrida repertuarning bu tahminiy tuzilishi bejiz emas va bunday hol qolgan barcha teatrlarga ham xos xususiyatdir. Demak qo'g'irchoq teatrlarimizda katta yoshdagi tomoshabinlar uchun qo'g'irchoq spektakllari qo'yilishi amaliy tusga kirmagan. Zotan, o'zbek qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasida kattalarga mo'ljallab yozilgan pyesalarning o'zi yo'q darajada. Adabiy asarlar asosida inssenirovka qilingan ayrim pyesalar, masalan, Xaytmat Rasulning "Qush tili" (A.Navoiy "Lison ut tayr'i) pyesasi bundan mustasno.

Bolalarga mo'ljallangan repertuarning hamma vaqt tomoshabinini bor. Bu yo'nalishda teatrning tomoshabin muammosi yo'q. Katta yoshdagi tomoshabinlar uchun qo'yiladigan spektakl teatrdan ham ijodiy, ham tashkiliy jihatdan qo'shimcha mehnat talab qiladi. Shuning uchun Qo'g'irchoq teatri san'atining bu muhim tarmog'i e'tibordan chetda qolgan.

Qo'g'irchoq teatri pyesasining o'ziga xosliklari orasida majoziylik va shartlilik jonli teatr dramaturgiyasidagidan keskin farqlanishi ham spetsifik muammodir.

Qo'g'irchoq tilsiz, jonsiz bir narsa bo'lib, ko'rinishi jihatidan tabiiy asosga monand bo'lmaydi. Haqiqiy o'xshashlik qo'g'irchoq teatr tabiatiga yotdir. Qo'g'irchoqning afti-angori ham mutlaqo o'hshamas tarzda bo'lishi mumkin. Fantaziyaga chek-u chegara yo'q. Faqat bitta sharti – hikoya qilinayotgan, ko'rsatilayotgan predmet, hayvonot dunyosi, odamzot haqida tushuncha bo'lishi va ijroda ishontira bilishi kerak. Ayniqsa, bolalarning beg'ubor dilida qo'g'irchoq obraz ishonch tug'dirishi spektakl yutug'ining

garovi bo‘ladi. Majoziylikda esa qo‘g‘irchoq teatrining eng yaqin tug‘ishgani – masal janrdagi majoziylik yaqqol misoldir.

Demak, pyesaning qo‘g‘irchoq olamiga mansublikka bildiruvchi xususiyatlar majoziylik va shartlilik ekan. Shuningdek qo‘g‘irchoq obrazida badiiy umumlashma ham katta ma‘noga ega. Qo‘g‘irchoq pyesalar obrazlaridagi umumlashmalik dramatik teatr obrazlaridagi estetik vazifani psixologik kechinmalar emas, balki ko‘proq, aniqrog‘i asosan hatti-xarakat orqali namoyon etadi. Xarakat qo‘g‘irchoq olamining asosidir. Qo‘g‘irchoq harakat vositasidagina “jonlanadi”. Qo‘g‘irchoqning har bir ma‘no-mazmunga, ma‘lum bir vazifani bajarish, maqsadga qaratilgan xarakati – sahnaviy xatti-harakatga kiradi. Qo‘g‘irchoqning sahnaviy xarakati hamma vaqt biror bir ma‘noni anglatuvchi harakatdir. Haqiqiy qo‘g‘irchoqning har bir so‘zi, jumlasida unga jo‘r bo‘ladigan harakat mavjud. Jonli teatr pyesasida bu funksiyani ko‘proq remarka ifoda qiladi. Spektakl tayyorlashdan avval pyesa qo‘g‘irchoqlardan qanday xatti-harakatlar talab qilishini aniq bilib olishi kerak, chunki qo‘g‘irchoqning harakatlari ma‘lum cheklanishlarga ega bo‘ladi.

Qo‘g‘irchoq teatrining xarakteri personaj aytadigan so‘zlar vositasida emas, u qiladigan plastik xatti-harakatlar orqali tug‘iladi, shakllanadi. So‘zlar S.Obrazsov iborasiga ko‘ra “Qo‘g‘irchoq xulq-atvoriga sabab” bo‘lmog‘i kerak.

Shunday qilib, pyesaning qo‘g‘irchoq teatri estetik makoniga mansub yoki mansub emasligini aniqlashda ko‘p vositalar ichida undagi ma‘lum xususiyatlarni ochuvchi ayrim xislatlarni aynan plastik xatti-harakatlar orqali ifoda qilish imkoniyatlari darajasi ahamiyatga ega. Ma‘lumki, qo‘g‘irchoq personaj o‘z tabiatining bir-ikki belgisini aniq ta’kidlab ko‘rsatishga o‘rgangan.

Ma‘lumki, dramaturg talqini rejissyor talqinidan farq qiladi, ya’ni dramaturg o‘z asarlarida hayotda ko‘rgan-kechirganlarini, kuzatganlarini namoyon qiladi. Rejissyor talqini esa, dramaturg yozgan pyesani o‘qilgandan so‘ng tug‘ilgan fikr, g‘oya, tuyg‘u demakdir. Stanislavskiy aytganidek rejissyor tasavvuri, taassurotidan katta farq qiladi. Taassurot – bu o‘qilgan asardan

tugʻilgan dastlabki tasavvur boʻlib, talqin esa pyesaning mukammal tahlili, rejissyorning professional mahorati va isteʼdodiga bogʻliq natijadir. Bularning hammasi dramatik, musiqali va qoʻgʻirchoq teatrlari uchun bir xilda tegishli. Gap qoʻgʻirchoq teatrlarida spektakl talqini haqida ketar ekan, uning bir qancha xususiyatlariga ega ekanligiga toʻxtalish lozim.

Spektakl qoʻyishga tayyorlanayotgan rejissyor bu xususiyatlarga amal qilmas ekan, spektakl umuman chiqmaydi yoki chiqsa ham rejissyor orzu qilganidek boʻlmaydi. Bu xususiyatlar nimada? Bu avvalo jonsiz qoʻgʻirchoqning jonlanish xususiyati boʻlib, qoʻgʻirchoq teatri tabiatini belgilaydi. Qoʻgʻirchoq teatrida faqat qoʻgʻirchoq emas, balki har qanday predmet ham jonlanishi mumkin. Shunisi muhimki, bunday jonlanishdan tomoshabin ruhan rohatlanadi. Yana bir xususiyat muallif gʻoyasining badiiy talqini boʻlgan qoʻgʻirchoqni yuqori baholash, sevish, aktyor mahoratidan ustun qoʻyishdir. Mana, shu xususiyatning hammasi Yevgeniy Demmeni ijodida mujassamlashgan edi. Ye.S.Demmeni qoʻgʻirchoq teatri uchun yuqori professional dramaturgiya asarlari yaratishga bel bogʻlagan birinchi rejissyor hisoblanadi. Uning bevosita boshchiligi va yordami bilan klassik pyesalar qoʻgʻirchoq teatri uchun qayta yaratildi.

Qoʻgʻirchoq teatrida oʻzining rejissyorlik qobiliyatini namoyish qilgan yana bir sanʼatkor Moskvadagi Markaziy qoʻgʻirchoq teatri direktori va badiiy rahbari vazifasida ishlagan S.V.Obrazsovdur. U spektaklda ishtirok etuvchi barcha ijodkorlarning fantaziya va tasavvurini uygʻotish oʻzining bosh vazifasi deb bilardi. Ijodkorlar faqat qoʻgʻirchoq, dekoratsiya, shirma va obraz haqida fikr yuritmay, oʻsha pyesada aks ettirilgan hayot haqida, oʻsha davr muhiti haqida mulohaza yuritishlarini istardi. S.V.Obrazsov fikricha, sanʼatda ishlash – hayotni sevish, oddiy narsadan gʻayrioddiy narsani koʻra bilash, bu narsalardan hayajonga kelish, odamlarga ularning oʻzlari haqida bilmaydigan narsalarni ayta olish, yangilik yaratish, kashfiyot qilish demakdir.

O‘zbek qo‘g‘irchoq teatr san’atining bugungi faoliyatida yuqoridagi professional mezonlarga amal qilish salohiyatiga ega Shomurod Yusupov, Maryam Ashurova, Fatxulla Xo‘jayev kabi rejissyorlar va talay mahoratli aktyorlar bor. Asosiy muammo sifatli dramaturgiya yaratish bo‘lib qolmoqda.

“Miu nomli mushukcha” – talabalar sahnasida

Respublika qo‘g‘irchoq teatrida shakllangan va hozirda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti qo‘g‘irchoq yo‘nalishi kurslarida davom ettirilayotgan an’ana teatrida, sahnada zamon talabiga javob beradigan zamonaviy, tomoshabinni o‘ylashga, fikrlashga, hayotni anglashga, uning ikirchikirlaridan yiroqroq yashab, yashashning asl mazmunini bilishga undaydigan, san’at va sahna qonun qoidalariga to‘la-to‘kis javob beradigan asar sahnalashtirishning maqsadga muvofiqligidir.

Teatrdagi qo‘yilayotgan har bir sahna asarining tomoshabinga aytmoqchi bo‘lgan gap va ilgari surmoqchi bo‘lgan g‘oyasi bo‘lmog‘i lozim. Yaratilayotgan spektakl o‘zidagi voqeligi, hayotdagi muammolarga qahramonlar tomonidan topilayotgan yechimi bilan tomoshabinga ma’naviy va madaniy ozuqa bera olishi zarur va ijtimoiy- siyosiy bilimni o‘stirib real hayotni go‘zallashtirib, yashashga turtki bo‘lishi lozim.

Spektaklga keladigan bo‘lsak, uning yaratilish jarayoni, qiyinchiliklari, undagi kollektiv birligi va mashaqqatining o‘rni teatr san’ati boshqa san’at turlaridan butkul farq qilishini ko‘rsatadi.

2006 -yil 22- dekabrda institutimizning 3-kurs “Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi” talabalari tomonidan dotsent Maryam Ashurova rahbarlik qilgan aktyorlik mahorati o‘qituvchisi Shermet Jabborov rejissyorligida, Vyetnam yozuvchisi Nguen Din Txi qalamiga mansub “Miu nomli mushukcha” spektakli diplomoldi spektakli qayta ijro etildi.

Bu spektakl serqirraligi bilan ajralib turadi, uning har bir personajida bitta g‘oya aks etadi, masalan, spektakldagi qozon roli uning og‘ir vazminligi, qo‘rqoq va jur’atsizligi, eng achinarlisi uning byurokratligidir, uning yoshi

nisbatan kattaroq bo'lsa-da, boshqalardan ko'ra har bir xatti-harakati, so'zlashi, fikrlashi uning o'zi tarafidan chegaralangan. Buni ko'rgan tomoshabin hayotda mana shu qozonga o'xshab qolmaslikka, u yo'l qo'ygan xatolarni takrorlamaslikka, har kimning hayotida o'z o'rnini va haq-huquqi bo'lishi kerakligi haqida spektakldan yo'llanma oladi.

Bu spektaklning yaratilishiga sabab bo'lgan tarixga quloq soladigan bo'lsak, uning zamirida Vyetnam xalqining qahramonligi, vatanparvarligi, o'z zamini uchun jonini fido qilishga ham tayyorligi yotadi. Vyetnam yerlariga yomon niyatda bostirib kirgan Amerika qo'shinlari bu xalqni qul qilmoqchi, jonidan ortiq sevuvchi yerlaridan esa o'z manfaatida foydalanmoqchi bo'ladi. Kamgap Vyetnam xalqi ona zaminini yovuz kuchlardan himoya qilish uchun qo'lga qurol oladi.

Tarixning aynan mana shu voqeasi Nguen Din Txi tomonidan oq qog'ozga kichkinagina ertak bo'lib muhrlanadi. Bobo va uning nabirasi xonadoniga bostirib kelgan g'araz niyatli kalamushlar Amerika yovlarini, ularga qarshi kurashgan mushukcha Miu boshchiligidagi uyning kichik a'zolari esa sadoqatli vyetnam xalqini esga soladi. Spektaklni tomosha qilib amin bo'lish mumkinki, muallif tarafidan aytilmoqchi bo'lgan fikr har qanday yoshdagi tomoshabinga rejissyor tarafidan tushunarli qilib sahnalashtirilgan.

Spektaklda qo'g'irchoqlarning simli turidan ko'proq foydalanilgan, qo'g'irchoqlarning kiyimlari sodda va o'z karakterlariga monand qilib ishlangan. Qo'g'irchoqlarning ba'zi birlarida harakat imkoniyati cheklangan va ba'zi birlarida esa harakat qilish juda qulay va imkoniyati keng. Mana masalan spektakldagi qozon roli, nisbatan o'ynatish qiyin va uni o'ynatishda aktyordan ko'proq kuch talab qilinadi. Spektakldagi ikkita kalamush qo'g'irchoqlar esa juda ham qulayligi bilan ajralib turadi, ularda o'z xarakterlariga mos harakat qila olish imkoniyatining mavjudligi uni o'ynatishda aktyorga unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Spektakl qahramoni bo'lmish mushukcha Miuni ham bir ko'rishdanoq tushunish mumkin, uning gapirishidan va xatti-harakatidan

qanday xarakterga ega ekanligini bilish qiyin emas, yuz tuzulishidan yoshini ham, o‘yinqaroqligini ham, hatto ismi jismiga mosligini ham anglash qiyin emas. Spektaklda bolalarda yomon taassurot qoldira oladigan General kalamush qo‘g‘irchog‘i ishlanishi jihatidan ham, o‘ynatilishida ham qiyinchilik tug‘dirishini sezish qiyin emas, uning kiyimi ham dumining uzunligi ham generalga xos va boshqa kalamushlarga nisbatan ustunroq ekanligini ko‘rsatadi, ko‘zlarining qizilligi zolim va qonxo‘rligidan dalolat. Uning tanasiga oq rang berilganligi esa darajaning yuqoriligini yanayam ravshanlashtiradi. Agar qozon qo‘g‘irchog‘ini olinadigan bo‘lsa, bu qo‘g‘irchoqning boshqalaridan ajralib turadigan jihatlari yo‘q emas. Spektaklning boshqa qo‘g‘irchoqlari ham xuddi misol keltirgan kabi imkoniyatga ega.

Bobo va uning nabirasi Bong roli jonli planda ijro etilgan. Bobo uyiga ikki maqsadda mushukcha Miuni olib keladi, birinchisi sevimli nabirasi Bongga yangi yil bayrami oldidan sovg‘a berish va uni xursand qilish, ikkinchisi uyda tinchlik bermayotgan yaramas kalamushlardan qutulish, Bong esa xushchaqchaq, Miuni bajonidil juda yaxshi ko‘radigan, beg‘ubor va yosh qizcha rolida namoyon bo‘ladi.

Spektaklda dekoratsiya juda qulay va oddiy qilib ishlangan. Unda vyetnam tabiati tasvirlangan bo‘lib, palma daraxtlari va qamishzor aks etgan bu voqea sodir bo‘layotgan xonadonning yashash tarzi oddiy va tabiat bilan hamohang ekanligini ko‘rsatadi. Dekoratsiyada asosan yashil rang ishlatilgan, bu esa sodir bo‘layotgan voqeani bahor faslida ekanligini bildiradi. Dekoratsiyada mana shunday tabiat manzarasini tasvirlash spektakl qahramonining boshqa masalan, qurbaqa, qo‘ng‘iz singari jonzotlar bilan tanishishga imkoniyati borligini ham esga soladi. Dekoratsiya spektakldagi barcha personajlarning yashash joyi, turmush tarzini tomoshabinga bemalol hikoya qilib bera oladi. Spektakl dekoratsiyasida hech bir narsa yo‘qki, u kechayotgan voqelikka halal bersa yoki unga mantiqan teskari bo‘lib qolsa, aksincha undagi ishlatilgan ranglar detallar spektakldagi barcha chiqish va

sahnalarga mos keladi. Dekoratsiyaning xarakteri bobo va nabirasi Bongning xarakterlariga ham mos keladi, tasvirdagi soddalik va vazminlik boboning ham Bongning ham xarakteridan kelib chiqib yaratilgan bo'lsa ajabmas.

Spektakl musiqasi talabga to'liq javob beradi. Spektaklda ba'zan sho'x, ba'zan lirik vyetnam musiqalaridan foydalanilgan, uning quvnoqligi, xarakteristikasi spektakl personajlariga juda mos tushgan. Masalan, parda ochilishida yangraydigan musiqa tomoshabinni birinchi bo'lib e'tiborini tortadi va spektakl atmosferasiga olib kirishga harakat qiladi. Mana shu boshlovchi kuy lirik vyetnam musiqasi ekanligi bejiz emas. Unda vatanparvar vyetnam xalqining vatan ozodligi yo'lida qilgan mehnat va mashaqqatlari kuylanadi. Parda ochilgandan keyin sho'x musiqa yangrab Bong sahnaga o'ynab chiqib keladi, bu vaqtdagi musiqaning ritmi Bongning yoshiga mos raqs harakatlariga munosib tanlangan. Mushukcha Miuning ko'shig'ida o'zining qilmoqchi bo'lgan ishlari va shu xonadonda uni kutayotgan g'alabalarni o'ziga maqsad qilib olinganligi aytiladi, zotan mushukcha juda kichkina bo'lsa-da bu qo'shiqni u jiddiy ko'rinishda ijro etadi, bu sirlilik esa unga qarshi kurashayotgan yovuz kuchlarga bilinmaydi. Kechayotgan bu jarayon yosh tomoshabinlar e'tiborini tortib spektaklga yanada qiziqishlarini orttiradi.

Kalamushlar chiqishida qo'yilgan musiqa ularni qanaqa xarakterda ekanligini tomoshabinga darhol sezdiradi va hayajonga soladi, sababi ularning maqsadi ham tushunarli bo'lib qoladi.

Spektaklda ba'zi personajlarga aloxida musiqa tanlangan, masalan qo'ng'izga tanlangan musiqa ritmi o'rtamiyona va unga mosligi bilan alohida ajralib turadi, yana bir misol qurbaqaning chiqishiga qo'yilgan musiqa quvnoqligi bilan qiziq tuyuladi. Tomoshabin atmosferadan chiqib ketmasligi uchun spektakldagi kichik tanaffuslarda ham musiqa qo'yilgan.

Spektakl talabalar tomonidan ijro etilganligi tufayli ularda bir muncha kamchiliklar ko'zga tashlandi. Masalan, qozon rolini ijro etgan aktyorning nutq shtampi personajning tabiiy chiqishiga halal bergan. General kalamushning

passiv ijrosi spektaklni kulminatsiyaga chiqishini qiyinlashtirgan. Boboning ijrosida ham biroz yuzakilik sezilgan. Spektakldagi ikki kalamushning aktyorlar tomonidan cheklangan imkoniyati sababli ba'zi replikalarga munosabat berilmagan va ularning "kayfiyati" tushib ketgan, personajlar kutilgan natijani bermagan.

Spektaklda shovqinlardan yetarlicha foydalanilgan. Shovqinlar asosan spektaklni badiiy bezatishda ishlatiladi, ular spektakldagi voqea-hodisalarni tabiiyligini oshirishga hissa qo'shadi.

Spektakldagi ishlatilgan shovqinlarga qozon qaynashi, supurgining supurishi, qozonni uloqtirishlari, bong urishi va turli hil musht zarbalar misol bo'la oladi.

Spektaklda chiroqlar faqatgina yoritish uchun ishlatilgan. Xarakterli nurlardan foydalanilmagan. Chiroqlar uch planda foydalanilgan. Birinchisi avansahnada, ya'ni jonli planda ishlatilgan, bobo va uning nabirasi Bongning munosabatlari va barcha xatti-harakatlari dekoratsiya bilan birgalikda mana shu plan yoritkich chiroqlari orqali yoritilib borilgan. Ikkinchisi qo'g'irchoqlarning shirmadagi harakatlari va munosabatlarini yorituvchi chiroqlar. Uchinchisi orqa planda joylashgan qozon turadigan joy, oshxona va uning tomini yorituvchi chiroqlar. Spektakl chiroqlarining rangi oddiy bo'lib, turli xil ranglardan foydalanilmagan, ochiq rangli yoritishdan foydalanilganligi sababli sahnaning barcha kerakli joylari aniq va ravshan ko'ringan, yoritishdagi kamchiliklar deyarli sezilmagan. Jonli plandagi sahnalarda ham yuzlar va imo-ishora harakatlari juda yaxshi ko'ringan. Shirmadagi qo'g'irchoqlarning yoritilishida ham xuddi jonli plandagidek usul qo'llanilgan. Uchinchi yoritish hech qanday xatti-harakatga bo'ysunmaydi, faqatgina aryersahnada spektakl uchun kerakli obyekt mavjud ekanligini ko'rsatib turadi xolos. U faqatgina bir qismdan boshqa bir qismga o'tishda dekoratsiya o'zgarishi kerak bo'lgan taqdirdagina o'chishi yo o'zgarishi mumkin. Birinchi yoritish chiroqlari vaqtida ikkinchi plandagilar xiralashtiriladi, ikkinchisida esa xuddi shu narsaning teskarisi

bo‘ladi, agarda har ikkala sahna ham o‘ynalsa yoritish chiroqlari o‘zgarmasdan o‘z holicha saqlanadi.

Umuman olganda bu spektakl juda chiroyli qilib ishlangan, yosh tomoshabinlarga tushunarli mazmunda havola etiladi, albatta u kamchiliklardan holi emas, lekin bu kamchiliklarning barchasi rejissyor va aktyorlarning o‘zida. Bu kamchiliklar ularning o‘z mashaqqatlari tufayli kamayishi yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketishi mumkin.

Umuman olganda spektakl tomoshabinlar tomonidan ham, soha mutaxassislari tomonidan ham ko‘ngildagidek va juda yaxshi qabul qilindi. Undagi quvnoq kayfiyat, betakror xarakterlar jamlanmasi va bir birini yetaklovchi voqealar bolalarni befarq qoldirmaydi. Yaxshilik bilan yomonlikning kurashi, ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alaba qilishi bu spektaklda ham o‘z isbotini topadi.

Spektaklning tarbiyaviy ahamiyati juda katta o‘rin tutadi. Unda mushukcha Miuning yaramas kalamushlar bilan kurashi yosh tomoshabinlarning xotirasida katta qahramonlik bo‘lib muhrlanib qolsa ajabmas. Kelajak avlod uchun vatanparvarlik, qahramonlik g‘oyalari o‘stirishda bu spektakl o‘ziga yarasha o‘rin egallaydi. Undagi do‘stlik, birlik, bir yoqadan bosh chiqarib ishlash, mehr–oqibatli bo‘lish va ularning samarasi haqidagi g‘oyalarning ulug‘lanishi spektakl kompozitsiyasidagi maqsad o‘rnida tanlangan.

Ayni bolalar yoshida xotira juda ham kuchli bo‘lib, har qanday narsani olib ketaverishi mumkin bo‘ladi, mana shuning uchun ham ularga ko‘chadagi bo‘lar-bo‘lmas narsalarni emas, balki foydali va tartibga chaqiruvchi narsalarni ko‘rsatishimiz, o‘rgatishimiz va vaqtdan foydalanib teatrimiz sahnalarida ular uchun qo‘ldan kelguncha esda qoladigan, ularni odobga chaqiradigan, bir-birlariga mehr-oqibatli bo‘lishlariga xizmat qila oladigan haqiqiy sahna asarlari yaratishimiz lozim.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, vyetnam yozuvchisi Nguen Din Txining “Miu nomli mushukcha” asari asosida ishlangan ushbu spektakl muvaffaqiyat qozongan spektakllar qatoriga kiradi. Bu sahna asari haqiqiy gʻirchoq teatri talablariga javob bera oladi, agar bunday boʻlmaganda teatrdam ham institutda ham takror-takror qoʻyilmagan boʻlar edi.

Respublika qoʻgʻirchoq teatrining hozirgi kunda koʻrsatayotgan spektakllari tarkibida eng kichkina tomoshabinlar – bogʻcha bolalari uchun moʻljallangan asarlar unchalik koʻp emas. Soʻnggi 5-6 yil ichida shu mavzuga eʼtibor berilmoqda. “Zolushka”, “Oltin kalitcha”, “Olovuddinning sehrli chirogʻi” va “Karlik nos”, “Yana Anderson” spektakllari shu jumladandir. Koʻpincha kichkintoylarga ularning yoshiga, ruhiyatiga toʻgʻri kelmaydigan sahna asarlarini koʻrsatishadi. Bunday hollar kamroq boʻlishi uchun nafaqat qoʻgʻirchoq teatrlari, balki Respublika yosh tomoshabinlar teatri ham kichkintoylarga atab spektakllar sahnalashtirishi kerak.

Respublika qoʻgʻirchoq teatri repertuaridan jajji tomoshabinlarga moʻljallangan “Miyovlagan kim boʻldi?” sahna asari oʻrin oldi. Yozuvchi V.Suteyevning qisqagina nasriy asari asosida Dinara Yoʻldosheva yozgan sheʼriy pyesani muallifning oʻzi sahnalashtirgan.

“Miyovlagan kim boʻldi?” spektakli Kuchukcha va Mushukcha munosabati, ularning doʻstligi haqida boʻlgani uchun teatr aktyorlari, sahnalashtiruvchi rassom Nodira Yoʻldosheva ularni qiziqarli jonlantirgani va rang–barang bezaklar fonida harakatlantirgani uchun sahna va tomosha zali orasida muloqot paydo boʻldi va spektaklning asosiy gʻoyasini tez anglashga imkon yaratdi.

Spektaklning voqealari bosh qahramon Kuchukchaning (Venera Yusupova) unga notanish boʻlgan “miyov”ga ovozidan uygʻonib ketganidan boshlanadi va uning hovliga chiqib, bir olam ovozlarning ohangiga shoʻngʻishi va Baboq xoʻroz (Yuriy Shibkov), Asalari, Mushukcha, Joʻja (Natalya Kiselyova), Sichqoncha (Natalya Danilova), Qurbaqacha, ikkinchi Joʻja (Zulfiya

Abdurahmonova) kabi ajoyib do'stlar orttirishi bilan yakunlanadi. Rejissyor D.Yo'ldosheva asosiy voqealarni va ajoyib, qulay, yorug', yog'och devorchalar (panjarasi), har xil rangli hovlicha va yo'lakchasi zinapoyali uycha atrofida rivojlantirgan va qo'g'irchoqlarni jonlantirgan.

O'tkir uchli yog'och devorcha (panjara) orqasidagi bag'rikeng kungaboqar va olis yo'l manzarasi keng bolalik olami beqiyosligi haqida tasavvur beradi. Chuchmomalar gullagan maydoncha orqasidan qamishzor orasidan ko'lmak ko'rinadi. Bular hammasi bolalarning rang-barang rasmlarga boy alifbosini betashvish bolalik davrimiz va ilk his-tuyg'ularimizni eslatadi...

Kompozitor Alisher Ikromovning ajoyib musiqasi yangi kun uyg'onganidan darak beradi, yoqimli hovlichaga jon kiradi. Eng avval babaq xo'roz paydo bo'ladi. Uning fe'liga mos musiqa yangraydi. Uyning tomiga o'tirib olib u orziqib kutilgan tongning kelgani haqida xabar beradi. Asalari vizillaydi, uy orqasidan mushukcha mo'ralaydi, o'tlar orasida sichqon tumshug'i, ko'lmakdan tilla baliq sakragani ko'rinadi.

Kuchukcha dala uyning deraza tokchasida mazza qilib shirin uxlayapti. Bugun uni ajoyib uchrashuvlar va sarguzashtlar kutmoqda...

Ushbu musiqali ertak-myuzikl qahramonlari xatti-harakatlari, xolatlarning ko'p qirraligini ko'rsatish uchun sahnalashtiruvchi rassom N.Yo'ldosheva "shtok" uslubini qo'llaydi va ularni puxta tayyorlaydi. Ushbu uslub qo'g'irchoqlar bosh qismiga va tanaga biriktirilgan maxsus tayoqchalar bilan yurgiziladi va ularning tez qo'zg'alish, jonlanish imkonini oshiradi. Qo'g'irchoqlarning har birida o'zlariga mos, mayin hazil bilan sug'orilgan, har xil musiqaviy janrbaxsh qo'shiqlar bor va ular "Siganochka", tango, vals va rep ohangida ijro etiladi.

Ushbu spektaklning musiqasi barcha voqealarni qamrab olgan holda tomoshabinlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning ko'z oldida kechayotgan voqealar ularni ochiq ko'ngliga qaratilgan. Spektakl yakunida qahramonlar bolajonlarga murojaat etib, ulardan Kuchukcha bilan uning atrofida

yashovchilar ovozlarini takrorlashni va ular bilan do'stlik haqidagi qo'shiqqa jo'r bo'lishni taklif etishadi.

“Miyovlagan kim bo'ldi?” spektakli jajji tomoshabinlarda yorug' va nafis his-tuyg'ular uyg'otadi. Aytish kerakki, bu spektaklning aksar personajlari simli qo'g'irchoq turiga mansub bo'lib, aktyor ularni harakatlantirishda katta mahorat ko'rsatgan.

XULOSA

Davlatimiz miqiyosida ilgari surilayotgan har tomonlama, hech kimdan kam bo'lmagan farovon hayot qurish uchun intilayotgan xalqimizning madaniyati va san'atining porloq istiqboli ertangi kun hammamizga yuklatiladigan qo'g'irchoq teatri maktabining qanday kirralarini chuqur o'rganishimiz o'zlashtirishimiz, ijodimizga tatbiq qilishimiz zarur?

Qo'g'irchoq teatri teatr san'atining eng qadimiy turlaridan biridir. Bizga ma'lumki, milliy qo'g'irchoq teatri tarixi juda ham uzoq o'tmishlarga borib taqaladi. Milliy qo'g'irchoq teatrining mana shu shakl va tamoyili bilan oddiy xalqni o'ziga jalb qila olgan. Tomoshalar asosan xalq sayllari va (xatna to'ylarda) to'ylarda namoyish etilgan.

Qo'g'irchoq teatri - bu shunchaki tomosha, shunchaki ermak o'yin emas, balki butun bir xalqning falsafasi, dini, adabiyoti, qo'g'irchoq, folklori, tasviriy san'ati va albatta tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tarixi badiiy hodisadir.

Qo'g'irchoq teatri san'atining ajoyib, ta'sirchan turlaridan biridir. Uning jozibadorligi, tomoshaviyligi qandaydir sodda go'zalligi «mo'jizali» tabiatga ega ekanligidadir. Darhaqiqat jonsiz, zabonsiz, oddiy qo'g'irchoqlar vositasida inson hayoti, munosabatlari, axloqi, odatlarini badiiy haqqoniy va jozibali qilib namoyish etish mo'jizaga o'xshaydi. Qo'g'irchoqboz bamisoli mo'jizakordir.

Qo'g'irchoq teatrining sharti shu-kasbni sevsang, ovozing jarangdor va mahorating zo'r bo'lsa hoxlagan rolingni o'ynayver. Iste'doding, ijodiy

harorating va shavqing bo'lsa bas! Ikkitagina qo'g'irchoqboz muvaffaqiyati bilan ko'plab qahramonli katta spektaklni namoish qilish mumkin. Bugungi kunga kelib, qo'g'irchoq aktyorlarini yetishtirib beruvchi O'zbekiston davlat san'at institutida mahorat predmeti bilan birga qo'g'irchoq texnologiyasi ham alohida o'rin tutadi. Bunda ustozlarimiz aktyor mahorati darsida ko'proq qo'g'irchoqning texnik mukammalligini va undan bahra oladigan darajada ijodiy erkinlikni taminlash, ta'sirchanlik qudratini oshirish, qo'g'irchoq teatri san'ati ijrochiligida yangi qirralarni kashf etish va zabt etish, ifodalash va ijro imkoniyatlarini rang-barangligini mustahkamlash va boyitish, diqqat, iroda qudratini mustahkamlab borish, jonsiz predmet bilan oshno bo'la bilish, uni sevish, chuqur his eta bilish, betakrorlik, xotirani chiniqtirish mashqlari, talafuzning tozaligi, ovoz jarangini sozlash mashqlari kabilarga alohida e'tibor bergan holda ish olib boriladi.

Qo'g'irchoq teatrida shuningdek adabiy til qudratini his etish, hayrat va quvonch beruvchi manbaaga aylantirish, sehr, zavq tuyg'usini his etish va ettirish qudratini rivojlantirish kerak. Ko'rinib turibdiki, tobora yuksalayotgan taraqqiyot cho'qqilarini mustahkam egallayotgan jahon ham jamiyatining kino, teatr, estrada, qo'g'irchoq san'atlari maktabi doirasida bizning teatr san'at maktabimiz o'zining nufuzi, salohiyati, izchilligi, ijodiy izlanishlari bilan raqobat bardosh san'atga intishishi uchun qator ichki imkoniyatlarga ega deb aytamiz. Bular ichida qo'g'irchoq teatrining rivojlanishi shart-sharoitlari alohida axamiyatga ega. Bu xalqimizning bolaparvarligi va bolajonlarimiz qo'g'irchoq teatrini bolalik mehri va qiziquvchanligi bilan sevishdir. Qolaversa viloyatlarimizda yoshlar orasida qo'g'irchoq teatri san'atiga qiziqish, e'tiqod, intilish ancha kuchli. Bu har yili institutimizga qo'g'irchoq teatri bo'limiga xujjat topshirayotgan abituriyentlar sonida ham ko'rinadi. Qo'g'irchoq o'ynatishdan oldin aktyor voqeani o'zida kechirib, keyin qo'g'irchoqqa o'tkazadi. Spektaklni jonli chiqishda albatta, aktyorlarni ijro mahorati alohida o'rin tutadi. Xullas, spektakllarni dunyoga kelishida

rejissor, rassom, bastakor, qo'g'irchoq ustasi, aktyorlar birdamligi, yakdilligi shunday nomoyon bo'lib turibdi. Aktyor, rejissyor bilan tomoshabin o'rtasidagi ko'prik hisoblanadi. Rejissyor asarning yaxshi qo'ygani bilan aktyor ijrosi xom bo'lsa, spektakl yaxshi chiqmaydi. Rejissyor spektakl qo'yishda birinchi navbatda aktyor tanlashda adashmasligi kerak. Spektaklda xama narsa o'z o'rnida bo'lsa muallif nima demoqchi bo'lganini o'zbek qo'g'irchoq teatri ustalari ko'ngildagidek yaratib, tomoshabinga yetkazib bera oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi T.: “O‘zbekiston” 1997.
2. Karimov I.A. “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” T.: “O‘zbekiston” 1998.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” T.: “Ma’naviyat” 2008.
4. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 1-8-jildlar.- T.: 2000 - 2004.
5. “Vatan tuyg‘usi” to‘plami. T.: “O‘zbekiston” 1996.
6. “O‘zbekiston san’ati” umummualliflik nashri. - T.: 2001.
7. “Istiqlol va milliy teatr” to‘plami. T.: “Yangi asr avlodi” 2002.
8. M. Qodirov. “Qo‘g‘irchoq teatri tarixi».- T.: 2010.
9. M. Qodirov. “Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun” T.: “Mumtoz so‘z” 2011.
10. T. Yuldashev, X. Ikramov, I. Muxtorov, M. Muxtorova «Teatr va yosh avlod”. T.: 2012.
11. M.Ashurova «Qo‘girchoq teatr san’atining aktyorlik maktabi»T.: 2007.
12. T.Смолякова “Технология изготовления театральной куклы” T.: 2007.

*Qo‘llanmada qo‘g‘rchoq teatri dramaturgiyasidan namuna
tariqasida Veytnam dramaturgi Nguen Din Txining
“Miu nomli mushukcha” pyesasining
o‘zbek tilidagi tarjimasi berildi*

QATNASHUVCHILAR:

Miu nomli mushukcha

Kalamush-general

1-kalamush

2-kalamush

Qozon

Supurgi

Qo‘ng‘iz

Kobra

Bong ismli qiz

Bongning buvisi

Oddiy qishloq manzarasi. Hovli.

- Buvi** Bong, Bong! Qayerdasan? Nevaraginam. Bolajonlar! Sizlar mening nevaramni ko‘rmadingizmi? (yo‘q) Tavba, u qayoqqa g‘oyib bo‘ldi ekan?
- Bong** Buvijon!
- Bavi** Bong, qayerlarda yuribsan? Men seni rosa axtardim.
- Bong** Buvijon, men hovlida o‘ynab yurgan edim, ha aytgancha menga nima olib keldingiz?
- Buvi** Bong, bilasan yaqinda yangi yil bayrami, men senga g‘aroyib bir yangi yil sovg‘a keltirdim.
- Bong** Qanaqa sovg‘a buvijon?
- Buvi** O‘zing o‘ylab top-chi.
- Mushuk** Miu
- Bong** Mushukcha
- Buvi** Ha mushukcha
- Bong** Voy, namuncha momiqqina bo‘lmasa, raxmat sizga buvijon.

RAQS

- Bong** Buvijon mushukcham qani?
- Buvi** Mana u, ushla uni.
- Bong** Qo‘lga tushdingmi to‘polonchi? Voy charchadim. Senga nima deb nom qo‘ysam ekan-a?
- Buvi** Qani o‘ylab ko‘rchi Bong.
- Bong** Men senga...
- Mushuk** Miu
- Bong** To‘xtab tur, xalaqit berma men senga...
- Mushuk** Miu
- Buvi** Axir sabr qilsang-chi
- Bong** O‘ylab topdim men unga...

Mushuk Miu, miu, miu...

Bong To‘ppa-to‘g‘ri men uni miu deb atayman.

Mushuk Miu, miu.

Buva Uning xursand bo‘lganini qara. Bong sen uni arqon bilan bog‘lab qo‘y, uyga biroz ko‘niksin, bo‘lmasam. Bu chaqqonchang qochib ketishi hech gap emas.

Bong Buvijon, mening unga rosa rahmim kelyapti, balki keragi yo‘qdir.

Buvi Yo‘q Bong. Bog‘lab qo‘y. Bo‘lmasam ana u yaramas kalamushlar bayramni buzishlari turgan gap. U miyovlasa sichqonlar uni ovozini eshitib, qo‘rqib oshxonaga kelishmaydi.

Bong Xo‘p bo‘ladi buvijon. Qani kelaqol.

Mushuk Miu

Buvi Bo‘la qolsangchi... (Buvini tirnaydi)

Bong Miu bu nima qilganing qara buvimni xafa qilib qo‘yding, barakalla meni bu boshqa gap, aqlliliginam.

Buvi Bong, kech tushdi, uyga yuraqol ishimiz juda ko‘p, bayramga ko‘p mazali taomlar tayyorlashimiz kerak.

Mishuk Miu

Bong Bechoraginam, unga rahmim kelyapti, buvijon uni bo‘shatay.

Buvi Yo‘q Bong qo‘rqma unga hech narsa bo‘lmaydi, undan ko‘ra u baland ovozda miyovlasin, bo‘lmasam u bosqinchi kalamushlar hamma yoqni ostin-ustun qilishadi, yur, yuraqol.

Bong Xayr, mushukcham, men tezda qaytib kelaman, xaaayr.

Mushuk Nima uchun men bu yerda turishim kerak (ashula)

Qozon Hayrli kun! Kechirasiz siz kim bo‘lasiz?

Mushuk Fr-r-r!

Qozon Men siz bilan salomlashsamu, siz esa menga choynakka o‘xshab fishillaysan. Uyat, uyat.

Supurgi Hurmatli qozon amaki! Boshingiz xumday bo‘lsa-da, lekin ichi

bilan baxslashgani uyalmay-siz-mi?

- Qozon** Kuling, kulavering qo‘shni. Bu yerga kalamush janobi oliylari tashrif buyursinlar, o‘shanda ko‘ramiz holingizni.
- Mushuk** Ayting-chi, kalamush janobi oliylarining o‘zi kim va nima uchun u bunchalik vahshiy?
- Supurgi** Biroz sabr qilsang o‘z ko‘zing bilan ko‘rasan.
- Qozon** Ha ko‘rasan.
Kelishayapti
- 1-kalamush** Qara mushuk
- 2-kalamush** Ko‘rmisan, bu mushuk emas mushukchaku, buning ustiga u bog‘langan.
- 1,2-kalamush** Bog‘langan, bog‘langan
- 1-kalamush** To‘xtab tur yaramas, zumrasha sening ota-onang yaramas mushuk o‘zing ham isqirt mushukvachhasan.
- 2-kalamush** Hozir bu yerga janobi oliylari tashrif buyursinlar holingga maymunlar yig‘laydi.
- 1-kalamush** Voy janobi oliylari
- General** Kim bu yerda mening nomimni tilga oldi, ishonamanki bu shunchaki bir gap.
- 2-kalamush** Janobi oliylari avf eting.
- 1-kalamush** Janobi oliylari bir qoshiq qonimdan keching.
- General** Xo‘sh, azamatlar, menga ayting-chi, mana bu xumpar qozonda qanday mazali taomlar bor ekan?
- 1-kalamush** Hozir janobi oliylari
- 2-kalamush** Hoziroq
- 1-kalamush** Janobi oliylari
- 2-kalamush** Janobi oliylari
- General** Bittadan
- 1,2-kalamush** Xo‘p bo‘ladi!

- 1-kalamush** Qozon qaynatilgan guruch bilan liq to‘la ekan, yana 1 likopga qovurilgan baliq ham bor ekan...
- 2-kalamush** Baliq esa shunaqa xushbo‘y va mazal, so‘lagingiz oqadi.
- General** Shunaqa degin-a, unda qozonni hoziroq yalab tashlaymiz.
- Qozon** Janobi oliylari! Qancha hoxlasangiz yeyavering, osh bo‘lsin, faqat iltimos meni uloqtirib yubormang, bu yer juda baland men shikastlanishim mumkin.
- General** Nima deding. Hey xumkalla! Bunday ahmoqona iltijolar bilan menga murojaat etishga senga kim ruxsat berdi, uloqtiringlar uni azamatlar, pachog‘i chiqsin.
- 1,2-kalamush** Pachog‘i chiqsin
- Supurgi** To‘xtanglar. Yaramas bosqinchilar! Biz sizlarga nima qilgan edik, namuncha zulm o‘tkazmasangiz, siz esa yaramas kalamush general, qulog‘ingizga quyib oling, sizga ham jazo topilib qolar, hali ko‘rasiz?
- General** Nima menga jazo? Azamatlar, bu shallaqini tezda gumdon qilinglar.
- Supurgi** Tegmanglar-a-a-a.
- 2-kalamush** Janobi oliylari ziyofat tayyor
- General** N-nima
- 1-kalamush** (tayyor) Yoqimli ishtaha
- General** Unda boshladik.
- 1-kalamush** Janobi oliylari! Ruxsatingiz bilan tantanali namoyishni boshlasak.
- General** Nam-oyish b-boshlanglar (namoyishdan keyin) mening erkatoylarim, meni juda xursand etdingiz, boshim osmonga yetdi. Tashakkur. Azamatlar xabaringiz bor, biz bugun oshxonaga tashrif buyurdik, ertaga esa omborni zabt etamiz, yangi yil ham yaqinlashmoqda. Biz bu xonadonda ko‘p marotaba mehmon bo‘lamiz degan, umiddaman.

Mushuk Miu!

General Kim bu?

2-kalamush Mushukvachcha

General Mushuk? U qayerdan paydo bo‘ldi?

1,2-kalamush Bilmadik janobi oliylari!

General Darhol uni keltiringlar

1,2-kalamush Hozir janobi oliylari!

General Hey, namuncha qaltiramasang, qo‘rqma, sening baxtingga bugun kayfiyatim a’lo, shundaymi?

1,2-kalamush Xuddi shunday!

General Sen, 2 kun shu yerlarda o‘ynab yurishing mumkin, agarda seni yana shu uyda ko‘rsam bormi, o‘ligingni botqoqda cho‘ktiraman. Uyga ketdik, oyimni sog‘indim.

2-kalamush Yuraqoling janobi oliylari!

General Botqoqda cho‘ktir...

1,2-kalamush Botqoqda cho‘ktiramiz!

Mushuk Yaramas kalamushlar! Mayli hozircha xursand bo‘la turing, vaqti kelganda yum-yum yig‘laysiz.

Buvi Bong, Bong, qayerdasan? Buyoqqa qara! Bu yaramaslar ovqatlarni paqqos tushurib, hamma yoqni ostin-ustun qilishibdiku. Supurgim qani?

Bong Mushukcham qani, buvijon?

Buvi Uni nima qilasan, sichqonlarni qo‘rqita olmagan mushukning kimga keragi bor?

Bong Buvijon, axir hali u kichkina-ku, qaltirashini ko‘ring bechorani rosa qo‘rqitishibdi.

Buvi Menga qara miu, agar sichqonlari tutmas ekansan, men seni egangga topshirishga majburman, supurgim qayoqqa g‘oyib bo‘ldi. Axir hamma yoq ostin-ustunku.

Bong Miu, beri kel. Nima uchun sen sichqonlari haydab yubormading? Nima? Ular shunchalik qo‘rqinchli-mi? Hamma narsani yeb qo‘yishdimi? Sen qo‘rqib ketdingmi. Bo‘ldi miu o‘zingni bosib ol. Seni hech qachon yakka qoldirmayman. Sen hozir men bilan hovliga chiqasan, mazza qilib o‘ynaymiz, oppog‘im, yumshoqqinam.

II ko‘rinish

Mushuk Salom supurgi xola, kalamushlar sizni qayoqqa uloqtirishdi, buvim sizni rosa axtardilar.

Supurgi Halaqit berma yaramas men ishlayapman.

Mushuk Axir aytasangizchi kalamushlar sizni...

Supurgi Yo‘ldan qoch dedim

Mushuk Axir buvim sizni rosa qidirdilar

Supurgi Qayoqqa, qayoqqa, mana bu yoqqa

Mushuk Siz shunchalik dovyurak ekansiz, nima uchun sichqonlarni kaltaklamadingiz. Nimagaligini bilaman, chunki u qo‘rqadi-da, axir men ham qo‘rqdimku. Hatto ovozim ham chiqmay qoldi. Hechqisi yo‘q, men biroz kattaroq bo‘lay ularning adabini berib qo‘yaman. Men yugurib kelib bir...

Palma Voy kim bo‘ldi bu mushukcha?

Mushuk Bu menman Palma xolla, miu.

Palma Ha senmisan kichkintoy? Qani harakat qilib ko‘rchi shohimga chiqolarmikansan.

Mushuk Hozir...

Palma Voy, voy sekinroq tanamni tirnab yubording-ku, bunday o‘tkir tirnoqlaring bilan sen sichqonlarni tutishing kerak.

Mushuk Sichqonlarni? Raxmat sizga Palma xola.

(qo‘ng‘izni ushlab oladi).

Mushuk To‘xta, to‘xta sen kimsan?

- Qo'ng'iz** Men murg'akkina, beozorgina qo'ng'izchaman, iltimos meni qo'yib yuborsangiz xurmatli mening aybim yo'q.
- Mushuk** To'xta, nima uchun sen yon-atrofga qarab alahsirayapsan menimcha sen sen juda shubhali qo'ng'izchasan.
- Qo'ng'iz** Nimalar deyapsiz, bizdek nimjon, chorasiz qo'ng'izchalar sizdek zo'r, pahlavon mushuklardan qo'rqishimiz darkor. Agar ishonmasangiz qurbaqadan so'rang, u yerda yashaydi.
- Mushuk** To'xta qo'ng'izcha...(uhib ketdi). Qurbaqaning oldiga boraman. Qurbaqa.
- Qurbaqa** Kva-a
- Mushuk** Qurbaqa
- Qurbaqa** Kv va
- Mushuk** Qurbaqa, chiq o'ynaymiz, salom qurbaqa, aytishlaricha siz qurbaqalar osmonning qarindooshlari emishsizlar, chunki bir kuni bir qurbaqa baland ovozda vaqillagan ekan osmon qo'rqib unga tan bergan ekan, shundan beri qurbaqalar vaqillaganda yomg'ir yog'ar emish shu rostmi?
- Qurbaqa** Nima desam ekan, bilmadim men hali juda kichkinaman...
- Miu** Namuncha yig'lamasang bas, nima yoki sen ham qo'ng'izchadek mendan qo'rqayapsanmi?
- Qurbaqa** Shu ham gap bo'ptimi?
- Qo'ng'izcha** Qo'rqsa qo'rqaversin men esa hech narsadan qo'rqmayman, ha aytgan-cha bog'ingizda bir daxshatli kobra yashaydi, hattoki men undan ham qo'rqmayman, kerak bo'lsa u mendan qo'rqsin.
- III namoyish
- Kobra** Yaramas, kel, kelaqol yaqinroq, yana yaqinroq, yana (jang)
- Supurgi** Qozon amaki. Uyg'oning xushxabar.
- Qozon** Nima gap qo'shni?
- Supurgi** Bizning Miu-qahramon, u hozirgina hovlida daxshatli kobrani

- gumdon qildi.
- Qozon** Barakalla azamat! Ayting-chi xurmatli Miu siz endi kalamush-general bilan ham jang qilishga qodirmisiz?
- Mushuk** Bo‘lmasam-chi. Men kalamushni xuddi kobradek adabini berib qo‘yaman.
- Qozon** Qoyil, siz juda ham dovyurak ekansiz, bilasizmi buvimiz bayramga turli-tuman mazali taomlar pishirganlar. Yaxna go‘sh t deysizmi, baliqmi, rang-barang pishiriqlarmi, bay, bay, bay.
- Mushuk** Ayting-chi, qozon amaki bizga ovqatning nima keragi bor?
- Qozon** Bu nima deganingiz. Axir ertaga yangi yil bayrami-ku.
- Mushuk** Yangi yil bu nima degani yil yangi bo‘lganda, yangi yil bo‘ladi.
- Supurgi** Ha, ha, qozon amaki shuni ham tushuntiraolmadingiz, axir bu mushukcha kichkina bo‘lsa...
- Mushuk** To‘xtanglar! Esladim bu yaramas general-kalamush ayni yangi yil kechasi bostirib kelamiz degandi. Bu gal aziz mehmonlarni xurmati joyiga qo‘yib kutib olamiz. Sizlar menga yordam berasizlarmi?
- Qozon-** Albatta!
- Supurgi** -----?
- Mushuk** Hamma o‘z joyini egallasin. Qiziq, ularga kuchim yetarmikan. Axir u juda vaximali askarlari ham juda ko‘p. Kech tushdi. Barcha odamlar uxlab yotishibdi. Hechqisi yo‘q, men o‘z do‘stlarimga ishonaman.
- 1-kalamush** Bayramga hamma narsa tayyor!
- 2-kalamush** Hididan mast bo‘lasan-a?
- 1-kalamush** Ko‘raylik-chi qozonda nima bor ekan.
- 2-kalamush** Ko‘ramiz!
- 1-kalamush** Voy mushuk
- 2-kalamush** Ey, bu o‘sha mushukvachchaku. Qo‘rqma!
- 1-kalamush** Qo‘rqqanim yo‘q!

- 2-kalamush** Kel uni g‘ajib tashlaymiz.
- General** Yana nima balo bo‘ldi?
- 1-kalamush** Bizni kamsitishdi!
- 2-kalamush** Bizni haqorat qilishdi
- General** Kim jur‘at etdi?
- 1,2-kalamush** Mushukvachcha
- General** “ _____ ”
- Mushuk** Menga qara ey galvars kalamushcha
- General** Nima-a-a?
- Mushuk** Men hozir sening joningni olaman.
- General** Jonimni olasan qani, azamatlar olg‘a, (jang).
- Buvi** Bong, qizalog‘im qara ana u yerda kattakon bir kalamush o‘lib yotibdi. Uni kim o‘ldirdi, bilmaysanmi?
- Bong** Bolalar kim? (Miu) Miu shu rostmi? Do‘stlaring bilan birgami? Yashavor sen haqiqiy qahramonsan. Jasorating uchun mening senga ajoyib bir sovg‘am bor. (Bong) voy yarashganini, endi bayramga chiqishing mumkin, to‘g‘rimi buvijon?
- Buvi** Miu, qara bugun bu zalda qancha bolajonlar yig‘ilishgan bayramga kelishgan, ular bir-biridan orasta, chiroyli va senga o‘xshagan dovyurak bo‘lsalar kerak.

Dinara Yoʻldosheva

Bogʻcha bolalari va kichik sinf oʻquvchilari uchun ertak

"MIYOVLAGAN KIM BULDI?"

(Bir parda, ikki koʻrinishli musiqiy ertak)

QATNASHUVCHILAR:

Mushukcha

Kuchukcha

Sichqoncha

Babaq - Xo‘roz

Qurbaqa

Baliqcha

Ari

It

Birinchi parda

Birinchi ko‘rinish

Oddiy mo‘jazgina xona. Divan yoniga to‘shalgan kichkinagina gilamchada kuchukcha mudrab yotibdi. Atrofga alanglaganicha sekin yurib mushukcha kirib keladi.

MUSHUchya: Yugurib rosa tolgan,
Tagiga gilam solgan.
CHo‘zilib yotib olgan,
Erkatoy kuchukcha-yey!
Yunglari yaltiragan,
Shirintoy boyvachcha-yey!
Shu bilan o‘ynasam-miyov!
Atrof go‘zal voy-boyov
Bir o‘zim quvnasam-miyov!
Qoyilmaqom voy-boyov!
Uyquchi mazah bo‘lar,
Hammasi undan kular.
Alamdan burnin tishlab,
Dumidan yungin yular!
Tantiqvoy kuchukcha-yey!
Taltaygan Do‘ndiqcha-yey!
Atrof go‘zal voy-boyov
Qoyilmaqom voy-boyov.

MUSHUKCHA: - Miyov! Miyov! Xo‘ uyquchi yalqov! Yalpayib yotishlarini-chi!

Uxlayver! Dunyo bexabar! Voy-bo-yov!!! (ketadi)

KUCHUKCHA: - (uyqu aralash) Xayolimda kimdir bir nima deganday bo‘ldim-a?! Menimcha... “miyov” dedi shekilli... YO voy-boyov dedimi? Kim bo‘lishi mumkin? Nima uchun men uni tanimayman?!

Kim halal berdi menga,
Ko‘rsatib kuyay senga!
“Miyov”degan chiq baqqa,
Tishlab otaman aqqa!
Yog‘li qiyma ko‘rgandim,
Endi yarmin yegandim.

Ap! Ap! Ap!

Shirin tushim buzildi,
Qok yarmidan uzildi!!!

Ap! Ap! Ap!

Qayga bekinib oldi?

Nega yo‘qolib qoldi?

Javondayam yo‘q ekan,

Urgani-chi do‘q ekan!!

Ap! Ap! Al!

Stol tagin ko‘ray-chi,

Xo‘sh, gilamni o‘ray-chi?

Ap! Ap! Ap!

“Miyov” degan kim bo‘ldi?

Sabr kosam ham to‘ldi!!!

Ap! Al! Ap!

Sekin eshik ochgandir,

Tashqariga qochgandir.

Albat seni topaman,
Tishlab-g'ajib qopaman!!!
Ap! Ap! Ap!
(Chopib tashkariga chikib ketadi.)
(sahna qorong'ilashadi)
Ikkinchi ko'rinish

Yog'ochdan qurilgan uy oldidagi hovli. Bir chekkada yog'ochdan yasalgan it katagi. Hovli o'rtasidan ariq o'tgan. Yon tomonida ko'lmak suv. Ariq va ko'lmak atroflarini yashil o't hamda qamchilar o'rab olgan. Uydan chiqaverishdagi zinapoya oldida kuchukcha paydo bo'ladi. Hovlida savlat to'kib Babaq xo'roz don cho'qilab yuribdi.

KUCHUKCHA: - (Xo'rozga) Assalomu alaikum! (U javob bermaydi.)

Hoy! Xap-xap!!! Sizga salom, deyapman!

XO'ROZ: (kekkayib) Salom! Salom! Nega baqirasan, kar emasman!

KUCHUKCHA: Ay!!! Kechirasiz... E... Kechirasiz! Anaqa... haligiday... Mabodo siz... "miyov" ...demadingizmi? A?

XO'ROZ: (zaharxanda, kulib) Nima men... haligi "miyov" deydiganlarga o'xshaymanmi-a? Horzir kulgidan ichagim uzilib, dumalab tushaman! Qat-qat-qat!!!

Vey, buni tovuqxonlar eshitmasin-a, tovuqxonada duv-duv gap bo'lib ketadi-ya?! Quv-quv-quv!

KUCHUKCHA: Siz mendan xafa bo'lmang. Kimdir "miyovlab" uyqumni buzib yubordi. O'shanga...

XO'G'OZ: Uyg'otvordi de? Agarda uyg'otgan bo'lsa, bu mening kasbim bo'yicha ekan. Ana endi mening kimligimni bilib ol, shumtaka!

Bug'doy donin terib yeyman,

Tongda doim "turing" deyman.

Mana bundayin sozim,

Bor jarangdor ovozim!

Qu-qu-qu! Qu-qu-qu!

Ertalabdan hamma ishga,

Shoshilishar yumushga.

Shu tufayli muhim ishim,

Javobgarman yozu qishin

Qu-qu-qu! Qu-qu-qu!

Eh, shunaqa, shunaqa!

Shunaqa-yu, bunaqa!

(Lo'lilar raqsga tushib ketadi.)

XO'ROZ: (Raqsdan keyin nafasini rostlab) Yodingdan chiqmasin, jinqarcha. Xo'rozlar faqat qichqirishadi, bilding?!

KUCHUKCHA: Aha, Chiq-chiqirishadi! Ayy, qichqirishadi! Bilding?

XO'ROZ: Bildingni, aytmaisan, bilding?!

KUCHUKCHA: Bilding! Rah-rah-mat! Katta rahmat! (hafa holda)

XO'ROZ: Juda soz! Unda yaxshi bor, Gud-bay! Xo-ro-sho!
(reklamadagidek)

Kxm, Kxm! Xoro-sho! Mana bu boshqa gap! (ketadi).

MUSHUKCHA: (panjara ortidan mo'ralab) Miyov! Miyov! Voy esi past, dumbul-yey! Qani meni bir topib ko'rchi?! (Bekinadi)
Miyov!!!

KUCHUKCHA: Voy tovba, ash shabi hijron tovba! Yana kimdir "miyov"
dedi-da? Menimcha... mana panjara tagidan chiqdiyov,
o'sha ovoz!

(U irillaganicha yerni oyoqlari bilan kovlay boshlaydi)

(To'satdan sichqoncha, chiyillaganicha paydo bo'ladi.)

- SICHQONCHA:** (qo‘rqa-pisa) Voy, chiy-chiy! Yana, chiy-chiy!
- KUCHUKCHA:** Ii! Ee! Uu! Kim-kim-san?!
- SICHQONCHA:** Men, haligi... anaqa... chiy... chiy!
- KUCHUKCHA:** Haa, isming chiy-chiymi? G‘alati ekan?
- SICHQONCHA:** E yo‘q! Mening ismim, sich-qon-cha!
- KUCHUKCHA:** Xa-a-a, sichqonvoy degin?
- SICHQONCHA:** (tarillatib) Men sichqoncha, nimjongina, ko‘kimtirman, mana shu panjara tagida yashayman - Ikki dona tishim yo‘q, birov bilan ishim yo‘q! Novdani hech egmanglar, menga sira tegmanglar! Yana...
- KUCHUKCHA:** Bo‘ldi, bo‘ldi, bo‘ldi! Voy-vu! gapniyam nog‘oraday chirillatvording?! Men seni sirayam xafa qilmoqchi emasman. Bir narsani bilib olmoqchiman, xolos! Xozirgina “miyov” degan senmiding-a?!
- SICHQONCHA:** (Bekinib) “Miyov!” Aniq eshitdingizmi?
- KUCHUKCHA:** Xa, aniq! To‘xta-to‘xta, nega bekinib olding? Voy, dumingning titrashini qara?
- SICHQONCHA:** Ana shunaqa, mabodo validolingiz yo‘qmi? E yosh bolada validol nima qiladi! Haligi ovozni, juda yaqindan eshitdingizmi?
- KUCHUKCHA:** Ha, juda yaqindan. Menimcha shu atrofdan eshitildi-yov!
- SICHQONCHA:** Voy-voy-voy! Chiy-chiy-chiy!
- KUCHUKCHA:** (sabri tugab) Seni nima jin urdi o‘zi? Nega hadeb, chiy-chiy qilaverasan-a?!
- (Sichqoncha inidan chiqib, ashula aytadi.)

Menman, nimjon sichqoncha,
 Kurdim kichik qo‘rg‘oncha.
 Qarang ikkita tishim yo‘q,

Birov bilan ishim yo‘q!
Sich-sich-sichqoncha,
Qurdim kichik qo‘rg‘oncha!
Shitirlagan ovoz kelsa,
Uvullagan shamol yelsa.
Qo‘rquv bosadi zumda,
Ko‘rasiz meni humda.

Sich-sich-sichqoncha,
Qurdim kichik qo‘rg‘oncha!
“Miyov” so‘zi yoqmas sira,
Ko‘z oldim tez bo‘lar xira.
Bekinishga juda qulay,
Inimga tez kirib olay!

Chiy-chiy-chiy!!!

(Chiyillaganicha iniga kirib ketadi.)

KUCHUKCHA: Ey-ey! Qayoqqa ketib kolding, sichqonvoy! Voy tavba, nimadan bunchalik qo‘rqib ketdi-a? Tushunmadim?

Bilmadim, bilolmadim... Ap! Yo‘g‘ye... Aaa.. Xap – xap!!!

MUSHKCHA: (Itning katagi ortidan mo‘ralab) Xa-ha-ha! Miyov! Miyov!
(chetga) Hozir nima bo‘lishini ko‘ramiz! (kulib) Bunisi endi azizim, senga Sichqonvoy emas! Ha – ha – ha!
Fantomas bo‘p kete!!!,(ketadi)

KUCHUKCHA: (chiqib) Ha – a – a, hozir qo‘limga tushasan-u! (bekinadi)
Qayerga bekinganingni ana endi bilib oldim...

(Katak ichidan chiqib turgan dumni tishlab torta boshlaydi)

Qani chiq-chi! Chiq deyman, yaramas, qo‘rqoq! Chiq, aldamchi!

(Katakdan kattakon it chiqib keladi.)

Kuchukcha angillaganicha o‘zini chetga oladi.

IT: (Jahl bilan irillab) R-r-r vov!

KUCHUKCHA: Voy! Chekirasiz! E-e-e, xah tilim qursin, kechirasiz! Men... haligi... anaqa... bilmoqchiydim, xolos! Anaqa... mobodo... “miyov!” degan sizmasmidingiz?

IT: Nimalar deyapsan? Men.. - men... “miyov!” deymanni, kelib – kelib men-a? Kelib-kelib men-a? Esingni yedingmi itvachcha!!! Nima, ustimdan kulayapsanmi? R-r-r!!

KUCHUKCHA: Xay-hay-hay!!! A-a-a!

IT: Yana bir qaytar, g‘ajilmagan to‘piqcha!!!
Yo‘q-yo‘q-yo‘q! Siz meni tushunmadingiz, Men... haligi... anaqa! Adashib ketdim!!!
(Ortga tisarilayotganida yiqilib tushadi,, It uning tepasida g‘olibona tarzda turib)

IT: Menday zotdor jonzotga, hurmatsizlik qilishga qanday jur‘at etding! Itdan tarqagan!!!
Meni ko‘p xafa qilding,
Noma‘qul tamg‘a ilding!
Bilmasang sen bilib ol,
Qulog‘ingga ilib ol!
Itidir insonning do‘sti,
Katakdir uning “post”i.
Xavf-xatardan saqlaydi,
Xizmatini oqlaydi!
Donolar bilib aytgan,
Shaytondir, yetti qaytgan.
Agar kilsang, sen vafo,
Tortmaysan, aslo jafob!!!
(Dilorom! Dilorom! Sen malika, men G‘ulom! – usulida tango!)

(O'sha usulda ular o'yinga tushadi. Uyin oxirida it kuchukchani chetga uloqtiradi.)

KUCHUKCHA: Bo'ldi-bo'ldi! Hammasini eslab koldim! Boshqa qaytarilmaydi, bratan!

IT: Shunaqa bo'lsin, bratishka! (Iniga kirib ketadi.)

KUCHUKCHA: Xaa-a! A, hayot, hayot! E, mana buning kuni, hech kimning boshiga tushmasin-a! (Boshini quyi solib keta boshlaydi.)

MUSHUKCHA: (Shox-shabba orasidan mo'ralab) "Miyov" Miyov! (chetga) Ta'ziringni yedingmi? Yurakni qara, "Chumchuq pir etsa - yuragi shir etarkan"! Xo'shshsh... davom etaylik-chi! O'yinimiz nima bilan tugar-kin! (ketadi.)

KUCHUKCHA: (Shox-shabba oldiga kelganida, ariga duch keladi.) Hap-xap, a-a-a hali senmiding, meni laqillatayotgan! Hozir ta'ziringni berib qo'yaman! Bo'yningga ol, "miyov" degan senmiding?! (ushlamoqchi bo'ladi).

ARI: (Undan qochib) Qo'pol ekansan! J-jo'-ra!!! Namuncha joningni j-jab-bor-ga ber-rmasang! Baribir ushlay olmaysan!

KUCHUKCHA: (Jahli chiqib) Nimaga endi ushlay olmas ekanman? Shakari yo'k, yo'l-yo'l sariq orbit! Qani aytchi, "Miyov"lagan senmiding, a?!

ARI: Xo'p, aytganim bo'lsin. Lekin bir shartim bor!

KUCHUKCHA: Hap-hap! Qarangga, hali bu jinqarcha, menga shart ham ko'yadilar!

ARI: Unda xayrr! Omon bo'lgin j-jo'-r-ra!

KUCHUKCHA: I-i-i! Hoy, qayoqqa? Bo'pti-bo'pti, shartingga ko'nganikm bo'lsin!

(Ari ortiga qaytadi. Kuchukcha uni yana ushlamoqchi

bo'ladi.)

ARI: Bunaqasiga kelishmovdik, hoy g'irromchi? Lekin mayli, seni kechirganim bo'lsin. O'zimga yaqin olib, hato qulog'ingga ham qo'naman!

KUCHUKCHA: Bor-yo'g'i shu xolosmi? Unda roziman!

(Ari uning atrofida aylanib uchib, qo'shiq kuylaydi.)

Erta-yu kech uchaman,

Gulzorlarni quchaman

Misqollab asal yig'ib,

Men baxtimni ochaman!

Vz-vz-z! Vz-vz-z!

Tinmay mehnat kilaman,

Vaqt qadrini bilaman.

Tanbalu yalqovlarni,

Juda yomon ko'raman!

Vz-vz-z! Vz-vz-z!

Ishlamay-tishlaydigan,

Hech vaqosiz qoladi,

Jig'imga tekkanlar-chi,

Jazosini oladi!

Vz-vz-z! Vz-vz-z!

(Ari uning qulog'ini chaqib oladi. Kuchukcha vangillaganicha o'zini ko'lmakka tashlaydi.)

MUSHUKCHA: - (chetga) Miyov! Ha-ha-ha! Qalaysan? Bu tomoshadan kulaverib hozir ichaklarim uzilib ketadi. Voy suvda bo'kkan, bo'lka!!! Xo'sh, men bilan yana o'ynaging kelayaptimi-a?! Miyov! Miyov!!! (Ketadi)

KUCHUKCHA: (Suvda shaloplaganicha boshi ko'rinadi. U suvda baliqcha bilan uchrashib qoladi. O'sha aktyorning o'zi, baliqchani

ham o‘ynashi mumkin).

A-a-a! Mana endi bilib oldim, kimning miyovlaganini? Sen ham mana shu ko‘lmakda yashaysanmi yoki yonidagi ariqzordanmisan? Men bo‘lsam seni qachonlardan beri qidirib yuribman-a! Qani aytchi, burnimdan ip o‘tkazib yetaklab yurgan sanmisan? E – e – e sanmisan?! (Baliqcha uning burniga yopishib oladi.) E – e – e, hazillashma! Burnimni qo‘yvor! Men u gapni, anaqa... obrazniy qilib gapirgandim axir! Shuniyam tushunmaysanmi?! Gapir! YO men bilan “Indamas” o‘yinini o‘ynayapsanmi? Bunaqasi ketmaydi. Hozir men seni!..

(Baliqcha qochib ketadi.)

(Kuchukcha qirg‘oqqa chiqib, bir silkinib oladi, unga baqa duch keladi).

BAQA:

Vaq – vaq – vaq! Vaq – vaq – vaq! Qani menga boq!
(ashula aytadi.)

Sodda-laqma kuchukcha (exo) – kuchukcha – chukcha!!!

Aqling bormi tariqcha,

ariqcha-ariqcha!

Unga sen bo‘lma xira,

xira-xira!

Baliq gapirmas sira,

sira-sira!

XOR:

Vaq-vaq-vaq!

Atrofingga boq!

Barcha baqaning,

dimog‘lari choq!

Oshyonimdir ko‘lmak suv, (exo) suv – suv!

Ham donoman, ziyrak, quv – quv – quv!

- Ko‘shiq aytaman tunda, tunda – tunda!
Muxlisim ko‘pdir bunda! bunda – bunda!
- XOR:** Vaq-vaq-vaq!
Atroffingga boq!
Hamma do‘stlaring,
Dimog‘lari choq!
- BAQA:** Endi tushundingmi, lapashang! Ho‘shal pang!
- KUCHUKCHA:** Aha! Aytganday, boyagi “Miyov” degan sizmasmidingiz?
- BAQA:** Voy-voy! U qovoq, hozirgina senga aytdim-a
“Vaq-vaqa to‘ram” ashulasini bundan keyin, u qulog‘ing bilan ham, bu qulog‘ing bilan ham eshitib ol. Baqalar hamisha vaqillaydi! (U suvga sakraydi.)
- KUCHUKCHA:** A-ha, ular faqat laqillaydi... ayyy... vaqillaydi! Buni bilganimdan nima foyda. Axir kimdir baribir “miyov” dedi-ku! To‘g‘rimi?
- MUSHUKCHA:** (Buta orasidan chikib) To‘g‘ri! “Miyov”!
- KUCHUKCHA:** Aha, “Miyov”! Yashavor! Xo‘sh ayt-chi, “Miyov!” degan kim o‘zi? Kim o‘zi – yo, kim o‘zi? Mabodo sen bilmaysanmi – a? “Xurpaygan tuk!” Hazil!
- MUSHUKCHA:** Nega bilmas ekanman, bilaman! “Miyov!” degan men bo‘laman! Yaqinda birga to‘laman!!!
- KUCHUKCHA:** (og‘zi ochilib) Sen-a-a-a!?
- MUSHUKCHA:** Ey-yy! Og‘zingni yop; bo‘lmasa pashshalar urug‘ – aymog‘i bilan joylashib olishadi. Nima balo, jag‘ingni oshiq – moshig‘i buzilib qoldimi?
Eyy, xop-yop! Xop-yop!
- KUCHUKCHA:** (O‘ziga kelib) Sen kimsan o‘zi-a? Insmisan – jinsmisan?!
Xap-xap!!!
- MUSHUKCHA** (Parvosiz) Voy, qo‘rqib ketdimey! Xah! Sherqo‘zi bo‘p

keta! Fuft! Men yo‘lbarlar sulolasini davom ettiruvchi, mushukvoy bo‘laman!

KUCHUKCHA: Bu kishi hali sulayishniyam biladi! Xe o‘rgildim! Xap-xap-xal!!!

Hali senmiding, ustimdan kulib, kun bo‘yi meni ovora qilgan! Ana endi seni hozir “zapchast” qilib tashlayman! Xap – xap!

MUSHUKCHA: (Fishillab) Meniyam jaa shalviragan, lapashang deb o‘ylama, shaulin usullarini bilaman, xaa!!! Frr!

KUCHUKCHA: Voy shavlachi-yey! Hali meni basharamni tirnamoqchimisan? Tirnog‘ing hali yaxshi qotmabdi, ha, o‘zingga qara lekin!?

MUSHUKCHA: (jahlidan tushib) Umuman sen bilan o‘ynamoqchi edim... Shunaqa...

KUCHUKCHA: (araznamo) Shunaqa qilib o‘ynaydimi o‘rtoq, seni qara-yu!

MUSHUKCHA: Sal oshirvorgan bo‘lsam, meni kechir o‘rtoq. Mrrr!

KUCHUKCHA: Hay... qo‘ymading – qo‘ymading – da. Mayli, kechirdim!

MUSHUKCHA: To‘g‘risini ayt, o‘rtoq, umuman bopladimmi-a?!

KUCHUKCHA: Hecham boplaganing yo‘k! Ha aytganday menga bir qara-chi:

- Ko‘rinishim rosa kulgili bo‘lsa kerak-a?

MUSHUKCHA: Miyov-klass!!! Ko‘rinishing juda yaxshi. Keyin bugunning o‘zidayoq sen qancha yangi narsalarni o‘rganding, to‘g‘rimi?

KUCHUKCHA: To‘g‘ri aytasan. Haqiqatan ham ko‘p narsalarni o‘rgandim!

MUSHUKCHA: Unaqada kel, do‘stlashamiz!

KUCHUKCHA: Men roziman. Lekin hali qanaqa qilib do‘stlashishni bilmayman!

MUSHUKCHA: Bu judayam oson, hozir biz ikkalamiz butun hovlini aylanib

chiqib, shu yerda yashayotganlarning barchasi bilan do‘stlashib chiqamiz. Biraligda o‘ynaymiz, bir – birimizga ko‘maklashamiz!

KUCHUKCHA: Ko‘p sirlarni bilamiz,
Birga dars ham qilamiz!
(Ular qo‘shiq aytib o‘ynashadi.)

KUCHUK: Hamma inoq do‘st bo‘lsa,
Olam shodlikka to‘lsa.

MUSHUK: Xurmatlab bir – birini,
Bo‘lishsa og‘a – ini!

IKKALASI: Yurishlar g‘oz ko‘ngilda yoz,
Qandayin soz, qandayin soz!

XO‘ROZ: (kelib)
Deyishar meni babaq,
Bolalar oling saboq.
Kizil toj, bo‘yi daroz,
Kerilib yurgan xo‘roz.
Qanaqa qichqiradi?

BOLALAR: Ku-ku-ku! Ku-qu-ku!

BAQA: (kelib)
Meni atashar... naqa...,
Ha, esimga tushdi... Baqa!
O‘ylab ko‘ring-chi, bundoq,
Sayrayman o‘zi qandoq!?

BOLALAR: Vaq-vaq-vaq! Vaq-vaq!

ARI: Kun bo‘yi uchib g‘iz-g‘iz,
Kuylayman doim ...

BOLALAR: Vzz-vzz-vzz!

IT: (kelib)

Doim hovlida yurar,
Ayting, u qanday hurar?

BOLALAR: Vov! Vov! Vov!

SICHQON: Kichkina kulrang o‘zi,
Munchoqdek ikki ko‘zi.
Shovqindan u norozi,
Ayting kandoq ovozi?

BOLALAR: Chiy-chiy-chiy!

HAMMA: Hamma inoq do‘st bo‘lsin,
Olam shodlikka to‘lsin!
Hurmatlab bir-birini;
Bo‘lishsin og‘a-ini!!!

KUCHUKCHA: Yurishlar g‘oz, ko‘ngilda yoz,
MUSHUK: Qandayin soz, qandayin soz!!!
(Hamma ta’zim bilan bolalarni kuzatib qo‘yishadi.)

N.Qobilov

“O‘tkir tishli kuchukcha”
(qo‘g‘irchoq teatri uchun pyesa)

QATNASHUVCHILAR:

Kuchukcha

Mushukvoy

Xo‘roz

Tovuq

Jo‘jalar

G‘oz

O‘rdak

1-qush

2-qush

1-kapalak

2-kapalak

Hovli. Tong. Qushlarning sayrashi eshitaladi.

Kuchukcha- (inidan chiqadi) Voy-bo‘! Kun yorishibdi. Quyosh uyg‘onibdi. Qushlar sayrayapti. Maysalar shivirlayapti. Qanday yaxshi. Ajoyib! Bir-rr! Salqin ekan. Sovqatdim... Ozgina yugurib olsam isib ketaman (yuugura boshlaydi).

Nega hovli jim-jit. Nega hech kim yo‘q? Uxlashayaptimi? Shunday paytda-ya? Uxlamay to‘yib-to‘yib nafas olish kerak. (Baqirib) Hoy turinglar! Inlaringdan chiqinglar. Hovlini to‘ldirib, birgalashib o‘ynaymiz. Ko‘zlaringni ochinglar. Inlaringdan chiqinglar o‘ynaymiz!

G‘oz - (inidan bosh chiqarib) Kim u, tong sahardan shovqin-suron ko‘tarayotgan?

O‘rdak - Nega baqirayapsan, zumrasha?

Kuchukcha- Turinglar? Quyoshga qaranglar. Maysalarni ko‘ringlar. Qanday yaxshi kun boshlandi... Chiqinglar hovlida, o‘ynaymiz!

(Hovlida shovqin boshlanadi)

G‘oz - Ovozingni o‘chir! Boshqa akillama!

O‘rdak – O‘yinqaroq bezori. Tong otdi deb, hammani bezovta qilish shartmidi?

Xo‘roz – Tag‘in uxlab qolibman-a!

Tovuq – (jo‘jalarga) Jim bo‘linglar bolalar. Shovqin ko‘tarmaglar. Tarbiya ko‘rmagan bolalargina, ertalab sho‘vqin solib, hovlini boshiga ko‘taradi. Sizlar tarbiyako‘rgansizlar. Shovqin ko‘tarmanglar.

Xo‘roz – (tovuqqa) Nega meni uyg‘otmading. Tong paytida yana uxlab qolibman-ku!

Tovuq – (jo‘jalarga) Jim bo‘linglar, bolalar. Jim deya pman!

Xo‘roz – Ming marta tayinlayman senga, ertalab meni uyg‘ot, deb. Qulog‘ingda gap turadimi, yo‘qmi? Sharmanda qilayapsanku meni.

Kuchukcha- Nega inlaringdan chiqmayapsizlar? Tong otganiga ancha bo‘ldi.

G‘oz - (kuchukchaga) Jim bo‘l. Yana shovqin ko‘tarsang ta‘ziringni berib qo‘yaman, bezori.

O‘rdak - Tarbiyasiz!

Kuchukcha- Men hech kimni xafa qilmoqchi emasman, sizlar bilan o‘ynamoqchiman.

Xo‘roz - (qichqiradi) Qu-qu-ri-ku! Tong otdi! Qu-qu-ri-qu!

G‘oz - (xo‘rozga) Endimi. Tush paytida qichqirsang ham bo‘lardi.

O‘rdak – Xo‘rozni hovlidan haydash kerak. Vazifasini unutib qo‘yibdi.

Xo‘roz – Sening ishing bo‘lmasin yassi panja. Qu-qu-ri-qu!

G‘oz - Hammalaring ovozlarini o‘chiringlar! Jim bo‘linglar.

Kuchukcha- Xohlamasangiz o‘zingiz bilasiz. O‘zim bilan o‘zim o‘ynayman... Yo‘q bunaqa o‘yinning qizig‘i yo‘q. Hamrohing bo‘lmasa, o‘ynaganday bo‘lmas ekansan. Endi nima qilsam ekan-a? Ana kapalaklar. Hoy kapalaklar, men sizlar bilan o‘ynayman.

1-kapalak – Dugonajan, ehtiyot bo‘l! Tishi o‘tkir kelayapti.

2-kapalak – Qoch, dugonajon, panjasiga tushsang ezib tashlaydi.

Kuchukcha- To‘xtanglar. Men sizlar bilan o‘ynamoqchiman.

1-kapalak- Sen bilan o‘ynamaymiz, tishlaring o‘tkir. Qopog‘onsan.

2-kapalak- Sen xavflisan. Qochamiz dugonajon.

1-kapalak- Qochamiz.

(Ketishadi.)

Kuchukcha- O‘ynamasanglar, o‘ynamanglar, sizlarga zor emasman. Ana qushchalar, yer titkilashib yurishibdi. Ular bilan o‘ynayman.

1-qush - Voydod! Yordam beringlar!

2-qush - Bizlarni qopib olmoqchi. Yordam beringlar!

Kuchukcha- Qopmoqchi emasman, o‘namoqchiman.

1-qush - Sen bilan uynaymiz.

2-qush - O‘ynamaymiz.

1-qush - Ket! Halaqt berma.

2-qush - Ket, sen qopog'onsan.

(uchib ketishadi)

Kuchukcha- Nega hech kim men bilan o'ynashni xohlamayapti? Qopog'onsan deyishadi, hechamqopog'on emasman. Quyosh uyg'ondi. Maysalar shivirlayapti. Havo yaxshi, menikim bilandir o'ynagim kelayapti. Judayam-judayam o'ynagim kelayapti. Ana kimdir oftobda toblanib yotibdi. Hozir boramanda uyg'otaman, keyin ikkovimiz umbaloqoshib o'ynaymiz. (Kuchukcha mushukni yoniga kelib, uning atrofida sakray boshlaydi).

Mushuk- Qorning og'riyaptimi?

Kuchukcha- Yo'q.

Mushuk – Nega atrofimda hansirab sakrayapsan?

Kuchukcha- Seni uyg'otmoqchiman.

Mushuk- Nimaga?

Kuchukcha- Birga o'ynaymiz.

Mushuk- Meni taniysanmi?

Kuchukcha- Yo'q.

Mushuk- (o'rnidan turib vahima bilan) Mi-ya-v! P-x-x-x!

Kuchukcha- Voy!

Mushuk- Endi tanidingmi? Hech zamonda, mushuk bilan itni o'ynaganini ko'rganmisan?

Kuchukcha- Yo'q.

Mushuk- Bundan keyin ham ko'rmaysan, bor ishingni qil.

Kuchukcha- Meni judayam o'ynagim kelayapti.

Mushuk- Meni uyqum kelayapti.(yastanib yotib oladi).

Kuchukcha- Sut ichishni hohlamaysizmi?

Mushuk- Sut?!

Kuchukcha- Keyin ikkovimiz o'ynaymiz. Men hozir. (idishda sut olib keladi) Marhamat iching.

Mushuk- Itni tarbiyasida, kuchukchani halitdan qing'ir ishlarga o'rgatadi. Ahmoq! Ittekkani narsani mushuk yalamaydi.

Kuchukcha- Men it emasman.

Mushuk- Qiziq, bo'lmasa kimsan?

Kuchukcha- Men hali kuchukchaman.

Mushuk- Bari-bir. Bir kun itga aylanasan. Sizlarni bilamiz yoshliklaringda muloyim bo'lasizlarda, kattarib tishlaring chiqqach qopasizlar.

Kuchukcha- Qopmayman! Men hech qachon hech kimni qopmayman.

Mushuk- Qopasan, qopasan. Menga suting kerakmas, olib ketaver.

Kuchukcha- Nega kerakmas deysiz? Sut mazali bo'ladiku?

Mushuk- Sut yaxshiku-ya! Ammo vaqti kelib, men mushukni sut berib boqqanman, katta qilganman, deb maqtanishing yomon.

Kuchukcha- Hecham maqtanmayman.

Mushuk- Maqtanasan! Siz itlarni bilamiz, juda yaxshi bilamiz, dumingiz likkillashi bilan va'dangizni unutasiz. Dumingizni tintimsiz likkillashini hisobga olsak, va'dangiz hech qachon esingizda turmaydi, degan hulosani chiqadi.

Kuchukcha- Mayli men ketdim. (keta boshlaydi).

Mushuk- Qayoqqa?

Kuchukcha- Sutni to'kib tashlayman.

Mushuk- To'xta! Oqlikni to'ksang kasofati uradi. Sutni yerga qo'y. O'zing teskari qarab tur! (Kuchukcha teskari qaraydi. Mushuk sutni icha boshlaydi). Nega irillamayapsan?

Kuchukcha- Chunki irillagim kelmayapti.

Mushuk- Irillaging kelmasa ham irilla.

Kuchukcha- Nega?

Mushuk- Shunday qilish kerak!

Kuchukcha- Nimaga?

Mushuk- Nimaga-nimaga. Chunki sen itsan men mushukman. It bilan mushuk doim bir-birga irillashadi, tushundingmi?

Kuchukcha- Irillamayman!

Mushuk- Bo‘lmasa hur.

Kuchukcha- Hurgim kelmayapti.

Mushuk- Irillaysan yoki hurasan! Bo‘lmasa sutingni ichmayman. Ko‘rganlar nima deb o‘ylashadi, mushuk itga yalinibdi deyishmaydimi?! Bunday gap so‘zlarga yo‘l qo‘ymayman. Men mushukman, mushuklar mag‘rur bo‘lishadi! Hurib tursang boshqagap. Ko‘rganlar mushuk, itni sutini tortib olibdi deyishadi. Bu gapga chidash mumkin, tushundingmi?

Kuchukcha- Tushundim.

Mushuk- Tushungan bo‘lsang boshla. Faqat balandroq ovozda irilla, hamma eshitsin. (Kuchukcha irillaydi, mushuk sutni shoshmay ichadi). Yog‘li sut ekan. Maza qildim. Irillashni bas qil! Endi bor ovozda hurib menga tashlan.

Kuchukcha- Nimaga?

Mushuk- Men qochaman, sen quvasan.

Kuchukcha- Demak, ikkalamiz o‘ynaymiz... Qanday yaxshi!

Mushuk- Sen uchun o‘yin, boshqalar uchun obro‘.

Kuchukcha- Sen juda yaxshi mushuk ekansan.

Mushuk- Yana dumingni likillatayapsami?

Kuchukcha- Yo‘q dumim likillamayapti.

Mushuk- Vaqtimni olma hursang-hura qol. Men qochaman. Faqat ehtiyot bo‘l, qopib olma. (Mushuk qochadi, kuchuk quvlaydi).

Tovuq- Bolalar ehtiyot bo‘linglar, meni orqamga bekininglar! (Mushuk bilan kuchuk quvlashib o‘tib ketshadi). Ko‘rdinglarmi bolalar birovni haqini tortibolsanglar, mushukni holiga tushasizlar. Tarbiya ko‘rganlar bunday qilmaydi.

Xo‘roz- Mushuk o‘g‘ri, eshitmadim demanglar, mushuk o‘g‘iri.

Tovuq- Bolalarim qulog‘ingizda bo‘lsin, tishi yoki tirnog‘i o‘tkirdan uzoqroq yuringlar. Ular xavfli.

Xo‘roz- Mushuk bezbet, kuchukni sutini tortib oldi.

Mushuk-(baland yerga chiqib olib) Hoy qizil tojli tovuq, qo‘limga tushsang patingniyulib olaman.

Xo‘roz- Tovuqmasman, xo‘rozman, xo‘roz.

Mushuk- Xo‘rozmassan, aslida tovuqsan. Qizil tojni qo‘shni xo‘rozdan qarzga olgansan. Boshqalardan yashirib ovloq yerda tuxum tug‘asan.

Xo‘roz- Yolg‘on! Xo‘rozman haqiqiy xo‘rozman. Pastga tush xo‘rozligimni isbotlayman.

Tovuq- (jo‘jalarga) Bolalar sizlar bugaplarni eshitmanglar. Tarbiyalaring buzilishi mumkin, quloqlaringni berkitib olinglar. (Jo‘jalar quloqlarini berkitiboladi).

Kuchukcha-(Mushukga) Nega baland joyga chiqib oldingiz?

Mushuk- Mushuklar baland joyda turib itvachchalar bilan gaplashadi.

Kuchukcha- Endi men bilan o‘ynamaysizmi?

Mushuk- Nima? Manabu surbetni ko‘ringlar. Ta‘zirini berib qo‘ydim, meni quvlab tutolmadi, alamidan o‘ynaymizmi deb tilyog‘lamalik qilayapti.

Kuchukcha- Ikkovimiz kelishgan edikku?!

Mushuk- Nima? Sen bilan-a? Yolg‘onchi, maqtonchoq! Tuhmat qilayapsan! Itvachchalar bilan, g‘ururi bor mushuk hech qachon kelishmaydi. Bor ishingni qil.

Xo‘roz- Sening o‘zing tuhmatchisan. Orsiz kaltafahmsan. Xoroz bilan tovuqni farqiga bormaysan.

Kuchukcha- Xo‘roz amaki!

Xo‘roz- A? Nima deding?

Kuchukcha- Xo‘roz amaki dedim.

Xo‘roz - Yana bir marta qaytar, anavu ham eshitsin, baland ovozda qaytar.

Kuchukcha- Xoroz amaki!

Xo‘roz- (Mushukga) Eshitdingmi, boshqalar meni xo‘rozligimni tan olshayapti.

Mushuk- Ular hali go‘dak, xo‘roz bilan tovuqning farqiga borishmaydi.

Xo‘roz- Borishadi.

Mushuk- Balkim tuxim tug‘ishni nimaliginiyam bilishadi dersan?

Xo‘roz- Bilishadi! Sen yolg‘onchisan, tovlamachisan!

Kuchukcha- Jahlingiz chiqmasin siz xo‘rozsiz, haqiqiy xo‘rozsiz.

Xo‘roz- Juda to‘g‘ri, men xo‘rozman, asil xo‘rozman.

Kuchukcha- Men sizning asil xo‘roz ekanligingizga ishonaman.

Xo‘roz- Sen tarbiya ko‘rgan, dono kuchukvachcha ekansan.

Kuchukcha- Raxmat... Xo‘roz amaki bolalaringiz bilan ozgina o‘ynasam maylimi?

Xo‘roz- Jo‘jalar bilan o‘ynamoqchimisan? Sen-a? Bolalar qochinglar tishi o‘tkir borayapti.

Tovuq- Jo‘jalarim qanotim tagiga kiringlar.

Kuchukcha- Men bolalaringizni tishlamoqchi mastman, o‘ynamoqchiman.

Tovuq- Yaqinlashma!

Kuchukcha- Nega?

Xo‘roz- Senga ishonib bo‘lmaydi, tish-tirnog‘ing o‘tkir, xavflisan.

Kuchukcha- Hech kimni men bilan o‘ynagisi kelmayapti. Agar tishlarim o‘tmas bo‘lganidamma bilan o‘ynardim. Tishsiz bo‘lish qanday yaxshi. Hoy kapalaklarto‘xtanglar, qochib ketmanglar. Agar o‘tkir tishlarim bo‘lmasa men bilano‘ynarmidinglar?

1-kapalak- Tishlaring bo‘lmasa?

Kuchukcha- Ha.

1-kapalak- O‘tkir tishlaring bo‘lmasa sen bilan o‘ynasa bo‘ladi.

2-kapalak- To‘g‘ri o‘tkir tishlaring bo‘lmasa xavflimassan, hatto yoqimtoysan.

Kuchukcha- Bo‘lmasa tishlarimni sug‘irib tashlaymiz.

1-kapalak- Qanday qilib sug‘iramiz?

Kuchukcha- Bilmaymanda... Sizlar menga o‘rgatinglar o‘shanda men ham sizlardek tishsizbo‘laman.

2-kapalak- Tishni qanday sug‘irish kerakligini bizlar bilmaymiz.

Kuchukcha- Tishing o‘tkir deyishni bilasizlar, qanday sug‘irish kerakligini

bilmaysizmi?

1-kapalak-Sen hafa bo'lma. Ana qushlar uchib-qo'nib yuribdi balkim ular bilishar.

Kuchukcha- Hoy qushlar.

1-qush- Yana nega kelding.

2-qush- O'ynamaymiz dedik-ku senga.

Kuchukcha- Agar o'tkir tishlarim bo'lmasa o'ynarmidinglar.

1-qush- Tishlaring bo'lmasa?

2-qush- Tishlaringni oldirmoqchimisan?

Kuchukcha- Ha.

1-qush- To'g'ri qilasan, oldirib tashla.

2-qush- Tishlaringni oldirsang hech kimni qopolmaysan.

1-qush- O'shanda sen bilan mazza qilib o'ynaymiz.

Kuchukcha- Faqat qanday qilib olishni bilmayapman.

2-qush- Panjalaring bilan tortib ko'rchi balkim olinar.

Kuchukcha- Xozir tortaman... (tortib ko'radi) Olinmayapti...

Xo'roz- Nima qilayapsizlar?

1-qush- Kuchukvoy o'tkir tishlarini sug'irib tashlamoqchi bo'layapti.

Xo'roz- Nima bilan?

2-qush- Panjalari bilan.

Xo'roz- Tishni panja bilan sug'irmaydi.

1-qush- Nima bilan sug'iradi?

Xo'roz- Ip topib kelinglar. (Qushlar ip olib kelishadi) Ipni bir uchini tishingga bog'la ikkinchi uchidan biz tortamiz. Boshladik, tortinglar! (torta boshlashadi)
Sug'ruldimi?

Kuchukcha- Yo'q.

Xo'roz- Tishing nima qilayapti?

Kuchukcha- Og'riyapti.

Xo'roz- Og'risa sug'iriladi. Yana tortamiz, boshladik.(tortishadi)

Mushuk- Nima qilayapsizlar?

1-qush- Kuchukni tishini sug'urayapmiz.

Mushuk- Nega?

2-qush- Tishi bo'lmasa qopolmaydi.

Mushuk- To'g'ri qilasizlar. Itlarni tishini sug'irib tashlash kerak. Men sizlarga yordamlashaman. (birgalashib tortishadi)

Xo'roz- Ho'sh, nima bo'ldi?

Kuchukcha- Sug'rulmayapti.

Mushuk- O'zi shunaqa, kerakmas narsa mustahkam bo'ladi.

Kuchukcha- Yana bir marta tortib ko'ringlar, endi sug'riladi.

1-qush- Foydasi yo'q.

2-qush- To'g'ri, endi sug'irilmaydi.

Mushuk- Men tish sug'irishni boshqa yo'lini bilaman.

Xo'roz- Maqtanchoq. Bilganingda allaqachon sug'irib olgan bo'larding.

1-qush- Bilsang ayt.

2-qush- Ayta qol.

Mushuk-Kuchukchani o'ziga aytaman. Boshqalar nariroq borib turishsin. (boshqalar uzoqqa borib turishadi) Beriroq kel. Tishlaringni sug'irishni xohlayapsanmi?

Kuchukcha - Ha.

Mushuk – Judayammi?

Kuchukcha – Judayam.

Mushuk – Tushunarli. Tishni sug'irib tashlash uchun, (shivirlab) sutingdan qolganmi?

Kuchukcha- Yo'q.

Mushuk- Tushunarli. Tishni sug'irish uchun, (shivirlab) suyakchi, balkim suyak bordir?

Kuchukcha- Bor.

Mushuk- Olib kel, keyin aytaman. (Kuchukcha ketadi)

Xo‘roz – Nima qilmoqchisan?

Mushuk- Xozir ko‘rasan.

Kuchukcha- Mana oling. Men tegmaganman, bemalol yalayvering.

Mushuk- Zo‘r suyak ekan. (ketmoqchi)

Kuchukcha- Qayoqqa? Aytmaysizmi?

Mushuk- Suyakni g‘ajib, o‘ylab, yo‘lini topib, keyin aytaman.

Xo‘roz – Mushuk bezbet, kuchukchani yana aldadi.

Mushuk- Qichqirma tovuq. (ketadi)

Xo‘roz – O‘zing tovuq, men xo‘rozman. Sen o‘g‘risan, bezbetsan.

Tovuq – Nima gap , nima shovqin?

1 – qush- Mushuk kuchukchani yana aldab ketdi.

2 – qush- Kuchukcha o‘tkir tishini sug‘irmoqchi.

1- qush- Panja bilan tortdi sug‘urilmadi.

2- qush- Ip bilan torti sug‘urilmadi.

Tovuq – Tarbiya ko‘rmagan bolalar ip bilan tish sug‘uradi, tarbiya ko‘rgan bolalar tish doktoriga murojlat qilishadi.

1-qush – To‘g‘ri, tish doktorini chaqiramiz.

2-qush – To‘g‘ri. Tish doktori? Tish doktori... Qayerdasiz? Tish doktori.

G‘oz - Hozir, bir past sabir qilinglar. (O‘rdakka) Senga necha marta aytish kerak, kresloni yorug‘lik tushadigan tarafga, yani chapga qaratib qo‘yish kerak, deb.

O‘rdak – Kecha kechqurin o‘ng tarafga qaratib qo‘y, degandingiz.

G‘oz - To‘g‘ri, kechqurin aytganman, chunki quyosh o‘ng tarafga botadi. Xozir tong otayapti, quyosh chap tarafda.

O‘rdak – Bu quyosh degani tinimsiz chapdan o‘ngga yuuraversa, men kresloni u yerdan bu yerga suraveramanmi?

1- qush – Doktor?

O‘rdak – (Kuchukchaga) Sabir qiling. Bunaqa og‘ir mehnat menga to‘g‘ri kelmaydi. Xohlasam ishdan ketishim mumkin.

G'oz - Nuqul ketaman deb, qo'riqitasan. O'zimiz chuvalchangxo'rmiz-u, ta'bimiz nozik.

O'rdak – Chuvalchang bo'lganda jon-jon deb yegan bo'lardingiz.

G'oz - Madaniyatsizlik! Chuvalchangda mikrobo'p bo'ladi, hecham yemayman.

Kuchukcha- Doktor.

G'oz - Nima deysan?

Kuchukcha- Iltimos meni tishimni olib tashlang.

G'oz - Yaxshi, navbatga tur.

Kuchukcha- Mendan boshqa hech kim tishini oldirmoqchi emas.

G'oz - O'tir. (O'rdakga) Qo'l-oyog'ini bog'la. Og'zingni och. Tishlaringni qaysi biri kasallangan?

Kuchukcha- Tishlarim kasal emas.

G'oz - Bo'lmasa nega tishlaringni oldirmoqchisan?

Kuchukcha- O'ynamoqchiman.

G'oz - Tushunmadim.

Kuchukcha- Tishlaring o'tkir, qopog'onsan deb, hech kim men bilan o'ynamayapti. Tishlarimni oldirib tashlasam, hamma men bilan o'ynaydi.

G'oz - (O'rdakga) Qo'llarini bo'shat. (Kuchukchaga) Tur o'rningdan.

Kuchukcha- Nega?

G'oz - Og'rimagan tish olinmaydi.

(Mushukni jonholatda miyovlagani eshitaladi).

Mushuk- Yordam bering, miyo-v.

G'oz - Nima gap?

O'rdak- Nima bo'ldi?

Xo'roz- Ochko'z mushuk, kuchukchadan olgan suyakni g'ajib tishini sindirib oldi...

1- qush- Falokat! Falokat!

2- qush- Mushukga yordam bering!

G'oz - (O'rdakga) Tayyorlan shu yerga olib kelamiz. (O'rdakdan boshqa hamma chiqib ketadi. Bir pastdan so'ng hammalari shovqin-suron bilan mushukni ko'tarib olib kirishadi.)

Mushuk- Voy tishim miyo-v! O'lib qolaman, miyo-v. Voydod, miyo-v.

1- qush – Tezroq! Tezroq! Bechoraga yordam bering.

G'oz - Vahima qilinmasin. Bekorga shovqin ko'tarmang. O'tkazinglar. (O'rdakga) Nega anqayib turibsan, qo'l-oyog'ini bog'la. Ombirni ol. (Mushukga) Og'zingni och. Tishingni sug'irib olamiz, boshqa ilji yo'q. Qani mushukvoy og'zingni och-chi! Ha, ana shunday. (tishini sug'irib oladi) Mana bo'ldi. (jimlik)

1- qush – Urra... Endi mushuk bizlarni tishlay olmaydi. Uning o'tkir tishlari sug'irib tashlandi.

Xo'roz- Qu-qa-ri-qu, maqtanchoq, ochko'z mushuk tishlaridan ayrildi. Tovuqjon suyinchi ber, bolalarimiz endi xavf-xatarsiz yashaydi. Qu-qa-ri-qu...

Tovuq- O'tkir tishlarni kamaygani yaxshi, bexavotir yashaymiz.

1- qush – Ura xavf-xatarsiz yashaymiz.

2- qush – Ura!

(Qushcha, xo'roz, tovuq, o'rdak hursandchilikdan uyinga tusha boshlashadi)

Mushuk- (Kuchukchaga) O'tkir tishlarsiz yashab bo'lmaydi. (yig'laydi) Miyo-v.

Kuchukcha- Og'riyaptimi?

Mushuk – Og'riyapti.

Kuchukcha- Sut ichishni xohlaysanmi?

Mushuk – Yo'q. Sen tishlaringni ehtiyot qil. O'tkir tishlarsiz yashash qiyin. (ketadi)

Kuchukcha- Sizlar xursandchilikdan o'ynayapsizlar, mushuk bo'lsa yig'layapti.

Xo'roz – Ayib o'zida bironi haqini yemasin. (Mushuk orqasidan baqiradi) Hoy, qo'shni mushukni tishini qarizga olib tur. Qu-ka-ri-qu. (hamma kuladi)

Kuchukcha- Xo‘roz amaki, nega birovni baxtsizligidan kulayapsiz?

Xo‘roz - Nega kulmas ekanman?

Kuchukcha- Mushuk azob chekayapti, siz bo‘lsangiz kulasiz...

Xo‘roz – U meni ustimdan kulganida, men ham azob chekkanman.

Kuchukcha- Uning o‘tkir tishlari endi yo‘q...

Xo‘roz – Rahming keldimi? O‘zingga o‘xshash tishi o‘tkir vahshiyini himoya qilayapsanmi? Doktor mana buning tishlari ham o‘tkir, uning tishlarini ham sug‘irib olish kerak.

Tovuq – Doktor, men jo‘jalarimni ulg‘ayishini xohlayman. Mana buning tishini sug‘irib tashlang.

1- qush – To‘g‘ri, biz tinch yashashni xohlaymiz.

2- qush – Biz xavf-xatarsiz yashashni istaymiz.

1- qush – Doktor, kuchukchani tishini sug‘irib tashlang.

2- qush – Olib tashlang tishini. Bizlar tishi o‘tkirlar bilan yashashni xohlamaymiz.

O‘rdak – Sug‘irib tashlash kerak tishini.

Xo‘roz- Sug‘irib tashlang.

Tovuq- Olib tashlang.

G‘oz - Tinchlaninglar, shovqin solmanglar.

Xo‘roz- Doktor, kuchukchani tishlarini sug‘irib tashlashingiz kerak.

G‘oz - Yaxshi sug‘irib tashlaymiz. (hamma kuchukchaga tashlanadi, uning tishlarini sug‘irishmoqchi)

1-kapalak- Yordam beringlar, yordam.

G‘oz - Yana nima bo‘ldi?

2-kapalak- Jo‘jalardan biri ariqqa tushib ketdi, suvda oqib ketayapti, qutqaringlar.

1-kapalak- Jo‘jani qutqaringlar!

Tovuq – Jo‘jam! (hamma ariq tomon otiladi) Jo‘jamni qutqaringlar. (Xo‘rozga) Nega turibsan qutqar bolajonimni.

Xo‘roz – Men suvda suzolmayman. (O‘rdakga) Qutqaringlar. (G‘ozga) Yordam beringlar.

O‘rdak- Yordam berolmayman.

G‘oz - Ariqni suvi tez oqar ekan, bizlarni ham oqizib ketadi. (hamma qutqarishga harakat qiladi) Eh, o‘tkir tishlarim bo‘lganida birpastda suvdan olib chiqqan bo‘lardim.

Kuchukcha- (baqirib) Qo‘llarimni yechinglar, bo‘shatinglar qo‘limni. (qushlar uning qo‘llarini bo‘shatishadi kuchukcha o‘zini suvga otadi).

Tovuq- Tezroq! Bolajonim oqib ketadi.

Xo‘roz – Bizlar tomon suz yordamlashamiz. (Jo‘jani suvdan olib chiqishadi. Jimlik)

Tovuq – Tirik! Tirik jo‘jam. Bolajonim biror yering lat yemadimi?

O‘rdak – Yo‘q soppa-sog‘.

G‘oz - Agar kuchukchani o‘tkir tishlari bo‘lmaganda, jo‘jani qutqaralomagan bo‘lardik.

Tovuq – Bolajonim tirik.

1- qush – Kuchukcha jo‘jani qutqardi.

2- qush – O‘tkir tishlari bilan jo‘jani tishlab suvdan olib chiqdi.

Kuchukcha- Qushlar, qo‘yinglar nima keragi bor... (keta boshlaydi)

Xo‘roz – To‘xta, qayoqqa ketayapsan?

Kuchukcha- Inimga.

Tovuq – Kel jo‘jalar bilan birga o‘ynay qol.

G‘oz - Nega endi faqat jo‘jalar bilan, kelinglar hammamiz birgalashib o‘ynaymiz.

Xo‘roz – Ketma birgalashib o‘ynaymiz.

Kuchukcha- Mening tishlarimo‘tkir-ku?

G‘oz - Kimnidir tishlari o‘tkir bo‘lishi kerak ekan. Ahil bo‘lsak, o‘tkir tishlar xavflimas.

Kuchukcha- Rostdan men bilan o‘ynaysizlarmi? Qanday yaxshi... Voy-bu, oqshom tushibdi, quyosh botayapti, qushlar sayrayapti, maysalar shivirlayapti. Hoy, yaqin kelinglar, qo‘lni-qo‘lga beringlar hovlimizni to‘ldirib birgalashib o‘ynaymiz.

(Hamma birgalashib o‘ynay boshlaydi).

PARDA.